

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

4(18)/2021



ISSN-2181-9211



MUHAMMAD AL-XORAZMIY AVLODLARI

ILMIY-AMALIY VA AXBOROT-TAHLILY JURNALI

DESCENDANTS OF MUHAMMAD AL-KHWARIZMI
SCIENTIFIC-PRACTICAL AND INFORMATION-ANALYTICAL JOURNAL



МУҲАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ АВЛОДЛАРИ

Илмий-амалий ва ахборот-таҳлилий журнал
2017 йилда таъсис этилган

4(18)/2021

ТАХРИРИЯТ КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ		МУНДАРИЖА	
Махкамов Б.Ш.	– Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети (ТАТУ) ректори, Таҳририят кенгаши раиси	ДАСТУРИЙ ВА КОМПЬЮТЕР ИНЖИНИРИНГ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ	
Садуллаева Ш.А.	– ТАТУ ўқув ишлари бўйича биринчи проректор, Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари	Mo'minov B.B., Muhamadiyev S.I. Dasturlarni sintaktik tahlil qilishda hosil qiluvchi gramatikalar usuli.	3
Ташев К.А.	– ТАТУ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, Таҳрир кенгаши раиси ўринбосари	Джаналилов Ш.Ў., Тошматов М.З. “ТОЖМОТ” компьютер ўйинининг сунъий интеллект алгоритми	9
Носиров Х.Х.	– Ph.D., доц. бош муҳаррир	Ганиев А.А., Мавлонов О.Н., Юсупов Р.З. Файл тизимида ахборотларни стеганографик яшириш имкониятларининг таҳлили	14
Рахимов Б.Н.	– т.ф.д., проф. бош муҳаррир ўринбосари	Kuchkorov T.A., Ochilov T.D. Tasvirlarni segmentlashning chuqur o'qitishga asoslangan arxitektura va algoritmlari	22
Муҳаррирлар:		Seitnazarov K.K., Aytanov A.Q. Geoaxborot tizimlarida turli xil ma'lumotlarni jarayon oldi qayta ishlash	29
Камилов М.М.	– т.ф.д., проф., акад.	Kaxarov Sh.S., O'rinov E.M. Shaxsni yuz tasviri orqali identifikatsiyalashda ko'p pog'onali biometrik tizim qurish masalasi va yechimlari	32
Мусаев М.М.	– т.ф.д., проф.	Иргашева Д.Я., Агзамова М.Ш. Исследование многоэтапной системы анализа трафика локальной беспроводной сети на основе методов машинного обучения в задаче обнаружения вторжений	36
Арипов Х.К.	– ф.-м.ф.д., проф.	ОПТИК АЛОҚА ТИЗИМЛАРИ, ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ТАРМОҚЛАРИ ВА КОММУТАЦИЯ ТИЗИМЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ	
Абдурахмонов К.П.	– ф.-м.ф.д., проф.	Рахимов Б.Н., Бердиев А.А., Мирсагдиев О.А. Анализ физических принципов функционирования волоконно-оптических датчиков в зависимости от изменяемого свойства света	43
Ганиев С.К.	– т.ф.д., проф.	Давронбеков Д., Мухаммадиев Ж., Мадаминов Х., Файзуллаева Б. Экспериментальная установка для исследования однонаправленного распространения оптических сигналов в оптическом волокне.	52
Жуманов Ж.Х.	– т.ф.д., проф.	Хужаматов Х.Э., Ахмедов Н.М., Лазарев А.П., Кудратхонова М.К. Беспроводные персональные сети как средства реализации решений умного города	56
Мухамедиева Д.Т.	– т.ф.д., проф.	Normatova D.T. Abonent kirish tarmog'ining o'tkazish qobiliyatini oshirish usullari	66
Исаев Р.И.	– т.ф.н., проф.	Нурматова С.Б. Модель управления перегрузкой в подсистеме IMS	70
Юсупов А.	– ф.-м.ф.д., проф.	Якубова М.З., Мананкова О.А., Якубов Б.М. Разработка и исследование модели беспроводной сети на основе программной IP PBX ASTERISK и анализе безопасности	73
Якубова М.З.	– академик (Қозоғистон)	Музафаров Ф.А. Симсиз сенсор тармоғида тугунларни жойлаштиришнинг математик модели	78
Халиков А.А.	– т.ф.д., проф. (ТГЙТМИ)	РАҚАМЛИ ТЕЛЕВИДЕНИЕ ВА РАДИОЭШИТТИРИШ, СИМСИЗ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА РАДИОТЕХНИКАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	
Назаров А.М.	– т.ф.д., проф. (ТДТУ)	Давронбеков Д.А., Фозилжонов Х.И., Фозилжанов И.Р. Исследование спектра побочных электромагнитных излучений видео интерфейса DVI	84
Рахимов Н.Р.	– профессор (Россия)	Nosirov Kh.Kh., Arabboev M.M., Begmatov Sh.A. Development of a multi-parametric monitoring wearable device for human health using wireless technology	93
Жмуд В.А.	– профессор (Россия)		
Miroslav Skoric	– профессор (Австрия)		
Dzhurakhalov A.	– профессор (Белгия)		
Abrafov S.M.	– профессор (Канада)		
Siddikov B.	– профессор (АҚШ)		
Куатакуа К.	– профессор (Австрия)		
Chedjou J.Ch.	– профессор (Австрия)		
Давронбеков Д.А.	– т.ф.д., доц.		
Анарова Ш.А.	– т.ф.д., доц.		
Писецкий Ю.В.	– т.ф.д., доц.		
Нишонов А.Х.	– т.ф.д., доц.		
Муминов Б.Б.	– т.ф.д., доц.		
Рахимов Н.О.	– т.ф.д., доц. (ЎзМУЖФ)		
Амирсaidов У.Б.	– т.ф.д., доц.		
Керимов К.Ф.	– т.ф.д., доц.		
Гаврилов И.А.	– т.ф.н., доц.		
Губенко В.А.	– т.ф.н., доц.		
Тўраев Ш.Ш.	– и.ф.н., доц.		
Шахобиддинов А.Ш.	– Ph.D		
Мадаминов Х.Х.	– Ph.D		
Худайбергенов Т.А.	– Ph.D, доц		
Рўзиев О.Б.	– Ph.D, доц		
Яхшибаев Д.С.	– Ph.D, доц.		
Мирсагдиев О.А.	– Ph.D, доц		
Пузий А.Н.	– Ph.D		
Бердиев А.А.	– бош муҳаррир ёрдамчиси		
Араббоев М.М.	– техник муҳаррир		

Муассис:

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
Тошкент ахборот технологиялари
университети*

Манзил:

*100084, Ўзбекистон, Тошкент ш., Амир
Темур кўчаси, 108
Телефон: 71 238-64-38;
e-mail: alxorazmiy@tuit.uz
Журнал сайти: <http://alxorazmiy.uz>*

Босишига рухсат этилди:

Қоғоз бичими 60x84 1/8

Босма табоғи 15,5. Адади 100 нусха

Буюртма рақами №195 “Фан ва технологиялар

Марказининг босмахонаси”да чоп этилди

Тошкент шаҳри Олмазор кўчаси, 171.

*Журнал Ўзбекистон Матбуот ва ахборот
агентлигида 2017 йил 22 июнда 0921 рақами*

билан рўйхатдан ўтган.

Журнал йилда 4 мартаба

(ҳар чоракда) чоп этилади

ISBN 978–9943–11–665–8

Султонова М. Сети Fronthaul network на основе ООСП	97
Boltayev S.T., Mirsagdiyev O.A., Valiyev S.I., Kasimova Q.A. Turli toifadagi poyezdlar uchun temir yo‘l stansiyalarida marshrutlarni tayyorlash uslubiyati	102
Бимурзаев Г.А., Рахимов Б.Н., Хушвактов С.Х. Бердиев А.А., Батгалова А.В. Методы проведения измерений и выполнение экспериментальных исследований устройства радиомониторинга земного грунта	109
Азизов А.Р., Аметова Э.К., Юлдашев Ш.М. Практическая реализация метода оптимального выбора частоты дискретизации аналогового сигнала в условиях железнодорожной автоматики и телемеханики	114
Yusupov Ya.T. Yaqin masofa qidirib topish radiotexnik qurilmalari yordamida Gauss shovqini fonidagi tasodifiy signallarni aniqlash va farqlash	117
“ЭЛЕКТРОН ҲУКУМАТ” ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	
Саидрасулов Ш.Н. Электрон ҳукумат тизимида жисмоний ва юридик шахсларнинг матнли мувожаатларини автоматик қайта ишлаш масаласи	121
ЎЗБЕКИСТОНДА АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАРИ	
Каримжонова М., Жуманова Г. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва рақамли иқтисодиёт	125
Baltaev R.D., Maksudov M.M., Hakimova M.T., Rahmanov F.SH. Raqamlashtirish jarayonida katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data) bilan ishlashning asosiy texnologiyalarining tahlili	131
ИЛМІЙ АХБОРОТЛАР	
Axatov A.R., Rashidov A.E. Big Data va unig turli sohalardagi tadbiqu	135
Sarbolayev F.N., Usmanov K.I., Islomova F.K. Davriy rejimda ishlovchi kimyoviy reaktorning avtomatik boshqarish tizimini shakllantirish	145
Садиков А.Н., Арипов Н.М. Алгоритмы субоптимальной фильтрации при наличии отказов в канале измерения в системах контроля рельсовых линий	149
Парсиев С.С., Бадалов Ж. И., Аденов Б.Э. Оптимальное распределения нагрузки по инфокоммуникационным узлам	158

UDK: 556.3: 004 (575.1)

Mo'minov B.B., Muhamadiyev S.I.

Dasturlarni sintaktik tahlil qilishda hosil qiluvchi grammatikalar usuli.

Maqolada leksik tahlil tushunchasi va uning qo'llanilish sohalari, leksik tahlilda sintaktik tahlilning ahamiyati hamda sintaktik tahlilda qo'llaniladigan grammatikalar keltirib o'tilgan. Formal tillarga qo'yilgan talablar, formal tilning formulalari keltirilgan. Formal tillarni sintaktik tahlil qilishda hosil qiluvchi grammatikaning qo'llanilishi keltirilgan. Hosil qiluvchi grammatika, kontekstli grammatika va kontekstdan xoli grammatikalarning bir biridan farqli tomonlari hamda qo'llanilishi keltirilgan. Amallarning assotsiativlik xususiyatini aniqlash, o'ng assotsiativ va chap assotsiativ amallarning tahlili keltirilgan. Amallarning ustunlik darajalari bo'yicha bajarilishini nazorat qilish vositalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: alfavit, leksik tahlil, hosil qiluvchi grammatika, kontekstli grammatika, kontekstdan xoli grammatika, terminal, noterminal, chiqaruv daraxti, assotsiativlik, o'ng va chap assotsiativ amallar.

Axborot texnologiyalari sohasida sintaktik tahlil - bu tilning leksemalari (so'zlar, belgilar)ning chiziqli ketma -ketligini uning rasmiy grammatikasiga moslashtirish jarayonidir. Sintaktik tahlil natijasi odatda tahlil daraxti (sintaksis daraxti) asosida quriladi. Odatda leksik tahlil bilan birgalikda ishlatiladi. Sintaktik tahlilchi (parser) - bu dastur yoki dasturning bir qismi bo'lib, tahlilni amalga oshiradi.

Sintaktik tahlil sintaksisga ega bo'lgan har qanday buyruqni avtomatik tahlil qilishga yordam beradi.

Sintaktik tahlil dasturi quyidagi sohalarda qo'llanilishi mumkin.

Dasturlash tillari- kompilyatsiya jarayonida (kompilyatsiya yoki talqin qilish) dasturlash tillarida yozilgan kodni tahlil qilish;

Strukturalangan ma'lumotlar - ma'lumotlar, ularning tavsifi, dizayni va boshqalar. Masalan, XML, HTML, CSS, INI - fayllar, maxsus konfiguratsiya fayllari va boshqalar;

SQL so'rovlari tili;

matematik ifodalar;

regulyar ifodalar (bu o'z navbatida leksik tahlilni avtomatlashtirish uchun ishlatilishi mumkin);

rasmiy grammatikalar;

Tabiiy tillar. Masalan, mashina tarjimai va boshqa matnli generatorlar.

Dasturlashni o'rganish obyekti sifatida odatda bir necha kategoriyaga bo'linadi. Bu kategoriyalar dasturlashga qaysi nuqtai nazardan qarashga bog'liq. Tuzilmali dasturlash, obyektga mo'ljallangan dasturlash, komponentli dasturlash, Web dasturlash, parallel dasturlash, mantiqiy dasturlash va boshqalar. Bunday nuqtai nazar dasturlash stili, ishlatiladigan dasturlash tili spetsifikasi, qo'llaniladigan texnologiya va matematik apparat va shunga o'xshash faktorlar bo'lishi mumkin. Har qanday dasturlash tilida dasturlar aniq o'rnatilgan qonun-qoidalar va ma'lum kalit so'zlar to'plami yordamida yoziladi. Bu esa dasturni tahlil qilish va baholash imkoniyatini beradi. Dasturlash tillarini leksik tahlil qilishda hosil qiluvchi grammatikadan foydalaniladi.

Umuman aytganda ixtiyoriy tilda (formal yoki tabiiy) tuzilgan gap to'g'ri gap bo'lishi uchun u quyidagi shartlarni qanoatlantirishi kerak:

- Til alfaviti asosida so'z tuzish qoidalari (morfoloqiya, leksika);

- To'g'ri so'zlardan gap tuzilmasini tayyorlash qoidalarini (grammatika, sintaksis);

- Gapga ma'no "berish" qoidalarini (semantika);

Tabiiy tillarda morfologik yoki sintaktik noto'g'ri bo'lgan gapdan ham ma'no chiqarsa bo'ladi, ya'ni, tilini to'la o'rganmasdan bu tilda o'z fikrini bildirishi mumkin. Lekin formal tillarda bunday emas. Sintaktik to'g'ri bo'lmagan dasturni bajarishga hojat yo'q.

Dastur semantikasini aniqlash uchun uning ma'nosini (logikasini) bilish lozim. Quyidagi Java operatorlari o'zaro ekvivalent: mahsulotlarni qo'llanish sohasiga qarab tasniflash mumkin.

1. $oneVar = oneVar + (anotherVar * 12);$

2. $oneVar = oneVar + anotherVar * 12;$

3. $oneVar += anotherVar * 12;$

Dastur sintaksisini tushunish uchun uning grammatik tuzilmasini aniqlash kerak. 2- operatorning grammatik tuzilmasini aniqlash uchun Java tilining grammatik qoidalarini bilishi kerak.

$\langle operator \rangle \rightarrow \dots | \langle qiymat\ berish\ operatori \rangle | \dots;$

$\langle qiymat\ berish\ operatori \rangle \rightarrow \langle chap$

$ifoda \rangle = \langle qiymat\ berish\ operatori \rangle ;$

$\langle qiymat\ berish\ operatori \rangle \rightarrow \langle o'ng\ ifoda \rangle ;$

$\langle chap\ ifoda \rangle \rightarrow \dots | \langle identifikator \rangle ;$

$\langle o'ng\ ifoda \rangle \rightarrow \langle ifoda \rangle ;$

$\langle ifoda \rangle \rightarrow \dots | \langle ifoda \rangle + \langle term \rangle | \langle ifoda \rangle -$

$\langle term \rangle | \langle term \rangle | \dots ;$

$\langle term \rangle \rightarrow \dots | \langle term \rangle * \langle factor \rangle | \langle term \rangle / \langle factor \rangle /$

$\langle factor \rangle | \dots ;$

$\langle factor \rangle \rightarrow \dots | \langle identifikator \rangle | \langle literal \rangle | (ifoda) |$

$\dots ;$

$\langle identifikator \rangle \rightarrow \langle letter \rangle \{ \langle letter \rangle | \langle digit \rangle \} ;$

$\langle literal \rangle \rightarrow \dots | \langle intLiteral \rangle | \dots ;$

$\langle intLiteral \rangle$

\rightarrow

$\dots | [\langle sign \rangle] [0x] \langle digit \rangle \{ \langle digit \rangle [L / l] \} ;$

Bizning qiymat berish operatorimizni yuqoridagi qoidalarini keraklilarini ketma-ket qo'llab, quyidagicha hosil qilinishi mumkin:

$\langle operator \rangle \Rightarrow$

$\langle qiymat\ berish\ operatori \rangle \Rightarrow$

$\langle chap\ ifoda \rangle = \langle o'ng\ ifoda \rangle \Rightarrow$

$\langle identifikator \rangle = \langle o'ng\ ifoda \rangle \Rightarrow$

$oneVar = \langle o'ng\ ifoda \rangle \Rightarrow$


$oneVar = \langle ifoda \rangle \Rightarrow$

$oneVar = \langle ifoda \rangle + \langle term \rangle \Rightarrow$

$oneVar = \langle term \rangle + \langle term \rangle \Rightarrow$

$$\begin{aligned}
 oneVar &= \langle factor \rangle + \langle term \rangle \Rightarrow \\
 oneVar &= \langle identifier \rangle + \langle term \rangle \Rightarrow \\
 oneVar &= oneVar + \langle term \rangle \Rightarrow \\
 oneVar &= oneVar + \langle term \rangle * \langle factor \rangle \Rightarrow \\
 oneVar &= oneVar + \langle factor \rangle * \langle factor \rangle \Rightarrow \\
 oneVar &= oneVar + \langle identifier \rangle * \langle factor \rangle \Rightarrow \\
 oneVar &= oneVar + anotherVar * \langle factor \rangle \Rightarrow \\
 oneVar &= oneVar + anotherVar * \langle literal \rangle \Rightarrow \\
 oneVar &= oneVar + another * 12
 \end{aligned}$$

Yuqorida $\langle identifier \rangle$ dan $oneVar$, $anotherVar$ va $\langle literal \rangle$ dan 12 ni keltirib chiqarish ketma-ketligi aniqlashtirilmagan.



1-rasm. $oneVar = oneVar + another * 12$ ifodaning chiqaruv daraxti.

Hosil qiluvchi grammatika (0-tipli grammatika, generative grammar, rewrite grammar) deb N, Σ - chekli alfavitlar va $N \cap \Sigma = \emptyset$; $P \subset (N \cup \Sigma)^* N (N \cup \Sigma)^* \times (N \cup \Sigma)^*$ va $S \in N$ shartlarni qanoatlantiruvchi $G = (N, \Sigma, P, S)$ to'rtlikka aytiladi.

Bu yerda: N - noterminal simvollar alfaviti;

Σ - terminal simvollar alfaviti;

P - qoidalar (produksiyalar) to'plami

S - bosh noterminal

Agar $(\alpha, \beta) \in P$ bo'lsa α (satr) dan β (satr) kelib chiqadi deyiladi va $\alpha \rightarrow \beta$ deb yoziladi. $\alpha \rightarrow \beta$ - produksiya yoki qoida deb ham ataladi.

Misol uchun $G_1 = (\{A, S\}, \{0, 1\}, \{S \rightarrow 0A1, 0A \rightarrow 00A1, A \rightarrow \varepsilon\}, S)$ grammatika bo'ladi, chunki I, II va III shartlar bajariladi.

Kontekstli grammatika (kontekstga bog'liq grammatika, bevosita tashkil etuvchilar grammatikasi, 1-tipli grammatika, context-sensitive grammar, phrase-structure grammar) deb shunday $G = (N, \Sigma, P, S)$ hosil qiluvchi grammatikaga aytiladiki, unda $\forall p \in P$ qoida $\eta A \theta \rightarrow \eta \alpha \theta$ ko'rinishida bo'ladi, qaysiki, $A \in N$, $\eta \in (N \cup \Sigma)^*$, $\theta \in (N \cup \Sigma)^*$, $\alpha \in (N \cup \Sigma)^*$.

G grammatikada chiqariluvchan satr quyidagicha rekursiv aniqlanadi:

S - bosh noterminal - chiqariluvchan satr.

Agar $\alpha\beta\gamma \in P$ bo'lsa α da chiqariluvchan satr bo'lsa va $\beta \rightarrow \delta \in P$ bo'lsa $\alpha\delta\gamma$ ham G da chiqariluvchan satr.

Agar α satr G da chiqariluvchan satr bo'lib, faqat terminal simvoldan tashkil topgan bo'lsa α G grammatikada chiqariluvchan terminal satr deyiladi.

G grammatikada chiqariluvchan barcha terminal satrlar to'plami G grammatika hosil qiladigan til deb ataladi va $L(G)$ deb belgilanadi.

G grammatikada $\varphi \in (N \cup \Sigma)^*$ satr $\psi \in (N \cup \Sigma)^*$ satrni bevosita chiqaradi (hosil qiladi) deyiladi va $\varphi \Rightarrow \psi$ deb belgilanadi, agar $\varphi = \alpha\beta\gamma$, $\psi = \alpha\delta\gamma$ bo'lib, $\beta \rightarrow \delta \in P$ bo'lsa.

Bevosita chiqarish - \Rightarrow munosabatning tranzitiv tutashmasini \Rightarrow^* bilan belgilaymiz. Shunda

$$L(G) = \{\omega \mid \omega \in \Sigma^*, S \Rightarrow^* \omega\}$$

Misol sifatida G_1 grammatikada bevosita chiqarishlarning quyidagi ketma-ketligini ko'ramiz: $S \Rightarrow 0A1 \Rightarrow 00A11 \Rightarrow 0011$. Bundan: $0011 \in L(G_1)$ kelib chiqadi.

Yuqorida ko'rsatilgan bevosita chiqarishlar ketma-ketligi G grammatikadagi chiqarish deb ham ataladi. $L(G_1) = \{0^n 1^n \mid n \geq 1\}$ ekanligini ko'rsatish mumkin.

P qoidalar to'plamida $\alpha \rightarrow \beta_1, \alpha \rightarrow \beta_2, \dots, \alpha \rightarrow \beta_n$ qoidalar mavjud bo'lsa ularni qisqartirib $\alpha \rightarrow \beta_1 | \beta_2 | \dots | \beta_n$ deb yozish mumkin.

Misol uchun G_2 grammatikani quyidagicha aniqlaymiz:

$$P = \{S \rightarrow aSBC \mid aBC, CB \rightarrow BC, aB \rightarrow ab, bB \rightarrow bb, bC \rightarrow bc, cC \rightarrow cc\}$$

$$N = \{S, A, B, C\}, \Sigma = \{a, b, c\}, S \text{- bosh noterminal.}$$

G_1 grammatikada quyidagi chiqarish mavjud:

$$S \Rightarrow aSBC \Rightarrow aaBCBC \Rightarrow aabCBC \Rightarrow aabBCC \Rightarrow aabb$$

$$CC \Rightarrow aabbCC \Rightarrow aabbcC \Rightarrow aabbbc$$

$$L(G_2) = \{a^n b^n c^n \mid n \geq 1\}$$
 ekanligini ko'rish mumkin.

Agar berilgan G_a va G_b grammatikalar uchun $L(G_a) = L(G_b)$ bo'lsa G_a va G_b grammatikalar o'zaro ekvivalent deb ataladi.

Masalan, $N = \{S, A, B\}$, $\Sigma = \{a, b, c\}$ alfavitlar uchun:

$$G_3 = (N, \Sigma, \{S \rightarrow aA|bB|a|b, A \rightarrow aA|a, B \rightarrow bB|b\}, S)$$

grammatika va $G_4 = (N, \Sigma, \{S \rightarrow A|B, A \rightarrow aA|a, B \rightarrow bB|b\}, S)$ grammatika o'zaro ekvivalent

Ko'pchilik dasturlash tillarining asosiy sintaktik tushunchalari formal ta'rif shunday grammatika bilan beriladiki, bu grammatika qoidalari to'plamidagi har bir qoidaning chap tomonida faqat bitta noterminal ishlatiladi. Bunday grammatika - kontekstdan xoli grammatika, u aniqlaydigan til esa kontekstdan xoli til deb ataladi. Kontekstdan holi grammatika formal quyidagicha ta'riflanadi:

Kontekstdan holi grammatika (kontekstsiz, 2-tipli grammatika, context-free grammar) deb shunday hosil qiluvchi grammatikaga aytiladiki, undagi \forall qoida $A \rightarrow \beta$ ko'rinishida bo'lib, $A \in N$, va $\beta \in (N \cup \Sigma)^*$ bo'lsa.

Masalan, $G = (\{S, A, T, U, V\}, \{a, b\}, P, S)$, qaysiki

$$P = \{S \rightarrow ASTA,$$

$$AT \rightarrow UT,$$

$$S \rightarrow AbA,$$

$$UT \rightarrow UV,$$

$A \rightarrow a,$ $UV \rightarrow TV,$
 $bT \rightarrow bb,$ $TV \rightarrow TA$

kontekstli, ammo kontekstdan xoli grammatika emas, oxirgi beshta qoida kontekstdan xolilik shartini bajarmaydi.

Misol: Kontekstdan holi grammatika bo'lmagan G_1 grammatikaga $G_5 = (\{S\}, \{0,1\}, \{SOS1|01\}, S)$ kontekstdan holi grammatika ekvivalent.

Agar satr chiqarishda doimo eng chap tomondagi noterminal almashtirilsa bunday chiqarish chap chiqarish deb ataladi. Agar doimo eng o'ng tomondagi noterminal simvol almashtirilsa bunday chiqarish – o'ng chiqarish deb ataladi. Masalan,

$G = (\{S, A, B\}, \{a, b\}, \{S \rightarrow AB, A \rightarrow aA|a, B \rightarrow bB|b\}, S)$ grammatikadagi $aaab$ satr uchun

$S \Rightarrow AB \Rightarrow aAB \Rightarrow aaAB \Rightarrow aaaB \Rightarrow aaab$ – chap chiqarish

$S \Rightarrow AB \Rightarrow Ab \Rightarrow aAb \Rightarrow aaAb \Rightarrow aaab$ – o'ng chiqaruv.

G grammatikada bo'sh bo'lmagan chiqariluvchan satrning chiqarilish jarayonini tasvirlovchi tuzilma – bu chiqaruv daraxti. Gohida chiqaruv daraxtini grammatik tahlil daraxti yoki sintaktik daraxt ham deb ataladi. Chiqaruv daraxtining formal tavsifi quyidagicha:

daraxt ildizi boshlang'ich simvol bilan belgilanadi

har bir barg terminal simvol yoki ϵ bilan belgilanadi

Har bir ichki tugun noterminal simvol orqali belgilanadi

Agar A noterminal-ichki tugun bo'lib, X_1, X_2, \dots, X_n shu tugunning chapdan o'ngga qarab o'g'il tugulari bo'lsa, u holda berilgan grammatikada $A \rightarrow X_1 X_2 \dots X_n$ qoida mavjud. Masalan,

$G_6 = (\{list\}, \{+, -, 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9\}, P_6, list)$, qaysiki:

$P_6 = \{list \rightarrow list + list$


$list \rightarrow list - list$

$list \rightarrow 0|1|2|3|4|5|6|7|8|9\}$

grammatikada $9-5+2$ ifodaning chiqaruv daraxtlari quyidagicha:

a) daraxt $list \Rightarrow list+list \Rightarrow list-list+list \Rightarrow 9-list+list \Rightarrow 9-5+list \Rightarrow 9-5+2$ chiqaruvga

b) daraxtga esa $list \Rightarrow list-list \Rightarrow 9-list \Rightarrow 9-list+list \Rightarrow 9-5+list \Rightarrow 9-5+2$ chiqaruvga mos keladi.



2-rasm. G_6 -grammatikada $9-5+2$ satri ikkita har xil chiqaruv daraxtlari

Chapdan o'ngga qarab daraxt barglari mos kelgan simvollarni tizib yasalgan satr daraxt uchi deb ataladi.

Chiqaruv daraxti uchi bo'sh noterminaldan chiqariladigan (generatsiya qilinadigan, hosil qilinadigan) satrni ifodalaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan har ikkala chiqaruv daraxti uchun daraxt uchi $9-5+2$ satri.

Chiqaruv daraxti qiyidagi prinsipga asosan tabiiy ravishda o'z barglarini chapdan o'ngga tartiblaydi: agar X va Y bitta ota tugunning o'g'il tugunlari bo'lsa va X tugun Y tugundan chapda joylashgan bo'lsa, u holda X tugunning barcha avlodlari Y tugunning avlodlaridan chapda joylashadi.

Kontekstdan holi grammatika tilining yana bir ta'rifi quyidagicha berish mumkin: Kontekstdan holi grammatika tili deb uning barcha chiqaruv daraxtlari tomonidan hosil qilinadigan satrlar to'plamiga aytiladi. Berilgan satr uchun uning chiqaruv daraxtini topish sintaktik tahlil (parsing) deb ataladi.

Kontekstdan holi grammatika tiliga tegishli terminal satr tuzilmasini qarayotgan vaqtda shuni aniqlash mumkinki, satrga bittadan ko'p chiqaruv daraxti mos kelishi mumkin. Bu holda Kontekstdan holi grammatika bir qiymatli emas (ambiguous) deyiladi. Kontekstdan holi grammatika bir qiymatli emasligini bittadan ko'p chiqaruv daraxti mavjud bo'lgan ixtiyoriy bitta Kontekstdan holi grammatika tiliga tegishli satr mavjudligini ko'rsatish bilan isbotlash mumkin.

Masalan, Yuqorida qarab o'tilgan G_6 – bir qiymatli bo'lmagan grammatika, chunki $9-5+2$ satrining ikki xil chiqaruv uchun ikkita har xil chiqaruv daraxti mavjud. Bu grammatikani unga ekvivalent bir qiymatli Kontekstdan holi grammatikaga quyidagicha almashtirish mumkin:

$G_7 = (\{list, digit\}, \{+, -, 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9\}, P_7, list)$, qaysiki:

$P_7 = \{ list \textcircled{R} list + digit$

$list \textcircled{R} list - digit$

$list \textcircled{R} digit$

$digit \textcircled{R} 0|1|2|3|4|5|6|7|8|9$

$\}$

Bu holda barcha terminal satrlarning har biri uchun satrning har xil chiqaruvlar sonidan qat'iy nazar bitta chiqaruv daraxti mavjud. (3-rasm)

Masalan, Javada metodni chaqirish grammatikasini quyidagicha aniqlash mumkin:

$G_8 = (N, \Sigma, P_8, call)$, qaysiki:

$N = \{call, optparams, params\};$

$N = \{(\text{), param, id\};$

$P_8 = \{call \textcircled{R} id (optparams)$


$optparams \textcircled{R} params | \epsilon$

$params \textcircled{R} params, param | param$


Bu grammatika orqali id (param, param).

Biror bir binar amal \textcircled{R} bilan bog'langan operandlar ketma-ketligini qaraylik : $E = a_1 \textcircled{R} a_2 \textcircled{R} \dots \textcircled{R} a_n$. Bunday ifodaning qiymatini hisoblash uchun \textcircled{R} amalining assotsiativlik xususiyatini aniqlash muhim. Agar $a_1 \textcircled{R}$ chap assotsiativ bo'lsa $E = (\dots((a_1 \textcircled{R} a_2) \textcircled{R} a_2) \dots \textcircled{R} a_n)$, agar o'ng assotsiativ bo'lsa $E = (a_1 \textcircled{R} \dots (a_{n-2} \textcircled{R} (a_{n-1} \textcircled{R} a_n)) \dots)$ bo'ladi. Dasturlash tillarining aksariyatida qo'shish(+), ayirish (-), ko'paytirish(*) va bo'lish (/) amallari chap

assotsiativ, darajaga ko'tarish amali (^) esa o'ng assotsiativdir.



3-rasm. G_7 grammatikada 9-5+2 satri uchun chiqaruv daraxti.



4-rasm. G_8 grammatikada id(param, param) satri uchun chiqaruv daraxti.

C++ va Java tillaridagi qiymat berish amali, masalan, $a=b=c$ o'ng assotsiativ. Qiymat berish amali bu tillarda quyidagi kontekstdan holi grammatikadek aniqlanadi:



$\langle \text{qiymat berish operatori} \rangle \rightarrow \langle \text{chap ifoda} \rangle = \langle \text{qiymat berish operatori} \rangle$

$\langle \text{qiymat berish operatori} \rangle \rightarrow \langle \text{o'ng ifoda} \rangle$

Bir qiymatli kontekstdan holi grammatikalar uchun chiqaruv daraxti satrning tuzilmasini tavsiflab, unda ishtirok etgan amallarning assotsiativligini ham ko'rsatadi. G_4 grammatika orqali chiqarilgan 9-5+2 satr va chiqaruv daraxtlarida kontekstdan holi grammatika bir qiymatli bo'lmaganligi uchun 5 birinchi daraxtda chap tomondagi ayirish (-) amalida qatnashsa, ikkinchi daraxtda esa o'ng tomondagi qo'shish (+) amalida qatnashadi. Shuning uchun ifodaning qiymati birinchi

holda 6, ikkinchi holda esa 2 ga teng bo'ladi. Bir qiymatli kontekstdan holi grammatika G_9 da esa 5 doimo chap tomondagi ayirish(-) amalida qatnashib, ifodaning qiymati doimo 6 ga teng bo'ladi.

Chap assotsiativlikka ega bo'lgan amal ishtirok etgan ifoda chiqaruv daraxti yuqoridan pastga chap tomonlama o'ssa (5-rasm a.), o'ng assotsiativ amal ishtirok etgan ifoda chiqaruv daraxti yuqoridan pastga o'g tomonlama o'sadi. (5-rasm b.)



5-rasm. O'ng assotsiativ va chap assotsiativ amallar

Faraz qilaylik bir xil assotsiativiyaga ega bo'lgan \otimes va \odot amallar bilan bog'langan operandlar ketma-ketligi $E = a_1 \otimes a_2 \odot \dots \otimes a_n$ berilgan bo'lsin. Bunday ifodaning qiymatini hisoblash uchun \otimes va \odot amallarning qaysi biri yuqori ustunlik darajaga ega ekanligini aniqlash muhim. Agar \otimes yuqori ustunlik darajaga ega bo'lsa oldin shu amal bajarilishi, aks holda \odot amali bajarilishi kerak. Dasturlash tillarida qo'shish (+) va ayirish (-) bir xil ustunlik darajaga ega. Xuddi shunday ko'paytirish (*) va bo'lish (/) amallari ham bir xil ustunlik darajaga ega, lekin ko'paytirish (*) va bo'lish (/) amallarining ustunlik darajalari qo'shish (+) va ayirish (-) amallarining ustunlik darajalaridan yuqori.

Kontekstdan holi grammatika va uning chiqaruv daraxti satr tuzilmasida amallarning ustunlik darajalarini ham tavsiflaydi.

Masalan, $G_9 = (\{\text{expr, term, factor}\} \{+, -, *, /, 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9\}, P_9, \text{expr})$.

Bu yerda: $P_9 = \{\text{yexrr} \rightarrow \text{yexrr} + \text{term} \mid \text{yexrr} - \text{term} \mid \text{term},$


$\text{term} \rightarrow \text{term} * \text{factor} \mid \text{term} / \text{factor} \mid \text{factor},$

$\text{factor} \rightarrow \text{digit} \mid (\text{expr})$

$\text{digit} \rightarrow 0 \mid 1 \mid 2 \mid 3 \mid 4 \mid 5 \mid 6 \mid 7 \mid 8 \mid 9 \}$

Bu grammatika orqali 2+5*4 ifodada oldin 5*4 bajariladi (6-rasm a.). Agar 2+5 oldin bajarilishi kerak bo'lsa u albatta (2+5)*4 shaklida yozilishi kerak (6-rasm.

b.), ya'ni ustunlik darajalari buzilgan ifoda yasab bo'lmaydi.



6-rasm. Amallarning ustunlik darajalariga ko'ra bajarilishi.

Dasturlash tillari grammatikalari asosan dastur instruktsiyalarining birinchi simvollarini kalit so'z yoki maxsus simvol bo'ladigan qilib yasaladi. Bu qoidadan ko'pincha dasturostini chaqirish chetda qoladi, qaysiki identifikator va ochiluvchi qavs ketma ketligi orqali aniqlanadi.

Quyidagi bir qiymatli bo'lmagan grammatikaga Java tili korrekt instruktsiyalari to'plamosti soddalashtirilgan qrammatikasi sifatida qarasa bo'ladi

(terminal simvollar burchakli qavslarda (" $\langle \rangle$ ") ko'rsatilgan):

```

<stmt> → <assignment>;
| if ( expr ) <stmt>
| if ( expr ) <stmt> else <stmt>
| while ( expr ) <stmt>
| do stmt while ( expr );
| { <stmts> }
| <call>
<stmts> → <stmts> <stmt>
| ε
<assignment> → id = <assignment>
| id = expr
<call> → id ( <exprs> );
<exprs> → <exprs>, expr
| expr
    
```

<stmts> noterminali bo'sh bo'lishi mumkin bo'lgan operatorlar ketma ketligini yasash uchun mo'ljallangan. Nuqtali vergul (“;”) simbolini o'rnatishda ulaning if, while, va h.k. operatorlaridan keyin ketma-ket kelib qolishini oldini olish uchun u faqat <stmt> noterminali bilan tugamaydigan instruktsiyalar oxirida qo'yilgan.

Xulosa

Bir qiymatli Konteksdan holi grammatikada grammatika tiliga tegishli bo'lgan har bir satr uchun yagona chiqarish daraxti mavjud. Satrning har xil chiqarishlari chiqarich jarayonidagi almashtiriladigan noterminalni tanlanishiga bog'liq. Chap chiqaruv (o'ng chiqaruv) esa satr uchun bitta. Shuning uchun bir qiymatli Konteksdan holi grammatika da har bir chiqaruv daraxti uchun yagona bitta chap (o'ng) chiqaruv mavjud

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Толковый словарь по вычислительным системам /Под ред. Б.Иллингворта и др.: Пер с англ. А.К. Белотского и др.: под ред. Э.К.Масловского. – М.: Машиностроение, 1990.-560с.: ил.

[2].Edsger W. Dijkstra. A Discipline of Programming, Prentice Hall, Englewood Cliffs (N.J.), 1976.

[3].C.A.R. Hoare: An Axiomatic Basis for Computer Programming, in Communications of the ACM, vol. 12, no. 10, October 1969, pages 576-580, 583. Reprinted in [Hoare 1989], pages 45-58.

[4].Donald E. Knuth: The Art of Computer Programming, Vol. 3: Sorting and Searching, Addison-Wesley, Menlo Park (Calif.), 1973.

[5].Bertrand Meyer: Object-Oriented Software Construction, Prentice Hall, Hemel Hempstead (U.K.), 1988 (the first edition of the present book).

[6]. Зиглер К. Методы проектирования программных систем: Пер с англ. – М. Мир, 1985. - 328с. ил.

[7]. Ахо Альфред В., Лам Моника С., Сети Рави, Ульман Джеффри Д. Компиляторы. Принципы, технологии и инструментарий. Вильямс, 2016- 1184 с.

[8]. Kleene, S. C, "Representation of events in nerve nets", in [16], pp. 3-40.

[9]. Lesk, M. E., "Lex — a lexical analyzer generator", Computing Science Tech. Report

[10]. Ахо А., Ульман Дж. Теория синтаксического анализа, перевода и компиляции. В 2-х томах. Т1: Синтаксический анализ. –М. Мир. 1978. – 612с.

[11]. Ахо А., Ульман Дж. Теория синтаксического анализа, перевода и компиляции. В 2-х томах. Т2: Компиляция. –М. Мир. 1978. – 488с.

[12]. Пенгус А.Е., Пенгус М.Р. Математическая теория формальных языков. www.intuit.ru

[13]. Реюорд-Смит В.Дж. Теория формальных языков. Вводный курс. Пер. с англ. – М. Радио и связь, 1988. -128с.: ил.

[14]. Daniel Jurafsky, James H. Martin. Speech and Language Processing. An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics and Speech Recognition. Prentice Hall, Englewood Cliffs, New Jersey 1999, 975s.

[15]. Хомский Н., Три модели для описания языка, Кибернетический сборник, вып. 2, ИЛ, 1961, 237—266 стр.

[16]. Хомский Н., Синтаксические структуры, сб. «Новое в лингвистике», вып. 2, «Прогресс», 412—527 стр.

Mo‘minov Bahodir Boltayevich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

"Informatika asoslari" kafedrasini mudiri, t.f.d., professor.

e-mail: mbbahodir@gmail.com

Muxamadiyev Sanjar Isoyevich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

"Informatika asoslari" kafedrasini doktoranti.

e-mail: mrmsi2885@gmail.com

Muminov B.B., Mukhamadiev S.I.

The use of generating grammar in lexical analysis of programs.

The article describes the concept of lexical analysis and its areas of application, the importance of syntactic analysis in lexical analysis as well as the rules used in syntactic analysis. Requirements for formal languages, formulas of formal language are given. In the syntactic analysis of formal languages, the application of formulary grammars are presented. There are different aspects and application of contextual grammar, and non-contextual grammars. The analysis of the right associative and left associative associative operations are presented, determining the associative nature of the associative operations. Means of control over the execution of actions according to the degree of superiority are illuminated.

Keywords: alphabet, parser, lexical analysis, derivation, formal grammar, context free grammar, terminal, nonterminal, parse tree, associative, right and left associative operations.

Джанадилов Ш.Ў., Тошматов М.З.

“ТОЖМОТ” компьютер ўйинининг сунъий интеллект алгоритми

Ушбу мақолада “Тожмот” математик ақл гимнастика ўйинининг келиб чиқиш тарихи, “Тожмот” компьютер ўйинининг инсонга қарши ўйнай олиш сунъий интеллект алгоритмини ишлаб чиқиш жараёнлари ўрганилган. Калит сўзлар: Тожмот, сунъий интеллект, математика, алгоритм.

Бугунги инсонлар ва ахборот-коммуникация технологиялари фаолияти натижасида ҳосил бўлаётган маълумотлар ҳажми, инсонларни ушбу маълумотларни ўзлаштириши, талқин қилиши ва мураккаб қарорларни қабул қилиши қобилиятидан анча устундир. Шу боисдан, катта ҳажмли маълумотларни тўплаш, сақлаш, қайта ишлаш ва тезкор қарорлар қабул қилиш жараёнларини сунъий интеллект асосида амалга оширишга эҳтиёж ортиб бормоқда.

Сунъий интеллект (СИ) - бу тезкор ҳисоблаш муҳитида алгоритмлар яратиш ва қўллаш орқали инсоннинг ақл-идрок жараёнларини тақлид қилиш учун заминдир. Содда қилиб айтганда, сунъий интеллект компьютерларни одам каби ўйлаш ва ечим топишга йўналтирилган технология[1].

Бугунги кунда Ўзбекистонда сунъий интеллектни ривожлантиришга барча тармоқларга кенг жорий этишга катта эътибор қаратилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4996-сон ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 августдаги “Сунъий интеллект технологияларини қўллаш бўйича махсус режимни жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5234-сон қарорлари «Рақамли Ўзбекистон — 2030» Стратегиясига мувофиқ ҳамда сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш ва уларни мамлакатимизда кенг қўллаш, рақамли маълумотлардан фойдаланиш имкониятини ва уларнинг юқори сифатини таъминлаш, ушбу соҳада малакали кадрлар тайёрлаш учун қулай шарт-шароитлар яратишда муҳим аҳамиятга эга.

Ҳозирги вақтда сунъий интеллект нафақат бизнесда қарорларни қабул қилишнинг асоси ҳисобланади, балки компьютер ўйинларини ишлаб чиқишда ҳам компьютерларни инсонга қарши ўйнашини ташкил этиш учун асос бўлиб, турли компьютер ўйинларида мураккаб ечимлар топишнинг келажаги ҳисобланади. Мисол тариқасида, «крестики-нолики» ўйинида, аксарият одамлар қандай қилиб ютқазмасликни осонлик билан тушуниши мумкин. Ваҳоланки бу ўйинда 255168та ноёб (уникал) ҳаракатлар мавжуд бўлиб, улардан 46080таси дуранг билан тугайди. Шашка ўйинининг буюк чемпиони деб ҳисобланадиган одамлар сони эса анча кам, чунки бу ўйинда 500×10^{18} ёки 500 квинтиллиондан кўп турли потенциал ҳаракатлар мавжуд. Компьютерлар ушбу комбинацияларни ва

ҳаракатларни ҳисоблашда, ҳамда энг яхши ечим топишда ниҳоятда самаралидир[2].

1990 йилларда СИ тараққиётида янги саҳифа очилди. 1997 йилда Deep Blue номли IBM компютери шахмат бўйича жаҳон чемпиони Гарри Каспаровни енгган тарихдаги илк компьютер бўлди.

Миллий Тожмот ўйини ҳам шахматни севган, турнир ва мусобақаларда юқори натижаларга эришган Манолит Тошматов томонидан чуқур таҳлиллар асосида 2012 йилда яратилган, бўлиб, ихтирочи ақл гимнастикаси сифатида шахматдан фарқ қиладиган ўйин яратиш устида узок вақт ишлади. Унинг фикрича яратиладиган ўйин янгича кўринишда, янгича доскада, янгича катакларда, янгича фигураларда, янгича юриш йўналишларида ва турли комбинацияларда юришлар амалга ошириладиган бўлиши керак эди. Ниҳоят 7 йиллик изланишлардан сўнг 2012 йилда “ТОЖМОТ” номли янги ақл гимнастикаси ўйини яратилди.[3]

Тожмот ўйинида рақамлар кўринишидаги фигуралар иштирок этади. Тожмот ўйинидан ташқари ушбу 89 та катакларда оддий шашка ўйинига ўхшаш лекин, шашка ўйинидан юриш йўллари фарқли ва ўзига хос қизиқарли томонларини ўз ичига олган бошқача ўйин услублари ҳам мавжуддир. Тожмот шашкаси 35 та фақат оқ катакларда ўйналади.

Ўйин қоидалари барча ёшдагилар учун содда ва тушунарли қилиб ишлаб чиқилган бўлиб, қуйида келтирилган:

Доска ва фигураларнинг жойлашуви. Ўйин 2 киши томонидан оқ ва қора рангли араб ва рим рақамлари кўринишидаги 18 та ўйин доналари билан уларни суриш орқали ўйналади[4]. Ўйинда катаклар сони 89 та (1-расм).

Доска ичидаги катакларга жойлаштирилган ўйинчи тошлар

1- қаторга-1;

3 - қаторига X-7-X;

4-қаторга 2-5-8-9-6-4-3;

5 - қаторга II-V-VIII-IX-VI-IV-III доналарини жойлаштириш керак.


Партияни олиб бориш. Ўйинчилар навбат билан доналарни бир мартадан суриш орқали ўйнашади. Оқ донада ўйнайдиган ўйинчи юришни биринчи бошлайди.

Юриш қондаси. Доналар ўз юриш йўналишларида дуч келиб қолган доналарни олади. Бу ҳаракат фигурани олиш дейилади. Фақатгина 1 рақами олинishi мумкин эмас.

Рим рақамли доналар ўзидан ўнг ёки чап томонда турган қарама-қарши рангли катакка 45 градус остида 1 катак юра олади;

1 рақами катакнинг 8 та томонига 1 катак узокликда юриши мумкин;

2 рақамли дона эса ўзига нисбатан вертикал ва горизонтал жойлашган ўз рангидаги катакка 1 қадам юра олади;



1-расм. Тожмот ўйинининг доскаси ва унда доналарнинг жойлашуви.

3 рақами вертикал ёки горизонтал йўналишда ўз рангида 1 қадам ва қарама қарши рангда 45 градус остида 1 қадам юра олади;

4 рақами ўз рангидаги катаклар бўйича исталган узокликка юра олади;

5 рақами ўз ранги бўйлаб Г ҳарфи шаклида 1 катак горизонтал (вертикал) ва 1 катак вертикал (горизонтал) йўналишда юра олади;

6 рақами вертикал 2 қадам, сўнгра горизонтал 1 қадам юра олади;

7 рақами катакнинг 8 та йўналиши бўйлаб хохлаган томонига тўғри чизик бўйлаб юра олади;

8 рақами 45 градус остида истаган томонига истаган узунликда юриши мумкин;

9 рақами катакнинг 8 та томонига 1 катак узокликда юриши мумкин.

Рим рақамлари доналари қарши томоннинг Х рақамлари турган катакка борганда, ўзига тенг бўлган, Х доналар эса исталган (1 рақамидан ташқари) араб рақамига айланиши мумкин.

Доналар ўз йўналиши бўйича 1 рақамига кишт(тож) бериши мумкин. Кишт берганда 1 рақамининг йўли бошқа рақамлар ёрдамида тўсилиши ёки 1 рақами бошқа катакка юриб ўтиши

мумкин. Хужум қилаётган доналар 1 рақами жойлашган ҳудудга кириши мумкин эмас. 1 рақамининг ҳудуди чегараси доскада аниқ белгиланган. 1 рақамини кишт (тож) бериш орқали бошқа катакларга юриб бўлмайдиган ҳолатга келтирилганда рақиб томон ғалаба қозонган ҳисобланади(мот).

Дуранг. Қуйидаги ҳолларда партия дуранг билан тугайди: Ҳеч кимда ғалаба қозониш имкони қолмаганда (М: доналар етарли бўлмаганда— 1 донаси 1 донасига қарши ва б.); Агар рақибда фақатгина 1 донаси қолган бўлса ва у бошқа катакка тожга тушмасдан юриш имкони бўлмаса. Бу ҳолат пот дейилади.

“Тожмот” ўйинини оммалаштиришда компьютерни инсонга қарши ўйнай олиш имкониятини берувчи сунъий интеллектга асосланган компьютер ўйинини ишлаб чиқиш жуда муҳим ҳисобланади.

Тадқиқотларимиз давомида ишаб чиқилган сунъий интеллектга асосланган “Тожмот” ўйинида компьютернинг инсонга қарши ўйнай олиш алгоритми модуллари 2-расмда тасвирланган.

Ушбу моделда келтирилган модуллар қуйида келтирилган вазифаларни бажаради:

“Бошқарувчи” модули сунъий интеллект томонидан бажариладиган вазифаларни бошқаради ва ҳолатни назорат қилади;

“Дона танлаш” модули инсонга қарши ўйнаш жараёнида компьютер томонидан ўзи учун қайси донани юришини аниқлаштириб беради ва кейинги босқичлар ушбу белгилаб олинган дона ёрдамида амалга оширилади;


“Ҳолатни текшириш” модулдан ўйинда юриш амалга оширилгандан кейинги ҳолат, Тож қўйилгани, яъни ғолиб ёки мағлуб бўлганлиги ва дуррангни аниқлашда фойдаланилади;

“Дона турган жойни аниқлаш” модули сунъий интеллект томонидан компьютер учун танланган донанинг доскада жойлашган жойи, устун ва қаторини аниқлаб беради;


“Юриш мумкин жойларни аниқлаш” модули сунъий интеллект томонидан компьютер учун танланган донанинг юриши мумкин бўлган жойларини аниқлаб беради;

“Рақиб доналарни текшириш” модули сунъий интеллект томонидан компьютер учун танланган дона юришидан олдин уриш мумкин бўлган рақиб доналари жойларини аниқлаб беради;

“Юриш” модули сунъий интеллект томонидан компьютер учун танланган донанинг белгиланган йўналишда юришини таъминлайди;




2-расм. Сунъий интеллектга асосланган “Тождот” ўйинининг модели.



3-расм. “Тождот” компьютер ўйинининг “Бошқарувчи” модули алгоритми.

Юқорида келтирилган сунъий интеллектга асосланган “Тожмот” ўйинининг моделида энг асосий ва катта ролни “Бошқарувчи” модули ташкил этади. “Бошқарувчи” модули сунъий интеллект томонидан бажариладиган вазифаларни бошқаради ва ҳолатни назорат қилади. Қолган барча модуллар ушбу “Бошқарувчи” модули орқали бошқарилади. 3-расмда “Тожмот” компьютер ўйинининг “Бошқарувчи” модули алгоритми келтирилган бўлиб, ушбу алгоритмдан кўришимиз мумкинки, “Тожмот” компьютер ўйинида компьютер инсонга қарши ўйнай олиши учун алоҳида “Сунъий интеллектни ишга тушириш” қисм дастурига мурожаат қилади ва бу жараён фақатгина иккинчи ўйинчи сифатида компьютер танлангандагина ишга туширилади.

Ўйин ягона бир мураккаб тизими сифатида ишлаши ва кейинчалик модернизация қилиши



4-расм. “Тожмот” компьютер ўйинининг Unity 3D дастури учун C# тилида ёзилган дастур коди намунаси.

Сунъий интеллект томонидан бажариладиган барча жараёнлар компьютер процессорининг тезлигига асосланган таймер орқали бошқарилганлиги боис инсон ва компьютер бир-бирига қарши ўйнаган вақтда компьютер амалларни жуда катта тезликда бажаради.

Хулоса.

Тадқиқотимиз давомида ишлаб чиқилган алгоритм, “Тожмот” компьютер ўйинининг компьютернинг инсонга қарши ўйнай олиш сунъий интеллектни алгоритми бўлиб, ушбу алгоритм асосида инсонларни бир-бирига қарши ёки компьютерга қарши ўйнаш имконини берувчи шахсий компьютер ва мобил қурилмалар учун дастурий таъминот ишлаб чиқилиши мумкин. Бу эса ўз навбатида, аҳолининг барча қатламини миллий “Тожмот” спорт ўйинини билан шуғулланишга ўргатиш, болаларда ақлий ривожланишни мустаҳкамлаш ҳамда такомиллаштириб бориш учун, ҳамда аҳолининг

жараёнида мураккабликларга дуч келмаслик учун барча модуллар алоҳида қисм дастурлаш шаклида яратилиши ва ўзаро ягона тизим сифатида бирлаштирилиши лозим.

Тадқиқот ишимизда ишлаб чиқилган алгоритм асосида “Тожмот” компьютер ўйинини яратишда Unity3D дастурини ва Visual C# дастурлаш тилидан фойдаланилди. Дастур коди 2 та модулга бўлинган бўлиб, “Асосий” модулда ўйинни ишга тушириш ва бошланғич созуламалар коди киритилди. “Доналар” модулида эса ўйиндаги юришларни бошқариш, ҳар бир доаналар бўйича ҳолатни назорат қилиш, инсонга қарши компьютер ўйнаши учун сунъий интеллект кодлари киритилди. “Тожмот” компьютер ўйинининг Unity 3D дастури учун C# тилида ёзилган дастур коди намунаси 4-расмда келтирилган.

барча қатламини (таълим муассасалари тарбияланувчилари, ўқувчилари ва талабалари, вазирлик, идора, корхона ва ташкилотлар ходимлари, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳасида иш билан банд бўлмаган аҳоли, хорижий фуқаролар) ақлий ривожлантирувчи Тожмот ўйинига қизиқтириш ва ҳеч қандай чекловларсиз ўйнай олиш имкониятини яратиш бўйича янги, замонавий, самарали услуб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Алекс Дж. Шампандар Искусственный интеллект в компьютерных играх // М.: ООО “И.Д.Вильямс”, 2007, 768 с.

Х. Поласиос Unity 5.x. Программирование искусственного интеллекта в играх // М.: ДМК Пресс, 2017, 272 с.

“Тожмот“ ақл гимнастикаси умумтаълим мактабларга ёйилмоқда / Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги расмий веб-

сайти - Тошкент: 04.03.2020. Кириш имконияти ҳавола орқали: <https://mininnovation.uz/uz/news/1833>, очик.

Монолит Тошматов: “Тождот ўйини болларнинг математик қобилиятини ривожлантиради” // Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги расмий веб-сайти - Тошкент: 13.11.2019. Кириш имконияти ҳавола орқали: <https://mininnovation.uz/uz/news/tojmot>, очик.

Джанадилов Ш.Ў. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Миллий Тождот Федерацияси раиси

Тошматов М.З. Миллий Тождот Федерацияси

**Djanadilov Sh.O‘., Toshmatov M.Z.
ARTIFICIAL INTELLIGENCE ALGORITHM
OF TOJMOT COMPUTER GAME**

This article examines the history of the game "Tojmot" mathematical mind gymnastics, the process of developing an artificial intelligence algorithm to play the computer game "Tojmot" against humans.

Keywords: Tojmot, artificial intelligence, mathematics, algorithm.

УДК 004.415

Ганиев А.А., Мавлонов О.Н., Юсупов Р.З.

Файл тизимида ахборотларни стеганографик яшириш имкониятларининг таҳлили

Файлларнинг вақт белгиларини стеганографик канал сифатида ишлатиб махфий ахборотларни файл тизимининг қисмларига яшириш мумкин. Юқори аниқликка эга таймерларга асосланган замонавий операцион тизимларининг вақт белгилари сақланиш ва ишлатилиш жараёнларида информацион узилишлар вужудга келади. Шу жараёнларни ҳисобга олиб маълумотларнинг махфийлигини, ишончилигини ва фойдаланувчанлигини таъминловчи кўп сатхли стеганографик тизимни шакллантиришни амалга оширса бўлади. Қуйида тақдим этилган тизим турли хил файл тўпламларидан иборат миллионлаб файлларга эга NTFS файл тизими ёрдамида назарий ва амалий таҳлилларга кўра баҳоланади. Файл тизимидан оддий фойдаланиш жараёнида ушбу тизим имкониятларини қўллаб яширинган маълумотларни аниқлаб олиш деярли имконсиз. Қолаверса, тақдим этилган усул рақамли криминалистика соҳасида ҳам маълумотларни яшириш ва уларнинг мавжудлигини фош этишда қўлланилиши мумкин.

Калит сўзлар: Стеганография, маълумотларни яшириш, рақамли суд экспертизаси, файл тизими экспертизаси, сақлаш қурилмаси экспертизаси.


Кириш. Стеганографик усуллар алоқа каналлари орқали ўтадиган ёки сақлаш воситаларида сақланадиган маълумотларнинг мавжудлигини яширишга қодир. Ушбу услублар жуда кўп реал ҳаётий жараёнларда фойдалидир [1], [2].

Рақамли стеганографиянинг сўнгги ютуқлари орасида турли хил файл тизимларининг тузилишидаги имкониятларни ҳисобга олган ҳолда маълумотларни яшириш усулларини алоҳида таъкидлаб ўтиш зарур. Бу усуллар маълумотларни сақлаш воситалари билан бевосита боғланган [3]. Ушбу тадқиқотимизнинг асосий мақсади - кластерли файл тизимларида маълумотларни яшириш усулларининг таҳлилинини ўтказиш, уларнинг имкониятларини тадқиқ қилиш ва маълумотларни стеганографик ҳимоя қилишнинг самарали механизмларини яратишдан иборат. Тадқиқотни амалга оширишда албатта хорижий адабиёт манбаларидан фойдаланамиз.

Тадқиқот адабиётларида кўплаб стеганографик усуллар таклиф қилинган ва улар етарлича таҳлил қилинган. Таҳлилда дастурнинг аниқ ишланмалари бўйича эришилган махфийлик, стеганографик канал ҳажми ва ахборот каналидан фойдаланиш каби мезонларга эътибор қаратилади.

Сақлаш ёки форматга йўналтирилган стеганографик усуллар техник хусусиятларидаги ортиқча ёки ишлатилмайдиган майдонлардан фойдаланиб манتيқий каналларда маълумотларни яширади. Бунга юкланмайдиган қаттиқ дискларнинг асосий юклаш ёзувлари (Master Boot Record, MBR), қаттиқ диск сектори ҳажми ва файллар ҳажмининг нотўғрилиги оқибатида фойдаланилмаган диск майдони киради [4].

Замонавий файл тизимлари файлларни сақлаш қурилмаларига жойлаштиришнинг эскирган усулларидан ташқари қаттиқ диск секторлари кетма-кетлигини қамраб оладиган янги кўплаб операцияларни қўллаб-қувватлайди.



1-расм. Диск тузилиши. А-йўлак; В-геометрик сектор; С-йўлак сектори; D-кластер

Маълумотларни файл тизимларининг метамаълумотлар майдонида яшириш стеганографик файл тизимининг яратилиши билан бошланди. Бу GNU/Linux операцион тизимининг ext2 файл тизимига асосланган StegFS файл тизими эди. Бундан ташқари файл тизимининг ишлаш фаолиятига деярли таъсир кўрсатмайдиган жуда кўп бошқа яширин майдонлар мавжуд. Улар ёрдамида конфиденсиал маълумотларни беркитиш ва мазмуни ҳимоялаш мумкин. Энг кўп фойдаланиладиган яширин майдонларга файлларнинг фойдаланилмайдиган майдонлари (File slack) ва маълумотларнинг муқобил майдонлари яққол мисол бўла олади. Унчалик таниқли бўлмаган майдонларга файл тизимининг келгуси кенгайишлари учун заҳира майдонлари ва вақт белгилари маълумотлар тузилмалари киради. Рақамли суд экспертизаси нуқтаи назаридан ушбу майдонлар шубҳали изларни топишда ҳал қилувчи рол ўйнайди. Қуйида файл тизимининг маълумот яшириш мумкин бўлган баъзи бир майдонларини кўриб ўтамиз:

Маълумотларни “носоз” деб белгиланган кластерларда (Bad clusters) яшириши. Қаттиқ дискда нотўғри ёзилган ёки ўқилмайдиган, оддий ҳолатда

кириш чекланган секторлар “носоз” секторлар деб аталади. NTFS файл тизимининг Master File Table (MFT) қисмида “носоз” кластерлар (\$Badclus) номли рўйхат мавжуд бўлиб, бу рўйхатда дискдаги барча бузилган кластерларнинг рақамлари ёзилган бўлади. Шу рўйхат ёрдамида файл тизими ишламайдиган кластерларга муражаат қилиб ўтирмайди. Яширин ҳужжатларни “носоз” кластерларга гуруҳлаб, маълумотларни яшириш учун шу кластерларнинг кўрсаткичларини \$Badclus рўйхатининг бажарилувчи маълумотлари каторига қўшилади. Бу усулда яширилган маълумотларнинг ҳажми чекланмаган.

Маълумотларни яширишнинг файлларнинг қўшимча кластерлари (Extra cluster of files) усули. Бу усулда маълумотларни яшириш файллар учун мўлжалланган қўшимча кластерлардан фойдаланиш билан боғлиқ. Тасаввур қилайлик, 10752 битга эга бўлган файл берилган бўлсин. NTFS файл тизими ҳар бири 8 сектордан иборат 3 та кластерни файл учун ажратади. Лекин фойдаланувчи маълумотларни яшириш мақсадида кўпроқ кластерларни белгилаши мумкин. Бу махфий маълумотларнинг ҳажмини яшириш билан чекланмайди. Чунки шубҳали маълумотлар фойдаланувчиларнинг эҳтиёжларига қараб файлларнинг ортиқча кластерлари қисми сифатида қаралиши мумкин. Ушбу маълумотлар яшириш усулининг камчиликларидан бири бу сақланган файллар ҳажмини ўзгартириш имкониятининг йўқлигидир. Файллар ҳажмининг ортиши билан яширин маълумотлар йўқолади. Сақланадиган файлларнинг барқарорлиги бу усулнинг энг асосий талабидир. Бу усулни аниқлаш Windows операцион тизимнинг буйруқлар сатрида “chkdsk” буйруғи ёрдамида амалга оширилади.

Файлларнинг фойдаланилмайдиган майдонларида (File Slack Space) маълумотларни яшириш. Файлларнинг фойдаланилмайдиган майдонлари – бу рухсат этилган маълумотлар файлининг охири блоги ва сақлаш учун ажратилган майдоннинг охири орасидаги фарқ ҳисобланади. Windows операцион тизимининг файл тизимларида кластерлар фиксирланаган ҳажмга эга. Одатда кластерлар 4КБ, 8КБ, 16КБ, 32КБ, 64КБ, 128КБ ҳажмларга эга бўлади. Кластер ҳажми аниқланганидан сўнг маълумотларни ўқиш ва ёзиш кластер бўйича амалга оширилади. Мисол учун ҳажми 32КБ ли кластер берилган бўлсин. Файл ҳажми 15КБ бўлса тизим унга 32КБ майдон ажратади. 32КБли майдоннинг файл эгаллаган реал ҳажми 15КБни ташкил этади. Қолган 17КБ майдондан бошқа ҳужжатлар фойдалана олмайди. Бу майдон файлларнинг фойдаланилмайдиган майдонлари деб аталади. Бу майдонларнинг икки хил тури мавжуд: оператив хотирадаги фойдаланилмайдиган майдонлар ва қаттиқ дискдаги фойдаланилмайдиган майдонлар. NTFS файл тизимининг фойдаланилмайдиган майдонларига яширин маълумотларни Slacker.exe дастурий воситасида ёзилади.

Маълумотларнинг муқобил майдонларида маълумотни яшириш (Alternate Data Stream, AltDS) усули. Маълумотни муқобил майдонларда яшириш NTFS файл тизимининг ўзига хос хусусиятларидан биридир. Бу усулда файл тизимини қайта тикламасдан файл механизмига қўшимча атрибут ёки информацияни қўшиш мумкин. Бу усулнинг ишончлилиқ даражаси қолган усулларга қараганда паст ҳисобланади. Чунки AltDS майдонли файллар NTFS файл тизимидан бошқа тизимга ўтказилганда файлларнинг майдонлари автоматик равишда ўчириб юборилади.

Файл тизими асосида маълумотларни яшириш учун “fishy” тизими натижалари ёрдамида ҳозирги кунда энг оммабоп файл тизимлари бўлган NTFS, FAT ва ext4 лар учун маълумотларни яшириш усулларини таҳлил қилиш мумкин. Таҳлил натижалари 1-жадвалда берилган. Жадвалда ✓ белгиси билан белгиланган майдонлар текшириш ўтказилган усулларни, X белгиси билан белгиланган майдонлар ҳали ўрганиш жараёни кечаётганини ва – белгиси билан бу усул бошқа файл тизимларида мавжуд эмаслигини билдириш учун ишлатилган. Бундан ташқари жадвалда яшириш усулларнинг *ҳажми, бардошлилиги ва аниқланиш эҳтимолликлари* ҳам баҳоланган. Охириги устунлардаги X, A ва B ҳарфлари мос равишда яшириш усули *ҳажми (H), аниқланиш эҳтимоллиги (A)* ҳамда *бардошлилигини (B)* тасвирлаш учун ишлатилган (○=паст; ●=ўртача, ●=юқори).

Файл тизимининг техник хусусиятлари маълумотларни тавсифлаш учун қўшимча маълумотлар тузилмаларини (яъни “метамаълумотлар”) асл нусхаси каби кириш ҳуқуқлари ва муҳим файл воқеалари содир бўлган сана ва вақтни аниқлайди

Стеганографик канал сифатида *файл тизимининг вақт белгиларини* қўллаш куйидаги жараёнларни ўз ичига олади:

1. Замонавий файл тизимларининг вақт белгиларини қай даражада бўлақларга ажратиш жараёнини ва стеганографик дастурларда қўллаш мумкинлигини таҳлил қилиш..

2. Вақт белгиларидан NTFS ва бошқа файл тизимларида секунд даражасидаги аниқлик билан маълумотларни яшириш воситаси сифатида фойдаланиш.

3. NTFS файл тизими қисмларида маълумотларни хавфсиз яшириш учун турли даражадаги имкониятларни қўллаб-қувватлайдиган тизим дизайни ва концепцияни амалга оширувчи дастурни тавсифлаш.

4. Таклиф қилинган тизимни реал ва синтетик маълумотлар тўпламлари ёрдамида текшириш ва ўрнатилган стеганографик маълумотни оддий файл тизими операциялари натижасида ҳосил бўлган маълумотлардан ажратиб бўлмаслигини кўрсатиш.

1-жадвал.

Файл тизими майдонларида маълумотларни яшириш усуллари

Усул номи	Файл тизимлари			Таъриф	Ҳ	А	Б
	FAT	NTFS	Ext4				
File Slack	✓	✓	✓	File Slack дан фойдаланиш	●	○	○
MFT Slack	-	✓	-	MFT Slack дан фойдаланиш	●	●	○
AltDS	-	Х	-	AltDS ни қўллаш	●	●	○
Add cluster	✓	✓	Х	Қўшимча кластер/Блок жойлаш	●	○	○
Bad cluster	✓	✓	Х	Носоз кластерлар/ Блок жойлаш	●	○	●
Reserved_gdt_blocks	-	-	✓	Заҳира GDT блоклардан фойдаланиш	●	●	○
Superblock_slack	-	-	✓	Суперблок майдонидан фойдаланиш	○	●	●
Superblock_reserved	-	-	Х	Заҳира суперблок майдонидан фойдаланиш	○	○	●
Superblock_backups	-	-	Х	Суперблок заҳира нусхаларидан фойдаланиш	○	○	●
osd2	-	-	✓	Фойдаланилмаган osd2 инод майдонидан фойдаланиш	○	○	●
Obso_faddr	-	-	✓	Фойдаланилмаган Obso_faddr инод майдонидан фойдаланиш	○	○	●
Nanoseconds	-	Х	✓	Вақт белгиларининг наносония қисмидан фойдаланиш	○	○	●
Bootsector	Х	Х	Х	Юкловчи сектор майдонидан фойдаланиш	○	●	●
Null_dir_entries	-	-	Х	Нулли dir ёзув майдонидан фойдаланиш	●	○	○
Gdt_slack	-	-	Х	gdt ёзувлари каталогидан фойдаланиш	○	●	○
Groupdescr_reserved	-	-	Х	group-desc даги заҳира майдонидан фойдаланиш	○	○	●
Gdt_backups	-	-	Х	gdt заҳира нусхаларидан фойдаланиш	●	○	○
blockbitmapslack	-	-	Х	BlockBitmap заҳира майдонидан фойдаланиш	○	●	●
Inodebitmap_slack	-	-	Х	InodeBitmap заҳира майдонидан фойдаланиш	○	●	●
Inode_slack	-	-	Х	Индексланган inode заҳираларидан фойдаланиш	●	○	○
Inode_reserved	-	-	Х	Inode тузилмасида заҳира майдондан фойдаланиш	●	○	●
Uninit_datastructure	-	-	Х	Uninitialized Block Groups майдонидан фойдаланиш	●	○	○

5. Ушбу янги стеганографик усулнинг рақамли суд экспертизаси фаолияти равнақиға қўшадиған хиссасини муҳокама қилиш.

Маълумотларни яшириш. Рақамли стеганография бўйича дастлабки ишлар маълумотларни яширишга, маълумотларни жойлаштиришнинг турли усуллари муҳокама қилишга ва стеганографиянинг ҳозирги ва яқин

келяжакда қандай ишлатилишига қаратилган эди [5]. Бундай ишлар шахсий рақамли қурилмалардан кенг фойдаланиш ва Интернетнинг кундалик ҳаётимизда тутган ўрни ҳақида ҳали тўлиқ тасаввурга эга эмас эди. Асосий эътибор TCP / IP вақт белгиларини [6] ишлатишдан тортиб TCP / IP майдонларидан кенгрок фойдаланишга ва оддий тармоқ трафиғи ичида кузатиб бўлмайдиган алоқани

ўрнатишга бағишланган эди. Бундан ташқари сақланадиган файллар таркибида кузатилмайдиган маълумотларни киритишга, мултимедия сифатини аниқлаб бўлмайдиган даражада пасайишига олиб келишга қаратилган. Масалан, расмларда пикселларнинг паст аҳамиятли қисмларини манипуляция қилиш (LSB), GIF расмларида ранг палитрасини [7] ёки статик корга (static snow) ўхшаш YouTube видеофилмларидаги [8] маълумотларни кодлашга қаратилган эди.

Файл тизимлари. Бугунги кунда турли хил файл тизимлари ишлаб чиқарилган бўлиб, улар “Microsoft-Windows”га асосланган қурилмалар учун FAT ва NTFS, GNU / Linux тизимлари учун ext4 ва Btrfs, Apple OS X ва iOS қурилмалари учун HFS + кабиларни ўз ичига олади. Уларнинг аксарияти турли хил маълумотларни турли хил параллел қайта ишлаш қобилияти ва тафсилотлар даражасида сақлайди. Бу “файл тизимининг метамаълумотлари” деб номланади. Файл тизими метамаълумотларини бешта тоифага ажратиш мумкин: *файл тизими, дастур, файл номи, таркиб* ва *умумий метамаълумотлар* [9]. *Файл тизимининг метамаълумотлари* - бу файл тизимининг файлни қандай ўқиш кераклиги ва муҳим маълумотлар тузилмалари жойлашган жойни англатади. *Дастур* метамаълумотлари - бу файл тизимидан фойдаланадиган дастур учун фойдали маълумотлар, масалан, файл эгаси ҳақидаги маълумот ва файлга кириш ҳуқуқлари. *Файл номи* метамаълумотлари - бу одамлар томонидан ўқиладиган номларнинг мантикий маълумотлар жойлашувига хариталаш учун маълумотдир. *Таркиб* метамаълумот - бу файлларнинг мантикий манзиллари, файлларни жойлаштириш ҳолати ва файлларнинг ҳақиқий маълумотлари. *Умумий метамаълумотлар* - бу файл тизими томонидан асосан ўз фаолияти учун фойдаланиладиган маълумотдир. Бунга файлнинг ишлаш давридаги турли ҳодисаларнинг вақт белгилари каби маълумотлар киради.

Файл тизимининг метамаълумотларидан фойдаланган ҳолда стеганография Файл тизими метамаълумотларида маълумотларни яшириш билан боғлиқ ишлар 1990-йилларнинг охирида қаттиқ муҳокама қилинган [9]. Шу сабабли Linux ext2 [10] файл тизимига мос келадиган StegFS стеганографик файл тизими ишлаб чиқилган. Файл тизимида файл номларини индексация қилиш тартибида маълумотларни кодлаш (яшириш) [11] Ж.Айкок ва Н. де Кастро томонидан ёзилган “FAT файл тизимида стеганографияни кўлаш” асарида баён этилган.

Дастур метамаълумотлари (масалан, файл эгаси ёки файлга кириш учун рухсат) фақат бир неча байтли маълумотларни кодлаши мумкин ва кодлаш осонликча аниқланади. Масалан техник жиҳатдан NTFS файл тизими файлга ўзбошимчалик билан катта миқдордаги фойдаланувчи рухсат жуфтларининг рўйхатини қўшиб қўйиш мумкин [12]. Файл номини стеганографик операциялар учун яхши номзод деб ҳисоблаш мумкин эмас. Чунки

файл номларининг ғалати комбинацияси дарҳол шубҳали кўринади. Стеганографик маълумотни файлнинг ҳақиқий мазмуни билан аралаштириш жуда кўп ўрганилган. Мултимедия таркибидаги формат контейнерлари (масалан, аудио ёки видео) мултимедия файлини жойлаштирувчи асосий файл тизимига нисбатан шаффоф ва мустақил ҳисобланади. Шундай экан файл тизими даражасидаги таҳлил форматланган контейнерда стеганографик маълумотларнинг мавжудлигини ошқор эта олмайди. Бундан ташқари мултимедия транскодлаш усули стеганографик маълумотнинг асл маълумот каналига сезиларли таъсир кўрсатмасдан самарали равишда ўқ қилиниши мумкинлиги таъкидланади. Умумий метамаълумотлар ҳам файлнинг ишлаш даврини тавсифловчи вақтинчалик маълумотлар каби фойдаланувчи ҳаракатларига ва операцион тизимнинг ўзига жуда сезгир бўлишади. Масалан файллар ҳодисаларининг маълум вақт белгиларини исталган вақтда файл тизимидан нормал усулда ёзиб олиниши мумкин. Бунга файлнинг охириги модификацияси ва охириги кириш вақт белгиси кириши мумкин. Бизнинг маълумотимизга кўра вақтинчалик маълумотларнинг нозиклиги вақт белгиларининг ҳали ҳам стеганографик восита сифатида ўрганилмаганига сабаб бўлиши мумкин.

Замонавий файл тизимидаги вақт белгилари

Замонавий файл тизимлари вақт белгиларини қандай ишлатишини қуйидаги бўлимда таҳлил қилинади. Олға сурмоқчи бўлган тахмин шуни англатадики вақт белгиларида фойдаланилмаган (ортиқча) бўшлиқлар мавжуд бўлиб, улар стеганографик қувватга эга бўлган мантикий канални яратиш учун етарли. Кўпгина замонавий файл тизимлари вақт белгилари сифатида 64 битли қийматлардан фойдаланганлиги ва иккинчи сонияли бўлаклаш усулини тақлиф қилишини 1-жадвал ёрдамида аниқлашимиз мумкин. Ушбу жадвал маълумотлари бугунги кунда истеъмолчиларнинг асосий фойдаланадиган операцион тизимлари ёки унга кирадиган барча файл тизимларини қамраб олади (масалан, Apple OS X, Google Android, GNU/Linux ва Microsoft Windows).

Вақт белгиларини яратиш ноёб ҳодиса ҳисобланиб маълумотнинг катта статик қисми ҳисобланади. Ҳар сафар файлга муражаат қилинганда ёки унга ўзгартириш киритилганда вақт белгиларининг кириш ва ўзгартириш қисмлари ҳам янгиланади.

Вақт белгилари қисмларига маълумот яширишнинг иккита янги воситаси мавжуд. Timestamp-Magic тизими ext4 файл тизимининг бир неча вақт белгилари индекс рўйхатининг наносекунд қисмига маълумотларни яшириш имкониятига эга. TOMS тизими эса айнан шу усулни NTFS файл тизимининг MFT ёзувларининг Filename атрибутига маълумотларни яширади. Қуйида бу тизимни батафсил кўриб чиқамиз.

Жадвалдаги маълумотларга асосан таҳлил қилинган барча файл тизимлари қуйидаги 3 та вақт белгисини қўллаб қувватлайди. Булар яратиш, кириш ва ўзгартириш. Учала вақт белгилари ҳам сана ва вақт билан боғлиқ бўлган маълумотларни секунд аниқлигида сақлайди.

Наносаниядаги аниқлик файл тизимига қирадиган охириги фойдаланувчиларга аниқ ёки билвосита етказилмайди. Улар 2-расмда тасвирланганидек, иккинчи бўлаклашга эришадиган файллар вақт белгиси маълумотлари билан тўқнаш келмоқдалар. Шундай қилиб, вақт белгилари қандай сақланиши ва улардан фойдаланиш ўртасида ахборот узилиши мавжуд бўлиши мумкин.

2-жадвал.

Файл вақт белгилари хусусиятлари


Файл тизими	Файл вақт белгиси	Ҳажми	Вақт бўлаклари
NTFS	Яратиш	64 бит	100 нсек
	Кириш	64 бит	100 нсек
	Ўзгартириш	64 бит	100 нсек
	MFT ёзувини ўзгартириш	64 бит	100 нсек
ext4	Яратиш	64 бит	1 нсек
	Кириш	64 бит	1 нсек
	Ўзгартириш	64 бит	1 нсек
	Ўзгартириш атрибути	64 бит	1 нсек
Btrfs	Яратиш	64 бит	1 нсек
	Кириш	64 бит	1 нсек
	Ўзгартириш	64 бит	1 нсек
	Ўзгартириш атрибути	64 бит	1 нсек
ZFS	Яратиш	64 бит	1 нсек
	Кириш	64 бит	1 нсек
	Ўзгартириш	64 бит	1 нсек
	Ўзгартириш атрибути	64 бит	1 нсек
FAT32	Яратиш	32 бит	2 сек
	Кириш	16 бит	1 кун
	Ўзгартириш	32 бит	2 сек
HFS+	Яратиш	32 бит	1 сек
	Кириш	32 бит	1 сек
	Ўзгартириш	32 бит	1 сек
	Ўзгартириш атрибути	32 бит	1 сек
	Захира нусхалаш	32 бит	1 сек
ext3	Кириш	32 бит	1 сек
	Ўзгартириш	32 бит	1 сек
	Ўзгартириш атрибути	32 бит	1 сек

Файл вақт белгиларига асосланган стеганография

Файлларнинг вақт белгиларига асосланган яширин, мустаҳкам ва кенг диапазонли соғламаларда қўлланиладиган стеганографик сақлаш тизими яъни TOMS (Time is on my side) тизимини кўриб чиқамиз. Юқоридаги "яширин" сўзи шуни англатадики, бузгунчи вақт белгиларини ўрганиш орқали стеганографик маълумотларнинг мавжудлигини ёки йўқлигини аниқлай олмайди. Шундай қилиб, бузгунчиларга фақат хизматни рад этиш имконияти, яъни барча вақт белгиларини ёзиш ва стеганографик канални йўқ қилиш, шу билан уларнинг мавжудлигини ошкор қилиш имконияти қолади.

"Мустаҳкам" сўзи эса тизим файлларни манипуляция қилиш хуружларини қўллаб-

қувватлаши ва тиклаши мумкинлигини англатади. "Кенг қўлланиладиган" дегани тизим турли хил операцион тизим соғламаларига мос равишда соғланиши, ишлаши ва махфийликни мувозанатлаштириши мумкин.



2-расм. Windows фойдаланувчиларида вақт белгиларининг намоён бўлиши.

Тизим хусусиятлари

TOMS (Time is on my side) тизимининг мақсади – маълумот ташувчи ёки хостнинг файл тизими метамаълумотлари ичига ахборотни яширишдир. Аниқлик учун тизим керакли бўшлиқни аниқлай олади (яъни фойдаланиладиган файл вақт белгилари) ва барча керакли жойлар аллақачон мавжуд деб тахмин қилинади. TOMS дизайни кўп сатхли ёндашувдан келиб чиқади. Юқоридан пастгача тизим қуйидагиларни ўз ичига олади: (I) хабарни сақлаш учун контейнер сатҳи, (II) ортикча хатоларни тузатиш сатҳи ва (III) шифрлаш сатҳи.

Сақлаш учун контейнер сатҳи.

Сақлаш учун контейнер сатҳи хабарни асосий файлнинг вақт белгиси метамаълумотида элементар сақлаш бирликлари (elementary storage unit, ESU) сифатида мослаштиради. Ёндашувда файл ва каталог ўрнатилган маълумот учун ишлатилган мутлақ юритиш йўли учун ушлаб қолиш мақсадида шифрланган метамаълумот файллари ва каталогларидан фойдаланилади. Файлларнинг метамаълумотлар ёндашуви фойдалидир, чунки маълумотни ажратиш олиш учун файлларни тўғри тартибда аҳамиятсиз. Бундан ташқари, ушбу файлни махфий маълумотлар билан бир хил файл тизимида сақлаш шарт эмас. Аксинча, у умуман

бошқа сақлаш воситаларида сақланиши мумкин. Албатта бу фойдалидир, чунки текширилган файллар тизимида унинг мазмуни шифрланган бўлса ҳам метамаълумот файли мавжудлиги яширин эмас. Аксинча, бундай шифрланган файл яна шубҳаларни келтириб чиқариши мумкин. Иккинчи вариант - маълумотни **фақат** файллар ва уларнинг вақт белгилари асосида ишончли жойлаштириш ва ажратиб олиш. Буни бутун файл тизимларида (масалан, NTFS томи) ёки папка ости даражасида (масалан, NTFS root бўлмаган каталог) **яширин алмаштиришлар** ёрдамида амалга ошириш мумкин. Бундай ҳолда, барча файллар ва каталоглар глобал микёсида (файл тизими даражаси) ёки локал (папка ости даражаси) яратилиш вақт белгиси бўйича сараланади. Ушбу тартиб махфий маълумотларни ёзиш ва кейинчалик ўқиш учун ишлатилиши мумкин бўлган (мантқиқий) доимий сақлаш майдонини белгилайди.

Хатоларни тузатиш сатҳи

Файл тизимига эга бўлган сақлаш воситасидан нормал фойдаланиш ва бузғунчиларнинг ҳаракатлари файл тизимида сақланган баъзи файлларни ўчириб ташлаши мумкин. Шунингдек, бузғунчилар баъзи файлларни яратиш вақт белгиларини атайлаб ўзгартириши мумкин. Бундай ҳаракатлар атайлаб қилинганми ёки йўқми барибир яратиш вақт белгиларининг янги тартибини келтириб чиқаради. Натижада кириш файллари сегментларига тўғри тартибда ёки умуман кириш имкони бўлмайди.

Хатоларни тузатиш сатҳи кириш файлининг дастлабки кўринишини юқорида айтиб ўтилган масалаларни енгиш учун кўшимча маълумот билан кўпайтиради. Биринчи қадам сифатида хато тузатиш коди (error correcting code, ECC) қўшилади. Хато тузатиш коди етишмаётган маълумотларни аниқлай олади ва қайта тиклайди. Иккинчи қадам сифатида ушбу сатҳ ишлатилган файллар учун *бошланғич ҳаракатни* амалга оширади. Бу дастурни исталган


тасодифий нуқтасидан бошлашга ҳамда эски ва янги файллардан фойдаланишга имкон беради. Шундай қилиб, маълумотни яшириш учун фақатгина эски файллардан эмас янгиларидан ҳам фойдаланилади ва тегишли кодини танлашни амалга ошириш жараёнига топширилади. Умуман олганда, хатоларни тузатиш коди сақлаш учун кўшимча харажатларни талаб қилмаслиги керак .

Шифрлаш сатҳи

Хатоларни тузатиш сатҳи маълумотларнинг ортиқча миқдорини тақдим этади . Ушбу маълумотларнинг ортиқча миқдорини мантқиқий узлуксиз сақлаш майдонини яратиш учун вақт белгисидан вақт белгисига боғланишларни кўрсатиш учун зарур бўлган маълумотларга мос келади. Бу шаблонли вақт белгиларини келтириб чиқарадиган манбалар бўлиши мумкин. Агар қонуниятлар аниқланса, бутун стеганографик тизим қулайди, чунки улар яширин маълумотларнинг мавжудлигини очиб беради.

Шифрлаш сатҳининг роли икки хил: Бир томондан у махфий маълумотларни ошкор қилишдан ҳимоя қилади. Шифрланган ва яширин маълумотларга фақат тегишли криптографик калитларга эга бўлган киши кириш ҳуқуқига эга. Бошқа томондан хавфсиз шифрнинг чалкашлиги ва диффузия хусусиятлари чиқишда унинг умуман тасодифий кўринишига имкон берадиган деярли ҳеч қандай шаблон мавжуд бўлмаслигини кафолатлайди.

Шифрлаш сатҳи аввалги икки сатҳ маълумотларини шифрлаш учун симметрик криптографик алгоритмлардан фойдаланади. Ушбу сатҳда оқим шифрлари, масалан AES-OFB ёки RC4 дан фойдаланиш мумкин. Оқим шифрларининг блок шифрларидан устунлиги аввалгиси операция натижасини кенгайтиришга ҳожат йўқ ва улар маълум бир хатолардан (масалан, йўқолган вақт белгиларини) қайта тикланиш хусусиятига эга бўлади.



2-расм . Вақт белгиларининг наносекунд қисми майдонларида маълумот сақлашнинг таҳлили

Ахборотни тақдим этиш: NTFS мисолида

Енди TOMS тизими компонентлари қандай қилиб хабарни вақт белгиларида яшириш учун биргаликда ишлашни тасвирлашимиз мумкин. Қуйида биз NTFS файл тизимидан мисол сифатида фойдаланамиз. Шу билан бирга, тавсиф шунга ўхшаш хусусиятларга эга бўлган бошқа ҳар қандай файл тизими учун амал қилади. 2-расмда файл тизими ва каталогни ўз ичига олган турли хил файл тизимлари объектларини намойиш қилиш учун ишлатиладиган NTFS inode маълумотлар таркиби тасвирланган. Қуйида NTFS инодларига мурожаат қилиш учун "файл" атамасидан фойдаланамиз.

NTFS ҳолатида TOMS тизими томонидан иккита файл вақт белгиларидан фойдаланиш мумкин: *яратиш* ва *охирги кириш*. Ҳар бир вақт белгиси ўзининг наносаниядаги қисмини кўрсатиш учун 24 битдан фойдаланади. Шундай қилиб, маълумотни яшириш учун ҳар бир файл учун жами олти байтдан фойдаланиш мумкин. Бу TOMS тизими учун элементар сақлаш бирлигини (ESU) ташкил этади. Кириш (стеганографик) хабарнинг ҳажми M элементар сақлаш бирлигини ҳажмидан анча катта деб тахмин қилинад. Дастлаб хатоликни тўғрилаш коднинг функцияси киритиш хабарида қўлланилади, $E = ECC(M)$. Кейин n , E ни сақлаш учун зарур бўлган ESU сони олдиндан белгиланади ($n||E$).

Маълумотни яшириш

Ахборотни яшириш жараёни қуйидагича ишлайди. Кодланган хабар (E) ҳар бири беш байтдан иборат n блокларга бўлинади (B_1, B_2, \dots, B_n). Сўнгра ҳар бир блок индекс сифатида ишлатиладиган битта байт билан таъминланади ($i \in \{1, \dots, n\}$). Индекс байти учун $0x00$ махсус қиймати керакли элементар сақлаш бир-ликлари (ESU) лар сонини ўз ичига олган бешта байтлик блокни олдиндан ўрнатиш учун ишлатилади. Олинган структура олти байтлик блокларнинг боғланган рўйхатидан иборат: $(0, n), (1, B_1), \dots, (n, B_n)$. Кейин ушбу тузилма олти байтлик блокларнинг чиқиш рўйхатини ишлаб чиқарадиган оқим шифри ва махфий калит билан шифрланади: C_0C, \dots, C_n .

TOMS ташувчи сифатида ишлатилиши мумкин бўлган номзод файллар рўйхатини тузади. F рўйхат ҳар бир файлнинг яратилиш вақт белгиси асосида тузилади ва бошланғич S силжиш тасодикий тарзда танланади. Файлларнинг тартибланган рўйхати $F_s = \{f_s, f_{s+1}, \dots, f_{s+n}\} \subseteq F$ ташувчи сифатида ишлатилади. Кейин TOMS ҳар бир файлни яратиш ва кириш вақт белгиларини наносаниядаги қисмини олади ва F_s нинг олти байтлик шифрланган C_i қисм билан ўзгартиради.

Катта ҳажмдаги хабарлар билан ишлаш

Фақат битта байтнинг индекс сифатида ишлатиш махфий хабар (E) узунлигини атиги 255 байтгача чеклайди. Ушбу чекловни бир нечта индекс байтларининг бир хил қийматга эга бўлиши орқали енгиб ўтиш мумкин ($0xFF$ қийматига етиб боргандан кейин тўлдириш ва $0x01$ дан рақамлашни қайта бошлаш). Ҳар сафар индекс байтлари тўлиб қолганда

бутун хабар узунлигини сақлаш учун ESU сарфланади ва яна $0x00$ индекс байтидан фойдаланилади. $0x00$ қийматига эга бўлган индекс байти ҳар бир ESU хабарнинг *умумий* узунлигини ўз ичига олади.

Яширин маълумотларни қайта тиклаш

Ахборотни қайта тиклаб олиш жараёни қуйидагича ишлайди. Файл тизимидаги барча файллар учун вақт белгилари ажратиб олинади. Яратилиш вақти бўйича сараланади ва кейин G рўйхати сифатида сақланади. Рўйхатдаги ҳар бир ёзув учун яратилишнинг наносекундалар қисми ва кириш вақт белгилари маълумотни яшириш жараёнида ишлатиладиган бир хил оқим шифрини ва асосий материални қўллаш орқали дешифрланади. Агар яратилиш вақт белгисининг шифрланган биринчи байти индекс байтининг 0×00 қийматига тенг бўлса, тегишли вақт белгилари L силжиш рўйхатига қўшилади ва ESU, n сони тикланади. Сўнгра, тегишли n индексини (яъни $0 \times 01, 0 \times 02, \dots, n$) ва H тузилишини тиклаб кейинги n рўйхат ёзувлари қайта ишланади. Кейинги хатоликни тузатиш коди функцияси H -да қўлланилади ва асл M (яширин) хабар тикланади.

Хулоса

Ушбу мақолада файлларнинг вақт белгиларидан стеганографик канал сифатида фойдаланиш мумкинлиги назарий ва амалий жиҳатдан кўрсатиб ўтилган. Таҳлил натижаларига кўра, ҳозирги замонавий операцион тизим файл тизимларининг маълумотлар тузилмаларида файл ҳодисаларининг вақт кўрсаткичларининг сақланиши ва фойдаланувчиларга тақдим этилиши жараёнларида маълумотларни яшириш учун ортикча бўш майдонлар борлигини аниқлаш мумкин. Аниқланган майдонлардан кўп сатҳли тизимдан фойдаланган ҳолда маълумотларнинг махфийлигини, ишончилигини ва фойдаланувчанлигини таъминловчи стеганографик канал сифатида фойдаланиш самарали натижаларни беради. Мақолада бир неча миллион файллар тўпламидан иборат NTFS файл тизими мисолида тажрибавий ва назарий таҳлиллар келтириб ўтилган. Яширин ахборот статистик жиҳатдан оддий ҳолатда яратилган вақт белгиларидан умуман фарқ қилмайди. Бундан ташқари тизимни бошқа замонавий файл тизимларида ҳам қўлласа бўлади. Ва ниҳоят, ушбу тизим рақамли криминалистика соҳасида янги стеганографик усул сифатида ўрганилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. M. Akgul, M. Kirlidog', Internet censorship in Turkey, Internet Policy Rev4(2)
2. Greenwald G. O'place to hide: Edward Snowden, the NSA, and the US surveillance state. Macmillan; 2014
3. Zielinska E, Mazurczyk W, Szczypiorski K. Trends in steganography. Commun ACM 2014;57(3):86e95

4. Khan H, Javed M, Khayam SA, Mirza F. Designing a cluster-based covert channel to evade disk investigation and forensics. *Comput Secur* 2011;30(1):35e49

5. Katzenbeisser S, Petitcolas F. *Information hiding techniques for steganography and digital watermarking*. Artech House; 2000

6. Giffin J, Greenstadt R, Litwack P, Tibbetts R. Covert messaging through TCP timestamps. In: *Privacy enhancing technologies*, Springer; 2003.p. 189e93

7. Bailey K, Curran K. An evaluation of image based steganography methods. *Multimed Tools Appl* 2006;30(1):55e88

8. A. Williams, Transfer data via YouTube, online at <https://hackaday.com/2015/08/23/transfer-data-via-youtube/>

9. Carrier B. *File system forensic analysis*. Addison-Wesley Professional; 2005

10. McDonald AD, Kuhn MG. StegFS: a steganographic file system for Linux. In: *Information hiding*, Springer; 2000. p. 463e77

Ганиев Абдухалил Абдужалилович

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ, Ахборот хавфсизлигини таъминлаш кафедраси т.ф.н., доцент. e-mail: abduhalilganiev58@gmail.com

Мавлонов Обид Низомович Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ, Ахборот хавфсизлигини

таъминлаш кафедраси докторанти. e-mail: mavlonov8686@gmail.com

Юсупов Рахматулла Зафар ўғли

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ, 1-босқич магистрант.

e-mail: yusupovrahmatulla@gmail.com

Ganiyev A.A., Mavlonov O.N., Yusupov R.Z
Analysis of the possibilities of steganographic hiding of information in the file system

By using the timestamps of files as a steganographic channel, confidential information can be hidden in parts of the file system. In modern operating systems based on high-precision timers, information interruptions occur during storage and use of time signals. Taking into account these processes, it is possible to create a multi-level steganographic system that ensures the confidentiality, reliability and usability of the data. The system presented below is evaluated according to theoretical and practical analysis using an NTFS file system with millions of files consisting of different file sets. In the simple process of using a file system, it is almost impossible to detect hidden data using the capabilities of this system. In addition, the proposed method can be used in the field of digital forensics to conceal data and expose their existence.

Keywords: Steganography, data hiding, digital forensics, file system expertise, storage device expertise.

Kuchkorov T.A., Ochilov T.D.

Tasvirlarni segmentlashning chuqur o'qitishga asoslangan arxitektura va algoritmlari

Tasvirlarni segmentlash tasvirni qayta ishlash va kompyuter ko'rishining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, sun'iy yo'ldosh orqali olingan tasvirlarni qayta ishlash, video kuzatuv, robotlar uchun qaror qabul qilish, tasvirlarni siqish va boshqa sohalarda foydalaniladi. Tasvirdagi obyektlarni tanib olish, sinflashtirish, segmentlash, video sahnalardagi obyektarni kuzatish kabi masalalarni yechishda, asosan mashinali o'qitish, sun'iy neyron tarmoqlari va chuqur o'qitish algoritmlaridan foydalanib kelinmoqda. Ushbu maqolada tasvirlarni segmentlash uchun ishlab chiqilgan modellarning keng qamrovli sharhi keltirilgan. Jumladan, semantik segmentlash uchun to'liq konvolyutsion neyron tarmoqlari (FCN), CNN (*Convolutional neural network*) va grafik modeli tarmoqlarning birgalikda qo'llanilgan modellari hamda encoder-decoder arxitekturali modellar tahlil qilingan va natijalari asoslangan. O'z navbatida maqolada hozirgi kunda ishlatilayotgan chuqur o'qitish modellarining o'xshashliklari, ustun jihatlari va kamchiliklarining tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar. tasvirlarni segmentlash, semantik segmentlash, neyron tarmoqlari, konvolyutsion qatlamlar, CNN, FCN, encoder va decoder, upsampling, downsampling, pooling.


Kirish. Tasvirlarni segmentlash ko'plab vizual tanib olish (*visual understanding*) tizimlarining ajralmas qismidir. Bu tasvirlarda (yoki video freymlarni) bir nechta segmentlarga yoki ob'ektlarga ajratishni o'z ichiga oladigan jarayondir. Segmentlash tibbiy tasvirlarni tahlil qilish (o'simtaning chegaralarini ajratib olish yoki to'qimalar hajmini aniqlash), haydovchisiz transport vositalari (yo'l belgilarni va piyodalarni aniqlash), video kuzatuv, hudud tasvirlarini tahlil qilish va yana ko'plab sohalarda qo'llaniladi. Hozirgi kunda tasvirlarni segmentlashning bir qancha algoritmlari ishlab chiqilgan bo'lib, eng birinchi chegara qiymat qo'yish orqali ajratish (*thresholding*) [1], gistogrammaga asosida guruhlash, *k-means* klasterlash algoritmi [3], *watershed* [2] kabi algoritmlardan foydalanilgan. O'z navbatida tasvirni segmentlash uchun ishlatiladigan an'anaviy usullar tahlili bilan birgalikda, neyron tarmoqlarining samarali usullardan biri chuqur o'qitish algoritmi asosida tasvirlarni sinflashtirish, chuqur o'qitish tadbiqu uchun zamonaviy vositalar hamda kutubxonalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va tahlil qilingan [Kuchkorov, Ruzibayev].

Keyinchalik esa, aktiv konturlar, grafik kesmalar (*graphic cuts*), shartli va Markov tasodifiy maydonlari (*Conditional and Markov random fields - CRF*), siyraklikka asoslangan usullar (*sparsity-based methods*) kabi yanada ilg'or algoritmlardan foydalanilgan. So'nggi yillarda, chuqur o'rganishga asoslangan yuqori aniqlikdagi modellar tasvirlarni segmentlash sohasida yangi davrni boshlab berdi. Bu modellar keng tarqalgan standart baholash platformalarida (*benchmark*) eng yuqori natijalarni egallab kelmoqda. Misol uchun 1-rasm chuqur o'qitish modeli DeepLabv3 ning tasvirni segmentlaganidan keying natijasini ko'rsatadi.

Tasvirlarni semantik segmentlash – semantik belgilar yordamida piksellarni tasniflash orqali amalga oshiriladi. Semantik segmentatsiya butun tasvir uchun piksellarni har xil to'plamlarga ajratadi (misol uchun: inson, mashina, daraxt, osmon), va shuning uchun tasvirlarni sinflashtirishdan murakkabroq vazifa hisoblanadi.

Ushbu maqolada tasvirlarni segmentlash uchun ko'p foydalaniladigan chuqur o'rganish modellari oxirgi

olib borilgan tadqiqot ishlari asosida tahlil qilingan. Shu bilan birga, modellarning o'qitish strategiyalari, va sohaga qo'shgan asosiy hissalar kabi har xil xususiyatlar asosida tahlil va xulosalarni taqdim etilgan. Shuningdek, ushbu maqolada ko'rib chiqilgan usullar bo'yicha taqqoslovchi xulosalar va chuqur o'rganishga asoslangan tasvirlarni segmentlash modellarining kamchiliklari hamda ularning kelajakdagi yo'nalishlari borasida ma'lumotlar beriladi. Tasvirlarni segmentlash uchun chuqur o'rganishga asoslangan usullarni quyidagi guruhlariga bo'lib tahlil qilamiz:



1-rasm. DeepLabV3 modelining turli xil tasvirlarni segmentlash natijalari to'liq konvolyutsion tarmoqlar (FCN); grafik modeli konvolyutsion modellar (CNN+CRF, CNN+MRF); encoder-decoder arxitekturali modellar (Unet, Unet++, SegNet); kengaytirilgan konvolyutsion qatlam (dilated CNN).

To'liq konvolyutsion tarmoqlari (Fully Convolutional Network – FCN)

To'liq konvolyutsion tarmoqlari (FCN) faqatgina konvolyutsion qatlamlardan tashkil topgan bo'ladi. Konvolyutsion qatlamlar berilgan massivlardan filter/kernel o'g'irlik koeffitsientlari yordamida konvolyutsiya amalidan foydalanib muhim parametrlarni ajratib olish amalidir. FCN istalgan o'lchamdagi tasvirni qabul qilib, xuddi shu o'lchamda segmentlangan tasvirni qaytaradi. Bu tarmoq turining Konvolyutsion neyron

tarmoqlaridan farqi shundaki, bu tarmoqning oxirgi qatlami sifatida to'liq bog'langan zich qatlam (*fully connected dense layer*) qatlamdan foydalanilmaydi.

Ushbu neyron tarmog'i kirish qatlami real tasvir bilan birgalikda, har bir pikseli qayta qiymatlangan tasvirni (*labeled image*) qabul qiladi, ya'ni har bir piksel tasvirdagi turli xil obyektlarga jumladan, daraxt, osmon, maysa va mushuk kabi qayta qiymatlangan (*label*) obyektlarga ega bo'ladi (2-rasm). Natijadagi tasvir esa $C \times H \times W$ o'lchamda shakllantiriladi va bu yerda C tasvirdagi sinflar soni, H tasvirning bo'yi va W tasvirning enini bildiradi.




2-rasm. Pixel bo'yicha segmentlangan tasvir (*Semantik segmentlash*).

Demak, FCN tarmoq har bir pikselni kiruvchi tasvir va ma'lumotlar bo'yicha ma'lum sinflarga ajratadi. Shuning uchun har bir pikselning klassifikatsiya vektori bo'lib, bu vektor shu pikselni mavjud sinflardan biriga tegishli bo'lish ehtimolligini o'z ichiga oladi.

CNN tarmoqlarida kiruvchi tasvir o'lchamlari oldindan belgilab qo'yiladi. Bu esa yangi tasvir kelganda


uni belgilangan o'lchamga keltirish talab qilinadi. FCN tarmoqlarida esa bunday cheklov mavjud emas, shuning uchun qanday o'lchamdagi tasvir qabul qilinsa, shu o'lchamdagi tasvir hosil bo'ladi [18]. Ushbu maqola [6] birinchilardan bo'lib to'liq konvulyutsion qatlamlarga asoslangan modelni taklif qilgan va mualliflar VGG16, GoogLeNet kabi mavjud CNN arxitekturalariga o'zgartirish kiritish orqali samarali va ishonchli natijalar olishgan.

FCN tarmog'ining muhim xususiyatlaridan biri bu neyron tarmog'idagi qatlamlararo ketma-ketlikni o'tkazish amali (*skip connection*) yordamida belgilar to'plamidan foydalanish hisoblanadi. Ushbu amal asosida kiruvchi tasvirdan muhim belgilar to'plamini ajratib olish jarayoni 3-rasmga berilgan. O'z navbatida tasvirdagi belgilar to'plamini shakllantirish (*downsample, sampling*) hamda belgilar to'plamining kiruvchi tasvir abstrakt ko'rinishiga keltirish (*upsampling*) amallari ham tasvirlarni segmentlash uchun ishlatiladi. Bunday upsampling amallaridan foydalanishning asosiy sababi shundaki, oldingi qatlamlar o'zida aniqroq va muhim ma'lumotlarni o'zidan keying qatlamlarga nisbatan ko'proq saqlaydi. Shuning uchun oldingi va keyingi qatlamlardagi ma'lumotlarni qo'shish orqali segmentlash masalalarini aniqroq yechadi. Ushbu amalni to'g'ri bajarish uchun belgilar to'plami (*pool4*) o'lchamlarini o'zidan oldingi qatlam belgilar to'plamining (*pool3*) o'lchami bilan bir xil o'lchamga keltirib, piksellar sinflarga ajratiladi.



3-rasm. FCN modelining ishlash prinsipi

FCN segmentlash modellarining turli xil ko'rinishlari mavjud. 2-rasmga ko'rsatilganidek FCN-32 modelida kiruvchi tasvirning o'lchami 32 marta qisqaradi (*filtr o'lchami 2x2 bo'lgan holatda*), va bu esa ko'plab muhim parametrlarni yo'qolishiga olib keladi. Segmentlangan tasvirni kiruvchi tasvir o'lchamiga keltirish uchun 32 marta upsampling amalini bajarish kerak bo'ladi. Bunday kichik o'lchamdagi tasvirdan foydalanib katta o'lchamdagi segmentlangan tasvirni hosil qilinganda aniqlik yuqori bo'lmaydi. Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun FCN-16 va FCN-8 arxitekturalari ishlab chiqilgan. FCN-16 arxitekturasida tasvirni asl o'lchamga keltirish uchun 16 marta upsampling amali bajarilishi FCN-32 ga qaraganda aniqroq segmentlangan tasvirni hosil qilish imkonini beradi. FCN-8 kutilganidek FCN-16 ga qaraganda tasvirlarni undan ham aniqroq segmentlaydi. [6]



4-rasm. FCN-32, FCN-16 va FCN-8 natijalari hamda haqiqiy tasvirning qayta qiymatlangan ko'rinishi (*ground truth*)


4-rasmga FCN-32, FCN-16 va FCN-8 modellarining natijalari ko'rsatilgan. FCN-8 modelining natijasi haqiqiy tasvirga ancha yaqinligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, FCN modellarining effektiv va aniqlikligiga qaramasdan

ayrim kamchiliklari mavjud. Birinchidan, real-vaqt rejimidagi segmentlash masalalari uchun mos kelmaydi chunki parametrlar soni ko'proq. Ikkinchidan, 3D tasvirlar uchun moslashtirish sezilarli darajada murakkab hisoblanadi.

Grafik modelli konvolyutsion modellar

FCN modeli qo'shni piksellarni klassifikatsiya qilganda qo'shni piksellarni hisobga olmaydi. Shu muammoni yechish uchun DL arxitekturalari bilan birgalikda quyidagi ehtimollik grafik modellaridan foydalaniladi:

shartli tasodifiy maydonlar (*Conditional Random Fields*);



5-rasm. CNN va CRF algoritmlari asosida ishlab chiqilgan algoritmnining ishlash usuli.

Bu yerda CNN va CRF algoritmlari asosida tasvirlarni segmentlash ketma-ketligi ko'rsatilgan (5-rasm). Kiruvchi tasvirdan chuqur konvolyutsion neyron tarmoqlari asosida obyektning tasvirning qaysi piksellarida joylashganligi aks etkan belgilar to'plami shakllantiriladi. Odatda ushbu belgilar to'plami tasvir o'lchamini kamaytiruvchi amallar (*max-pooling, downsampling*) tufayli asl tasvir o'lchamidan kichikroq ko'rinishga keladi. Shuning uchun ushbu belgilar to'plamining o'lchamini tasvirning asl o'lchamiga keltirish lozim. Ushbu algoritmda buning uchun Bi-linear interpolatsiyadan foydalanilgan. Bi-linear interpolatsiya qo'shni piksellar orasida bog'liqliklarni inobatga olgani uchun, obyektning chegaralarini aniqroq ajratadi. Bi-linear interpolatsiya amalidan chiqqan natijalar to'liq bog'langan CRF qatlamiga uzatiladi, va ushbu qatlamda tasvirdagi har bir piksellar bir-biri bilan bog'liq deb qaralib sinflarga ajratiladi. Ushbu algoritm butun tasvirdagi obyektlarni bog'liqliklarini yaxshi aniqlaydi va sinflarga ajratishda ushbu ma'lumotlardan foydalanadi.

Schwing and Urtasun [14] to'liq bog'langan chuqur strukturalangan tarmoqni taklif qilgan. Mualliflar CNN va CRF dan birgalikda foydalangan. Ushbu algoritm PASCAL VOC 2012 o'quv tanlanmasida yaxshi natija ko'rsatgan (74.7%).

Lie et al. [18] CNN tarmog'idan chiqqan ma'lumotlardan foydalanib MRF asosida tasvir semantik segmentatsiyasini amalga oshiradigan algoritmi taklif qilgan.

Encoder-decoder arxitekturaga asoslangan modellar

Chuqur o'qitish algoritmlariga asoslangan yana bir keng tarqalgan tasvirlarni segmentlovchi modellarning


Markov tasodifiy maydoni (*Markov Random Field*).

Chen va boshqalar. [13] CNN va to'liq bog'langan Conditional Random Fields (CRF) ning kombinatsiyasi asosida ishlaydigan semantik segmentatsiya algoritmini taklif qilgan. CNN ning segmentatsiya xaritasida obyekt aniq qilib ajratilmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun CNN klassifikatsiya masalalari uchun qulay hisoblanadi. CNN ning yuqoridagi kamchiligini bartaraf qilish uchun CNN ning so'nggi qatlamidagi natijalarni CRF bilan birlashtirish lozim. Bu esa obyektning chegaralarini oldingi modellarga nisbatan aniqroq ajratib olish imkonini beradi.

turi bu konvolyutsion encoder-decoder arxitekturasiga asoslangan modellaridir. Ko'pgina chuqur o'qitish algoritmlariga asoslangan segmentlash masalalarida encoder-decoder modellaridan foydalaniladi.[7] Bu modellarning turlari asosan ikki guruhga bo'linadi:

- umumiy segmentlash;
- tibbiyot tasvirlarini segmentlash.

Ushbu modellar ikki qismdan tashkil topadi: encoder va decoder. Encoder tasvirni muhim parametrlarini vektor ko'rinishiga keltiradi. Encoding jarayonida tasvirning aniqligi uning o'lchami kichrayib borishi hisobiga qadamma-qadam pasayib boradi. Decoder esa encoding jarayoniga simmetrik jarayon bo'lib, tasvir o'lchamini (masshtabini) avvalgi holatiga qaytaradi.



6-rasm. Encoder-decoder arxitekturasi sistematiq ko'rinishi. Chap tomondagi tasvir kiruvchi tasvir hisoblanib, bir necha qatlamlar bo'yicha harakatlanadi. O'ng tomondagi binar tasvir esa natijaviy tasvirdir. (→) lar esa qatlamdagi ma'lumotlarni to'g'ridan to'g'ri encoder qismidan o'ziga mos keladigan decoder qatlami bilan almashishini ta'minlaydi.

6-rasmda odatiy encoder-decoder arxitekturasi asoslangan tasvirni segmentlash jarayoni keltirilgan. Har bir blok konvolyutsion qatlamni natijalaridir. Ushbu tarmoqda ma'lumotlar chapdan o'ngga qarab harakatlanadi. 5-rasmda berilgan (→) belgisi qatlamlararo ketma-ketlikni o'tkazish amalini bildirib, qatlamdagi

ma'lumotlarni to'g'ridan to'g'ri encoder qismidan o'ziga mos keladigan decoder qatlami bilan almashishini ya'ni, o'zidan keyingi qatlamdan o'tmasdan turib belgilangan qatlama to'g'ridan to'g'ri o'tadigan qismlarini belgilaydi. Qatlamlar soni, qatlamlararo ketma-ketlikni o'tkazish amallari hamda aktivatsiya funksiyalaridan tarmoqlarning turiga qarab turlicha foydalaniladi.

Ushbu arxitekturada encoder va decoder qismida turlicha tarmoqlardan foydalanish mumkin. Misol uchun encoder qismi uchun MobileNet, ResNet, VGG-net and UNet kabi tarmoqlardan foydalanish mumkin. Decoder qismi uchun esa UNet, FCNnet, PSPNet and SegNet kabi tarmoqlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Ushbu tarmoqlardan foydalanish istalgan kombinatsiyada foydalanish mumkin ammo ba'zi tarmoqlar modellarida kiruvchi tasvirlar uchun shartlar mavjud. Misol uchun ResNet modeli kiruvchi tasvir o'lchami 32 ga karrali bo'lishini, PSPNet modellari esa 192 ga karalli bo'lishini talab qiladi. Mos ravishda MobileNet modeli esa kiruvchi tasvir o'lchami 224x224 bo'lishini talab qiladi. [9]

3.1. Umumiy segmentatsiya uchun encoder-decoder modellari. Noh va boshqalar. [17] teskari konvolyutsiya (*deconvolution, transposed convolution*) ga asoslangan semantik segmentlash modelini taklif qilgan. Ular encoder qismida VGG-16 tarmog'ining konvolyutsion qatlamlarini arxitekturaga moslashtirgan holda ishlatgan. Aniqlik qilib aytganda VGG-16 arxitekturasining zich qatlamigacha bo'lgan qismi ishlab chiqilgan modelning encoder qismi sifatida ishlatilgan. Decoder qismi esa ajratib olingan muhim parametrlar (*feature vector*) vektorini qabul qiladi va har bir pikselni sinflarga tegishlilik ehtimolligining belgilar vektorini hosil qiladi. Ushbu arxitektura PASCAL VOC 2012 o'quv tanlanmasida o'qitilganda 72.5% natija ko'rsatgan va bu o'z vaqtida eng yuqori natija bo'lgan.


Navbatdagi tasvirlarni segmentlovchi encoder-decoder arxitekturaga asoslangan model SegNet deb nomlanib, 2015 yilda ishlab chiqilgan [12] (6-rasm). SegNet ning encoder qismi VGG16 tarmog'ining dastlabki 13 ta konvolyutsion qatlamlaridan tashkil topgan. Decoder qismi esa odatdagidek encoder qismiga simmetrikdir. Ammo SegNet modelida to'liq bo'lganishli qatlamlar mavjud emas, chunki SegNet natija sifatida segmentlangan tasvirni qaytaradi. Ushbu modelning asosiy yangiligi encoder jarayonidan chiqqan kichik masshtabli parametrlarni katta masshtabga o'tkazishidir.

1-jadval

Encoder-decoder tarmoqlarining turli xil kombinatsiyalari.

ENCODER	DECODER	ENCODER	DECODER
MobileNet ResNet VGGNet	PSPNet	MobileNet ResNet UNet VGGNet	Unet
MobileNet ResNet UNet VGGNet	SegNet	MobileNet ResNet UNet VGGNet	FCNNet

SegNet upsampling jarayonida decoder qismining mos ravishda encoder qismidagi max-pooling qatlamda olingan qiymatlarni indexlaridan foydalanadi. Bu esa o'z navbatida upsampling jarayonini soddalashtiradi. Shu jihatdan SegNet modelida o'qitiluvchi parametrlar soni boshqa arxitekturalardan kamroq bo'ladi. SegNet asosan tasvirdagi obyektlarning orasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun ishlab chiqilgan (*scene understanding*). Shuning uchun xotira va hisoblash vaqti borasida samarali hisoblanadi.



7-rasm SegNet modelining arxitekturasi

3.2. Biotibbiy va tibbiy tasvirlarni segmentlash uchun encoder-decoder modellari.

Tibbiy va biotibbiy tasvirlarni segmentlash uchun ko'plab modellar ishlab chiqilgan. Ushbu modellar FCN va encoder-decoder modellari ishlash tamoyillari asosida yaratilgan. UNet ushbu modellarning ichida eng keng tarqalganlaridan biri hisoblanadi.


Ronneberger va boshqalar [8] 2015- yilda biologik mikroskop tasvirlarni segmentlash uchun UNet modelini taklif qildi. Ushbu modelda o'quv tanlanmani berilgan asosida o'z o'zidan ko'paytirish (*data augmentation*) usuli yordamida ma'lumotlarni juda kam sonli qayta

qiymatlangan tasvirlar (*labelled images*) yordamida o'qitish mumkin. UNet arxitekturasi ikki qismdan iborat. Encoding qismi ma'lumotlardan muhim parametrlarni ajratib olishga, decoding qismi esa tasvirdagi obyektlarni aniq lokallashtirishga xizmat qiladi.


UNet modelining boshqa modellardan asosiy farqi shundaki, encoding jarayonidan so'ng upsampling jarayonida decoding qatlamida mos encoder qatlamidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Bu esa muhim parametrik ma'lumotlarni saqlab qolish imkonini beradi. Oxirgi qatlam har bir pikselni qaysi sinfga tegishli ekanligini aniqlaydi.

UNet ning turli xil ko'rinishlari ishlab chiqilgan. Misol uchun, CICEK [11] UNet arxitekturasi uch o'lchovli tasvirlar uchun moslashtirgan. U-Net boshqa sohalarda ham qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, UNet arxitekturasi sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlarni qayta ishlash asosida qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan

yerlar, binolar, foydalanilmayotgan yerlar kabilarni sinflashtirish segmentlash orqali yechilgan [16]. Bunda UNet modeli bilan birgalikda oldindan o'qitilgan model (ImageNet, VGG16) koeffitsentlaridan foydalanib (*transfer learning*) sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlarni segmentlash arxitekturasi taqdim qilingan (8-rasm).



8-rasm. UNet modeli arxitekturasi




9-rasm. UNet va oldindan o'qitilgan model koeffitsentlaridan foydalanib tasvirni segmentlash arxitekturasi [16].

Ushbu taklif qilingan model Inter-IIT-CSRE o'quv tanlanma asosida NVidia, GeForce GTX 1080Ti, RAM 64 GB va GPU 11 GB xarakteristikali hisoblash tizimida o'qitilgan bo'lib, boshqa modellarga qaraganda kam sonli o'quv tanlanma asosida, kam vaqt sarflagan holda model 94,3% aniqlikka erishilgan.

Kengaytirilgan konvolyutsion qatlam (Dilated convolution)


Ushbu kengaytirilgan konvolyutsiya arxitekturasi *dilation rate* nomli parametr kiritilgan bo'lib, bu filtr (kernel) orasidagi bo'sh joylarni bildiradi. Masalan *dilation rate* 2 ga teng bo'lganda 3x3 filtr oddiy konvolyutsion qatlamlardagi 5x5 o'lchamdagi filtrga mos keladi, ammo parametrlari soni 9 taga teng bo'ladi. Kengaytirilgan konvolyutsiya amali real-vaqt rejimidagi

semantik segmentlash masalalari uchun juda mos tushadi. Kengaytirilgan konvolyutsiya amalining asosiy yutuqlari qirralarni aniqroq ajratib olishi hamda segmentlangan tasvirning tiniqroq ko'rinishini hosil qiladi. [19]



a) Oddiy konvolutsion qatlam (Filtr: 3x3, oraliq : 1)
 b) Kengaytirilgan konvolutsion qatlam (Filtr: 3x3, dilation rate: 2)

Kengaytirilgan konvolutsion qatlamlarning yana bir asosiy jihatlaridan biri kiruvchi tasvirning o'lchamlari kamaymasligidir. Bu qatlamlarda hech qanday o'lchamlarni kamaytiruvchi amallar bo'lmaydi(max-pooling, striding). Bu esa muhim ma'lumotlarni saqlab qolish imkonini beradi.




11-rasm DeepLab modelining umumiy ko'rinishi

Kengaytirilgan konvolutsion qatlamdan foydalangan eng keng tarqalgan arxitekturalardan biri DeepLab oilasi hisoblanadi(DeepLabv1, DeepLabv2, DeepLabv3, DeepLabv3+) [7]. DeepLabv1 and DeepLab2 modellarining 3ta asosiy ustunliklari bor:

o'lchamlari kamaymasligi ;

DeepLab oilasida Atrous Spatial Pyramid Pooling(ASPP) qatlamlaridan foydalanilgan. Bu qatlamlar tasvirdagi obyektlarni turli xil o'lchamlarda bo'lsa ham muvaffaqiyatli aniqlab oladi. Chunki ular obyektlarni har xil o'lchamlarga keltiradi;

chuqur CNN tarmoqlari hamda ehtimollik grafik modellaridan foydalanib tasvirdagi obyektlarning chegaralarini aniqroq qilib ajratib beradi. DeepLab modeli PASCAL VOC 2012 o'quv tanlanmasida 79.7% lik natija bergan.



12-rasm DeepLab-v3 va UNet arxitekturalarida segmentlangan tasvirlar.

2018-yilda Chen va boshqalar. [20] Encoder-decoder arxitekturasiga asoslangan DeepLabv3+ arxitekturasini ishlab chiqqan. Ushbu model PASCAL VOC 2012 o'quv tanlanmasida 89.0% natija ko'rsatgan.

Xulosa

FCN modellari tasvirlarni segmentlash sohasida haqiqiy inqilobni yuzaga keltirdi. FCN modellarida parametrlar soni ko'proq bo'lgani uchun real-vaqt tizimda segmentatsiya masalalari uchun foydalanish tavsiya etilmaydi. Qolgan arxitekturalar ham FCN ga asoslangan holatda ishlab chiqilgan bo'lib, FCN dan ko'ra ham xotira va vaqt borasida samaraliroq qilib ishlab chiqilgan. FCN modeli PASCAL VOC 2012 o'quv tanlanmasida 62.2% lik [6] natija bergan. CNN va CRF ga asoslangan model esa ushbu o'quv tanlanmasida 74.7% aniqlikni ko'rsatgan. Ushbu model ham real-vaqt tizimidagi masalalar uchun unchalik mos emas. Encoder-decoder arxitekturasiga asoslangan model esa hech qanday tashqi ma'lumotlarsiz 72.5% natija ko'rsatgan bu esa o'z vaqtida eng yuqori natija bo'lgan. Encoder-decoder arxitekturasiga asoslangan SegNet modeli oldingi modellardan farqli o'laroq real-vaqt rejimidagi segmentlash uchun ancha qulay hisoblanadi, chunki ushbu modelda o'qitiladigan parametrlar soni kamroq. Kengaytirilgan konvolutsion qatlamlardan foydalanadigan DeepLab oilasi real-vaqt rejimidagi segmentatsiya uchun keng qo'llanilmoqda. DeepLabv3+ modeli PASCAL VOC 2012 o'quv tanlanmasida 89.0 % lik natija ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. N. Otsu, "A threshold selection method from gray-level histograms," IEEE transactions on systems, man, and cybernetics, vol. 9, no. 1, pp. 62–66, 1979.
2. L. Najman and M. Schmitt, "Watershed of a continuous function," Signal Processing, vol. 38, no. 1, pp. 99–112, 1994.
3. N. Dhanachandra, K. Manglem, and Y. J. Chanu, "Image segmentation using k-means clustering algorithm and subtractive clustering algorithm," Procedia Computer Science, vol. 54, pp. 764–771, 2015

4. N. Plath, M. Toussaint, and S. Nakajima, "Multi-class image segmentation using conditional random fields and global classification," in Proceedings of the 26th Annual International Conference on Machine Learning. ACM, 2009, pp. 817–824.
 5. L.-C. Chen, G. Papandreou, F. Schroff, and H. Adam, "Rethinking atrous convolution for semantic image segmentation," arXiv preprint arXiv:1706.05587, 2017
 6. J. Long, E. Shelhamer, and T. Darrell, "Fully convolutional networks for semantic segmentation," in Proceedings of the IEEE conference on computer vision and pattern recognition, 2015, pp. 3431–3440
 7. Shervin Minaee, Yuri Y. Boykov, Fatih Porikli, Antonio J Plaza, Nasser Kehtarnavaz, Demetri Terzopoulos. Image Segmentation Using Deep Learning: A Survey. IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence (2021).
 8. Olaf Ronneberger, Philipp Fischer, and Thomas Brox. U-Net: Convolutional Networks for Biomedical Image Segmentation. Computer Science Department and BIOS Centre for Biological Signalling Studies(2015), University of Freiburg, Germany
 9. Evgenii Sovetkin, Elbert Jan Achterberg, Thomas Weber, and Bart E. Pieters. Encoder-decoder semantic segmentation models for electroluminescence images of thin-film photovoltaic modules. IEEE Journal of Photovoltaics (2020).
 - A. Kendall, V. Badrinarayanan, and R. Cipolla, "Bayesian segnet: Model uncertainty in deep convolutional encoder-decoder architectures for scene understanding," arXiv preprint arXiv:1511.02680, 2015
 10. O. Cicek, A. Abdulkadir, S. S. Lienkamp, T. Brox, and O. Ronneberger, "3d u-net: learning dense volumetric segmentation from sparse annotation," in International conference on medical image computing and computer-assisted intervention. Springer, 2016, pp. 424–432.
 11. Vijay Badrinarayanan, Alex Kendall, Roberto Cipolla. SegNet: A Deep Convolutional Encoder-Decoder Architecture for Image Segmentation. IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence (Volume: 39, Issue: 12, Dec. 1 2017)
 12. Liang-Chieh Chen, George Papandreou, Iasonas Kokkinos, Kevin Murphy, Alan L. Yuille. Semantic image segmentation with deep convolutional nets and fully connected CRFs. IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence (Volume: 40, Issue: 4, April 1 2018)
 - A. G. Schwing and R. Urtasun, "Fully connected deep structured networks," arXiv preprint arXiv:1503.02351, 2015
 13. T.A. Kuchkorov, O.B. Ro'zibayev. Neyron tarmoqlari yordamida tasvirni sinflash va segmentlash usullari va vositalari. Дастурий ва компьютер инжиниринг технологияларининг замонавий муаммолари (2020)
Agar (5) ifodadagi o'xshashlik nisbati qandaydir γ chegaraviy qiymatdan katta bo'lsa, u holda QTRTQ qabullagichining chiqishida aniqlanuvchi mavjud, ya'ni aniqlanayotgan obyekt mavjud degan xulosa chiqariladi. Tanlangan aniqlash mezoniga muvofiq γ chegaraviy qiymat aniqlanadi. Ma'lumki, qo'riqlash tizimlarida ham ko'pgina boshqa radiolokatsion tizimlardagi kabi Neyman-Pirson mezoni qo'llaniladi, bunda aniqlanayotgan obyektдан aks etgan signalning maksimal aniqlanish ehtimolligini olish imkoni hosil bo'ladi. Yolg'on aniqlash ehtimolligi doimiy va etarlicha kichik deb beriladi.

Aniqlash masalasini echish uchun quyidagi tengsizlik bajarilishi zarur, ya'ni $l(u_q) > \gamma$. Aytganlarni e'tiborga olib va (5) natijasidan foydalanib, o'zgartirishlardan so'ng QTRTQ optimal qabullagichining tarkibini aniqlaydigan ifodaga kelimiz:

$$\frac{2}{W_x} \int_0^T u_s(t) u_q(t) dt > \ln \gamma + \frac{W_s}{W_x} = u_{cheg}, \quad (6)$$

bunda, u_{cheg} – chegaraviy sath qiymati bo'lib, tanlangan mezon asosida yolg'on aniqlash ehtimolligi $P(u_{s1}/u_{s0})$ belgilangan ehtimollik bilan aniqlanadi.

[2] da katta o'lchamli obyektlarni aniqlash masalasi ma'lum determinant parametrlari signallarni aniqlash masalasi sifatida tadqiq qilingan. (6) ifodaning tahlili bunday signallar uchun QTRTQ qabullagichining tuzilishi signal kechikishi ma'lum bo'lganda determinant signallarni optimal qabullagichining klassik tuzilishiga to'liq mos kelishini tasdiqlaydi.

QTRTQsiga tasodifiy parametrlari signallar ta'sir etganda aniqlash tarkibi o'zgarish o'zgarimasligini tahlil qilamiz. Masalan, QTRTQ qabullagichida ishlov berilayotgan signalda obyekt tezligi haqidagi axborot mavjud bo'lmasa, u holda [1] ga muvofiq, doimiy U_m amplitudali va ω tashuvchi chastotali zondlovchi signal QTRTQ qabullagichi kirishida noma'lum dopler siljish chastotasi ω_d ga, o'z navbatida noma'lum tasodifiy miqdor hisoblanuvchi, qo'shimcha signal fazasi φ_s ga ega bo'ladi:

$$u_s(t) = U_m \cos(\omega t + \omega_d t) = U_m \cos(\omega t + \varphi_s). \quad (7)$$

Ushbu (7) ifodadan payqash mumkinki, signal amplitudasi U_m ikkita qiymatni qabul qilishi mumkin: $U_m = U_{mS}$ – signal mavjud bo'lganda va $U_m = 0$ – signal mavjud bo'lmaganda; ya'ni U_m amplituda (2) va (4) ifodalardagi θ qiymatga o'xshash.

Ushbu holatda (4) ning to'g'ri qaror qabul qilishini $P(\varphi_s) = 1/(2\pi)$ bir tekis taqsimot qonunini xarakterlovchi tasodifiy boshlang'ich fazali signalni aniqlash masalasi sifatida qarash mumkin.

Signal gauss oq shovqini ko'rinishidagi additiv xalaqit bilan aralashgan bo'lsin. (4) dan olingan kirish ta'sirini quyidagicha yozamiz:

$$P_1(u_{S1}/u_{S1}) = \int_{u_{cheg1}}^{\infty} \xi \exp[-0,5(\xi^2 + 2W_S/W_0)] I_0[\xi(2W_S/W_0)^{0,5}] d\xi, \quad (9)$$

bunda, $u_{cheg1} = u_{cheg}(2W_S/W_0)^{-0,5}$ – aniqlash chegarasining yangi sathi; W_0 – gauss oq shovqinining quvvat spektral zichligi.

Bunday tasodifiy boshlang'ich fazali signal uchun hisoblangan o'xshashlik nisbati $l(u_q)$ aniqlash chegarasining yangi sathi bilan taqqoslanadi:

$$l(u_q) > u_{cheg1} = u_{cheg}(2W_S/W_0)^{-0,5}. \quad (10)$$

Demak, agar aniqlanayotgan obyekt katta o'lchamli bo'lsa, u holda aks etgan signalning amplitudasi ham interferensiya hodisasi sababli tasodifiy jarayon hisoblanadi. Natijada qabullagich kirishidagi signalni nafaqat fazasi, balki amplitudasi ham tasodifiy deb qaraladi:

$$u_{S\xi}(t) = U_{\xi} \cos(\alpha t + \varphi_s) + u_n(t). \quad (11)$$

Tasavvur qilamiz, signal amplitudasi Rele qonuni bo'yicha o'zgaradi, xalaqit signalining o'rovchisi ham Rele qonuni bo'yicha taqsimlangan hamda ushbu qonunga signal o'rovchisi va xalaqitning yig'indisi ham bo'ysunadi. [6] dan ma'lumki, to'g'ri aniqlash ehtimolligi quyidagicha aniqlanadi:

$$P_2(u_{S1}/u_{S1}) = \exp\left\{-0,5u_{cheg1}^2 \left[1 + \sigma^2(2W_{S1}/W_0)\right]^{-1}\right\}, \quad (12)$$

$$\text{bunda, } W_{S1} = W_S / \langle U_{q\xi}(t) \rangle^2.$$

Agar amplitudasi tasodifiy o'zgaruvchi signalni aniqlash xarakteristikasini amplitudasi o'zgarmas signalni aniqlash xarakteristikasi bilan solishtirsak, tabiiyki, bunday taqqoslash signallarning o'rtacha energiyasi bir xil bo'lganda amalga oshiriladi. U holda

$$P(u_{S1}/u_{S1}) = 1 - F\left\{u_{cheg1} [2W_{S1}/W_0]^{-0,5} - [2W_{S1}/W_0]^{0,5}\right\}, \quad (14)$$

bunda, W_0 – gauss oq shovqinining quvvat spektr zichligi; F – Laplas funksiyasi; u_{cheg} – chegaraviy sath qiymati bo'lib, Neyman-Pirson mezonidan foydalanilganda o'rnatilgan yolg'on aniqlash ehtimolligi $P(u_{S1}/u_{S0})$ quyidagicha aniqlanadi:

$$P(u_{S1}/u_{S0}) = 1 - F\left\{u_{cheg} [2W_{S1}/W_0]^{-0,5}\right\}, \quad (15)$$

O'rnatilgan $P(u_{S1}/u_{S0})$ yolg'on aniqlash ehtimolligida u_{cheg} kuchlanish qiymati normal taqsimot qonuni $p[u_{Sx}^k(t)/u_{S0}]$ ga bo'ysunadi.

$$u_{Sx}(t) = U_m \cos(\alpha t + \varphi_s) + u_n(t). \quad (8)$$

QTRTQda qabul qilingan $u_q(t)$ ta'sir bo'yicha uning tarkibida signal mavjudligini aniqlash kerak.

[5] natijalaridan foydalanib, ushbu holatda to'g'ri aniqlash ehtimolligini quyidagi ko'rinishga keltiramiz[6]:

$$P_2(u_{S1}/u_{S1}) = \left[\exp\left\{-u_{cheg1}^2/2\right\}\right]^{-(1+W_S/W_0)}. \quad (13)$$

Shunday qilib, turli parametrlı signallar uchun turli aniqlash sharoitida signallarni to'g'ri aniqlash ehtimolligi topildi.

QTRTQ qabullagichida kirish ta'siri $u_q(t)$ va zondlovchi signal $u_S(t)$ orasida o'zaro korrelyatsiya darajasi o'rnatiladi. Undan so'ng korrelyatsiya qiymati (6) ifodaga muvofiq aniqlangan chegaraviy sath u_{cheg} bilan taqqoslanadi. QTRTQ qabullagichi $u_S(t)$ va $u_q(t)$ signallarni ko'paytiruvchi va integrallovchidan iborat korrelyator hamda chegaraviy qiymati u_{cheg} o'rnatilgan bo'sag'aviy qurilmadan iborat bo'lishi kerak. Agar uning chiqishidagi kuchlanish noldan katta bo'lsa, u holda signal mavjud deb qaror qilinadi va mos holda nazorat hududiga kirilgan deb hisoblanadi. Chiqish kuchlanishi nolga teng bo'lganda signal mavjud emas deb qaror qabul qilinadi. Natijada QTRTQ qabullagichini optimal qabullagich sifatida qarash mumkin.

Chegaraviy sath u_{cheg} ni Neyman-Pirson mezonidan foydalanib topish mumkin. Buning uchun, o'z navbatida to'g'ri aniqlash $P(u_{S1}/u_{S1})$ va yolg'on aniqlash $P(u_{S1}/u_{S0})$ shartli ehtimolliklarini aniqlash talab etiladi.

To'g'ri aniqlash ehtimolligi $P(u_{S1}/u_{S1})$ quyidagi formula bilan aniqlanadi:

O'tkazilgan tahlil ko'rsatadiki, QTRTQ uchun signallarni aniqlash va farqlash masalasini echish orqali aniqlangan, QTRTQsiga tasodifiy boshlang'ich fazali, shuningdek tasodifiy parametrlı boshqa signallarning ta'siridagi, masalan katta o'lchamli obyektlardan aks etgan signal amplitudasining tasodifiy o'zgarishidagi aktiv va yarim aktiv radiolokatsiya prinsipi qo'llanilgan qo'riqlash tizimi QTRTQsining tuzilishi QTRTQsiga determinant signallar ta'siri bo'yicha qurilgan tuzilishi bilan bir xil o'zgarmasdan qoladi, faqat aniqlash chegaraviy sathi o'zgaradi.

Xulosa

Olib borilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. QTRTQsi yordamida shovqin fonidagi signallarni aniqlash va farqlash masalasini echishda, ya'ni obyektни ishonchli aniqlash haqidagi masalani echishda aniqlash qurilmasida qaysi radiolokatsiya – aktiv va yarimaktiv prinsipi qo'llanilganligini e'tiborga olish kerak;

2. Zondlovchi signalni, shuningdek aniqlanayotgan obyektни karakterlovchi parametrlar QTRTQsidagi signalning muhim parametrlari hisoblanadi. Obyektdan aks etgan signal parametrlari aniqlanayotgan obyektни karakterlovchi parametrlarni ifodalaydi;

3. Ko'p sonli kuzatishlar bilan ishlaydigan tizimlarda, QTRTQsi ham shular jumlasidan, signal parametrlarining aprior ehtimollik zichligini tanlash qabul qilinayotgan tebranishga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi;

4. Tasodifiy parametrli signal o'tayotgan QTRTQsi qabullagichining tuzilishi determinant signalning klassik optimal qabullagichi tuzilishiga to'liq mos keladi; bunda faqat kuchlanish chegaraviy sathi o'zgaradi;

5. O'xshashlik nisbatining tahlili turli sharoitlarda obyektни to'g'ri aniqlash ehtimolligini baholashga imkon beradi. Bunday signalda chegaraviy kuchlanish qiymati normal taqsimot qonuni bilan aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тихонов В.И. Статистический анализ и синтез радиотехнических устройств и систем. Учеб. пособие для вузов. – М.: Радио и связь, 2004. – 608с.

2. Воловач В.И. Решение задачи обнаружения детерминированных сигналов радиотехнических датчиков, работающих в режиме активной радиолокации, и определение величины их порогового напряжения. // Информационные технологии. Радиоэлектроника. Телекоммуникации (ITRT-2012): сб. статей II международной заочной научно-технической конференции. Ч. 1 / Поволжский гос. ун-т сервиса. – Тольятти: Изд-во ПВГУС, 2012. – С. 324-331.

3. Теоретические основы радиолокации. Справочник. Под ред. Я.Д. Ширмана. – М.: Радиотехника, 2007. – 510с.

4. Воловач В.И. Некоторые особенности оптимальной обработки сигналов радиотехнических устройств обнаружения пространственных охраняемых систем. // Научно-технический вестник Поволжья. – 2011. - №6. – С.129-132.

5. Воловач В.И. Обнаружение сигналов с известными и случайными параметрами в радиотехнических устройствах охранной сигнализации. // Вестник ТГУС. Выпуск 1. – Тольятти: Изд-во ТГУС, 2006. – С. 37-45.

6. Тихонов В.И. Оптимальный прием сигналов. – М.: Радио и связь, 1983. – 336с.

Yusupov Yarashbek Toxirbayevich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Radiotexnik qurilmalar va tizimlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

e-mail: Yarashbekyusupov@mail.ru

Yusupov Ya.T.

Detection and distinction of casual signals against Gaussian noise in radio engineering devices of detection of near range

The problem of detection and distinction of casual signals of radio engineering devices of detection of the near range, used in protection systems is considered. The key essential parameters of radio engineering devices of detection of near range are determined. It is shown that the receiver of signals of the device of detection is optimum at impact on it casual signal. Almost significant formulas for definition of probabilities of the correct and false detection for the casual signals reflected from found object are given.

Keywords: problem of detection and distinction of signals, radio engineering device of detection, protection system, principle of an active radar-location, principle of a semi-active radar-location, credibility relation, Neumann–Pearson's criterion.

УДК: 004.652.4

Саидрасулов Ш.Н.

Электрон ҳукумат тизимида жисмоний ва юридик шахсларнинг матнли мурожаатларини автоматик қайта ишлаш масаласи

Мақолада электрон ҳукумат тизимида жисмоний ва юридик шахсларнинг матнли мурожаатларини автоматик қайта ишлаш масаласи тадқиқ этилган бўлиб, бунда давлат бошқарув тизимини ислоҳ қилишда ахборот хизматларини таъминлаш учун табиий тилда самарали фойдаланишнинг мантикий математик –алгоритмик таъминоти таклиф этилган. Тадқиқотда жисмоний ва юридик шахсларнинг ёзма мурожаат матнларини давлат органларидаги автоматлаштирилган тизимларда таснифлашга имкон берувчи матнли ҳужжатларни қайта ишлаш жараён модели таклиф қилинган. Жисмоний ва юридик шахсларнинг табиий ўзбек тилдаги мурожаатларининг мақсадини аниқлаш масаласини ҳал қилишнинг алгоритми ҳамда мантик мурожаатларига хизмат кўрсатувчи ташкилотни автоматик аниқлаш масаласи учун специфик зарур базалар математик ифодаланди ва мурожаатни эҳтиёжга айлантириш ва уни кидиришнинг математик ечими тадқиқ этилган.

Калиг сўзлар: электрон ҳукумат, ҳужжатларни формаллаштириш, калиг сўзлар базаси, классификациялаш ва машинали ўқитиш, интеллектуал кидириш усули.

Кириш


Давлат ҳокимияти ва бошқарув органлари фаолиятининг очиқлигини таъминлашда жисмоний ва юридик шахсларнинг қонуний манфаатларига оид ахборотларни виртуал тақдим этиш ва уларга компетентли жавоб олиш “Электрон ҳукумат” тизимининг энг долзарб масаласи ҳисобланади. Қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятлар томонидан жисмоний ва юридик шахсларнинг шикоят, мурожаат ёки таклифларини электрон шаклда ифодаланиши ахборот-коммуникация технологиялари тадқиқ этилган соҳаларда давлат хизматларининг автоматлашганлигини билдиради. Бунда электрон ҳамкорлик сони доимо ўсиб боради.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг электрон мурожаатларини автоматик таҳлил қилиш ва уни синфларга ажратиш албатта табиий тилдаги матнли маълумотларни таҳлил қилиш масаласига олиб келади. Бу ерда табиий тилларнинг семантик, синтаксис, морфологик ва лингвистик тузилиши

турллари ва уларнинг математик-алгоритмик таъминотини мукамал ривожланганлигига боғлиқ. Табиий тилни таҳлил қилиш, ҳужжатларни сарлавҳа ёки уни ташкил қилувчи матнга қараб синфлаштириш бўйича кўплаб олимлар томонидан иш олиб борилмоқда.

Матнли ҳужжатларни формаллаштириш бўйича тадқиқот наشرларининг таҳлили

П.Ю.Козлов [1] ишида автоматлаштирилган таҳлил босқичлари ва матнли ҳужжатларни формаллаштириш усуллари қаралган. Морфологик ва синтактик босқич натижалари сифатида матнли ҳужжатларнинг лингвистик белгиларини модификациялаш билан фойдаланилган саралаш усули таклиф этилади. Унинг мақоласида матнли ҳужжатларни формаллаштириш босқичлари 1-расмдаги каби синфларга ажратилган ҳолда тадқиқ қилинган.



1-расм. Таҳлилнинг турли босқичларида матнли ҳужжатларни формаллаштириш усуллари

Тадқиқот натижасида жисмоний ва юридик шахсларнинг ёзма мурожаат матнларини давлат органларидаги автоматлаштирилган тизимларда таснифлашга имкон берадиган матнли ҳужжатларни қайта ишлаш жараёни модели таклиф қилинган.

Матнларни классификациялаш вазифасини ҳал қилишнинг замонавий усулларини таққослаш, ушбу йўналишнинг ривожланиш тенденцияларини излаш ҳамда амалиётда қўллаш учун энг яхши алгоритмларни танлашда матнларни классификациялаш усулларининг шарҳини Т.В.Батура [2] ишларида кўриш мумкин. Мақолада матнларни классификациялаш вазифасининг формал кўйилиши келтирилган ҳамда ушбу масаласини ечиш қўйидаги тўртта изчил босқичга ажратилган:

- ҳужжатларга олдиндан ишлов бериш ва индексация;
- аломатлар фазоси ўлчамини камайтириш;
- машинали ўқитиш ёрдамида классификаторни куриш ва ўқитиш;
- классификациялаш сифатини баҳолаш.

Классификациялаш ва машинали ўқитиш

Ҳозирги кунда классификациялаш йўналишида оммалашган ва замонавий ёндошувлар машинали ўқитиш усулларига асосланади. Ушбу ишда классификаторларни барпо этишнинг энг кенг тарқалган алгоритмлари, улар билан ўтказиладиган тажрибалар ҳамда ушбу тажрибаларнинг натижалари, жумладан, Интернет тармоғида очик бўлган 2011-2016 йилда бажарилган илмий ишлар ҳамда илмий ҳамжамият томонидан юқори баҳоланадиган нуфузли журналларда нашр қилинган материаллар илмий тадқиқ этилган.


Мақолада аниқлик, тўлиқлик, алгоритм иш вақти, алгоритмнинг инкремент тартибда ишлаш имкониятлари, классификациялашдаги дастлабки ахборот миқдори, табиий тилга боғлиқлик каби хусусиятлар бўйича классификациялашнинг турли

усуллари самарадорлиги таҳлил қилинган. Қаралган тажрибаларнинг аксарияти инглиз тилидаги матнлар жамланмасида ўтказилган. Умумий натижага кўра, рус тилидаги матнларни классификациялашнинг турли усулларини қиёслаш учун россиялик тадқиқотчиларга матнли ахборотга автоматик ишлов бериш муаммосини янада чуқурроқ ўрганишга эҳтиёж мавжудлигини кўрсатиб берилган.

О.Ж.Бабомурадов [3] ҳаммуаллифлигидаги ишда қарор дарахти усулидан фойдаланган ҳолда таснифлаш механизмини куриш масаласи ечишга бағишланган бўлиб, унда ўзбек тилидаги матнлардан иборат ҳужжатларни таснифлаш учун қарор дарахти алгоритми атрибутлар қийматларини аниқлаш ва алгоритм иш самарадорлигини ошириш ҳамда тажрибавий иш натижалари тадқиқ қилинган. Тажрибалар ўзбек тилидаги матнлардан иборат ҳужжатларни таснифлаш қарор дарахти алгоритми атрибутлар қийматларини аниқлаш (Information Gain, Gain Ratio, Gini index) орқали амалга оширилган. Бунда маълумотлар Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги давлат расмий ахборот манбаидан олинган олти категорияга тегишли бўлган 600 та янгилик олинган бўлиб, қарор дарахти алгоритми учун ишлаб чиқилган дастурда таснифлаш аниқлиги 64% ташкил этган.

Маълумотларни интеллектуал қидириш усули

Ахборот муҳитидан интеллектуал маълумот қидиришнинг ўзига хос усулини таклиф этган А.Х.Нишанов ва Э.С.Бабаджанов [4] ишида ахборот муҳитидан маълумотларни комбинацияли қидириш ва топилган маълумотларни ўзига хос усули билан таҳлил қилиб, мантиқан ва физик нуқтаи назардан қидирилувчи маълумотга яқин келувчи интеллектуал натижа тақдим этиш масаласи қаралган. Бунда масала S матнли маълумотни берилган A қалит сўзлар тўпламига р яқинлик даражасини аниқлаш бўлиб ҳисобланади (2-расм).



2-расм. Қалит сўзлар базаси ёрдамида матнларни кўп мезонли қидириш масаласига намуна

Масалани ечишда биз берилган S тўпламининг элементлари A тўпламининг элементларига ўхшашлик даражаси (фоизда) ва элементларнинг индекслари орасидаги масофаларни ҳисобловчи метрика киритилган. Ечим сифатида элементлар орасидаги масофалар ва хатоликлар минимал, элементлар

яқинликни максимумини аниқлашдан иборат. Яқинликни аниқлаш учун S қидирилувчи объектни ҳар бир элементини A объектлар тўпламидаги ҳар бир объектни элементларига тегишлилигини аниқлаш ёки бошқача айтганда комбинацияли қидирув эълон қилиш ҳамда натижаларни индекс ва салмоғига қараб

турли мезонлар асосида ажратиб олиш таклиф этилган. 7 қадамдан иборат алгоритм учун табиий тил тузилмаси муҳим аҳамият касб қилмайди. Таклиф этилган алгоритмдан ахборот тизими бошқарувчилари талаблари бўйича саралаш мезонларини ўзгартириб фойдаланишлари мумкинлиги қайд қилинган.

Бирор соҳага йўналтирилган маълумотлар базасидан фуқароларнинг айнан ўзбек тилидаги мурожаатларини қаноатлантириш масаласи билан Э.С.Бабаджанов ишларида кузатиш мумкин. Муаллифнинг тадқиқод ишларида маълумотлар базасини тавсифловчи калит сўзлар базаси ёрдамида берилган сўров матнларни SQL тилига автоматик трансляция қилиш муаммолари ўзига хос услубият ва алгоритмлар асосида ечилган.

Электрон ҳукумат муҳитида жисмоний ва юридик шахсларнинг давлат ташкилотларига порталлар орқали мурожаатлари қайта ишлаш масаласи [7] ишда келтирилган. Бунда ҳозирги кунда мурожаатларни қайта ишлаш жараёнида фақат офис-орти ходимлар бажаради. Айни пайтда кўплаб мурожаатларни таҳлил қилиш ва йўналтиришда инсон меҳнатини камайтириш учун “мурожаатларни автоматик таниб олиш” дастурий модулига бўлган талаб мавжуд. Мазкур дастурий таъминотда асосан мурожаат мақсади ва йўналтирилган объектни (ташкилотни) аниқлаш масаласи қаралади.

Одатдаги жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари таҳлил қилиш жараёни учун намунавий мисол сифатида қуйидаги мурожаат матнини келтириш мумкин:

Мен Анвар Содиқов Жиззах шаҳридаги Увайсий 1234 уйда яшайман. Хонадонимга интернет тармоғини тортишига амалий ёрдам беришингизни сўрайман.

Матндан кўришиб турибдики, мурожаатдаги масала “интернет тармоғини” ўтказиш сўралган. Хўш инсон тафаккури асосида аниқланган қарорни дастурий таъминот орқали қандай аниқланади. Мазкур маънодаги мурожаатни бошқа сўзлар орқали ифодалаш ҳам мумкин. Мисол учун:

Мен Увайсий 1234 хонадонда яшашовчи Анвар Содиқов, Сиздан уйимга Uzonline қуриб беришни сўрайман.

ёки

Менинг уйимга шаҳар телефон тармоғи орқали Internet уланмаган. Ушбу масалани ечишга ёрдам беринг.

Шунингдек, мурожаатда бир нечта талаблар қўйилган бўлиши мумкинлигини ҳам инобатга олиш керак. Қаралаётган муаммоли соҳанинг ушбу мақолада энг асосий мақсад шундан иборатки, бунда мурожаат матнидан сўралаётган предметлар яъни муддони аниқлаб олиш бўлиб, унинг сўров ёки таклиф

эканлиги ва мурожаатчи ҳақидаги маълумотларни аниқлаштириш эса иккинчи даражали ҳисобланади.

Табиий ўзбек тилдаги мурожаатларининг мақсадини аниқлаш масаласини ечиш алгоритми

Умумий ҳолда жисмоний ва юридик шахсларнинг табиий ўзбек тилдаги мурожаатларининг мақсадини аниқлаш масаласини ҳал қилиш алгоритми қуйидаги босқичлардан иборат:

- 1) калит сўзлар базасини яратиш яъни: ўзак сўзлар ва уларнинг синонимлари базаси; гап бўлақларини ажратувчилари базаси; сўз қўшимчалари базаси; гапнинг сўров қисмини ифодаловчи база; соҳалар кесмида сўзларнинг муҳимлилик салмоғини ифодаловчи база ва х.к.;
- 2) эҳтиёжлар базасини яратиш (мурожаатларнинг синфлаштирилган андозаси), бунда мурожаат матнининг формаллаштирилган кўриниши сақланади;
- 3) ўзбек тилидаги сўров гап тузилиш қоидалари базаси;
- 4) ўзбек тилидаги мурожаатни ташкил қилувчи матнни калит сўзлар базаси ва гап тузилиш қоидалари орқали синатсис, морфологик, семантик таҳлил усуллари;
- 5) мурожаат матнини ташкил қилувчи бўлақларини индекслаш усули;
- 6) индексли матнни формаллаштириш алгоритми;
- 7) формаллашган матнни эҳтиёжлар базасидан кидириш алгоритми;
- 8) кидириш натижалари асосида мурожаатнинг қайси соҳага тегишлиги бўйича қарор қабул қилиш алгоритми;

Вазифаларга эътибор қиладиган бўлсак, уларни икки тоифага ажратиш мумкин яъни специфик базаларни яратиш ҳамда ушбу базалар асосида матнни қайта ишлаш механизмлари (математик модели, алгоритмик аппарати, усуллари ва х.к.) ишлаб чиқиш.

Масаланинг умумий жараён схемасини тушунарли бўлиши учун уни содда шаклда ифодалаймиз. Даслаб ушбу специфик базаларни математик ифодаланишини қуйидагича келтириш мумкин.

- Берилган мурожаат матни $-X = \{x_i\}$
 - Мурожаатни ечувчи соҳалар $-S = \{s_k\}$
 - Калит сўзлар базаси (КСБ) $-A = \{a_j\}$
 - АКСБ орқали X матндан асосий предметни кўрсатувчи сўзлар ажратилиб, уларнинг индексациялаши $-G = \{g_i^j\}$
 - Эҳтиёжлар базаси (ЭБ) $-E = \{e_l = \langle \hat{g}_t, k, p, \bar{l} \rangle\}$.
- Бунда e_l -формаллаштирилган эҳтиёжларқўп параметрли ҳисобланади: $\hat{g}_t = \cup g_i^j$ – бир ёки бир нечта предметлар бўлиши мумкин, мурожаатнинг k соҳага тегишли эканлининг p муҳимлилик даражаси; $\bar{l} \Leftrightarrow l (l < \bar{l})$ – эҳтиёжларнинг эквивалентлиги

Ушбу белгилашлардан матнни эҳтиёжга айлантириш $R(A)$ оператор орқали амалга оширилишини қуйидагича математик ифодалаш мумкин:

$$X \xrightarrow{R(A)} Y.$$

Кейин эҳтиёжга айланган Y ни E дан кидириш натижасини аниқлаш. кидириш натижа бермаганда уни янги эҳтиёж сифатида базага қайд қилиш куйидагича амалга оширилади:

$$r = \max_p NS(Y, E)$$

**if $r = 0$ then insert (Y to E)
result(s_k)**

Юқорида мурожаат матнини автоматик калит сўзлар базаси орқали қайси соҳага тегишли эканлигини аниқш жараёнинг бошланғич математик кўриниши тадқиқ этилди. Реал ҳолатда иш самарадорлигини ошириш учун эса келтирилган барча вазибаларни қамраб олган ҳолда матнни эҳтиёж шаклига формаллаштириш ва уни кидириш учун махсус математик-алгоритмик таъминолари ҳамда жараён моделлари ишлаб чиқилиши лозим.

Хулоса

Ҳозирги электрон ҳукумат платформасидаги порталлар орқали жисмоний ва юридик шахсларнинг мантли мурожаатларига хизмат кўрсатувчи ташкилотни автоматик аниқлаш масаласи учун специфик зарур базалар математик ифодаланди ва мурожаатни эҳтиёжга айлантириш ва уни кидиришнинг математик ечими тадқиқ этилди.

Электрон ҳукумат тизимида жисмоний ва юридик шахсларнинг матнли мурожаатларини автоматик қайта ишлаш масаласи тадқиқ этилиб, давлат бошқарув тизимини ислоҳ қилишда ахборот хизматларини таъминловчи техник жиҳозлар ва алоқа воситаларидан табиий тилда самарали фойдаланишнинг мантиқий математик –алгоритмик таъминоти таклиф этилди.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг ёзма мурожаат матнларини давлат органларидаги автоматлаштирилган тизимларда таснифлашга имкон берувчи матнли ҳужжатларни қайта ишлаш жараён модели таклиф қилинди.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг табиий ўзбек тилдаги мурожаатларининг мақсадини аниқлаш масаласини ҳал қилиш алгоритми таклиф этилди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. П.Ю.Козлов. Способы представления текстовой информации при автоматизированном рубрицировании коротких текстовых документов // Software & Systems. 4 (30) 2017. С.678-683. DOI: 10.15827/0236-235X.120.678-683.

2. Т.В.Батура. Методы автоматической классификации текстов // Software & Systems. 2017. Т.30. №1. С.85–99. DOI: 10.15827/0236-235X.030.1.085-099.

3. О.Ж.Бабомурадов, Н.С.Маматов, Л.Б.Бобоев, Б.И.Отахонова Қарор дарахти алгоритмидан фойдаланиб матнларни таснифлаш // Мухаммад ал-Хоразмий авлодлари, № 4 (10), декабрь 2019. Б.22-24.

4. А.Х.Nishanov, N.I.Kalimbetov, E.S.Babajanov. Methods of searching intellectual data in the sphere of information // Journal of «European Applied Sciences». №6-2. Stuttgart, Germany-2013. –P. 34-37

5. А.Х.Nishanov, N.I.Kalimbetov, E.S.Babajanov. Mathematical model of the system of intellectual interactive service in the content of information environments // International Journal of Current Research. Vol. 7. Issue 04. India-2015. –P.14405-14411.

6. Э.С.Бабаджанов Электрон ҳукумат муҳитида хизматларни танлашнинг алгоритмик ва дастурий таъминоти // 05.01.04 – Ҳисоблаш машиналари, мажмуалари ва компьютер тармоқларининг математик ва дастурий таъминоти. Техника фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. DSc.27.06.2017.Т.07.01 Рақамли Илмий Кенгаш. Тошкент. 2018

7. Нишанов А.Х., Бабаджанов Э.С., Саидрасулов Ш.Н., Кенжаев Х.Б. Электрон мурожаатларни қайта ишлаш ва электрон хизматлар самарадорлигини ошириши масалалари // Мухаммад ал-Хоразмий авлодлари, № 1 (15), март 2021. 109-113 б.

Saidrasulov Sh.N.

The issue of automatic processing of text appeals of individuals and legal entities in the e-government system

The article examines the issue of automatic processing of text inquiries of individuals and legal entities in the e-government system, proposing a logical mathematical and algorithmic support for the effective use of natural language to provide information services in public administration reform. The study proposes a model of processing text documents, which allows to classify the texts of written inquiries in automated systems of government agencies. The algorithm for solving the problem of determining the purpose of natural and legal inquiries of individuals and legal entities, as well as the necessary bases for the automatic identification of the organization serving mantle inquiries were expressed mathematically and the mathematical solution of the inquiries and its search was studied.

Саидрасулов Шерзод Норбой ўғли

Мухаммад Ал Хоразмий номидаги ТАТУ мустақил изланувчи (PhD).

Эл. почта: sh.saidrasulov@mininnovation.uz

Каримжонова М., Жуманова Г.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва рақамли иқтисодиёт

Мақолада мамлакатимизда кичик бизнесни ривожлантириш масалалари, шунингдек, Республика иқтисодий салоҳиятини янада ривожлантиришда кичик бизнеснинг ўрни ва аҳамияти ва кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш мақсадида Давлат божхона қўмитаси томонидан тақдим этилган импорт ва экспорт товарларни электрон декларациялаш технологияси таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Тадбиркорлик, кичик бизнес, инвестиция, валюта конвертацияси, иқтисодий тараққиёт, даромад, аҳоли турмуш фаровонлиги, экспорт, импорт, ТИФ, электрон божхона, декларация, божхона органлари, товарлар.

Мамлакатимиз иқтисодий барқарорлигини таъминловчи асосий иқтисодий бўғинлардан бири бўлган кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳаси ички бозорни сифатли товарлар билан таъминлаш, аҳоли фаровонлигини ошириш, экспорт таркибида юқори қўшимча қийматга эга маҳсулотларни кўпайтириш, замонавий хизмат кўрсатиш, янги иш ўринларини яратишда мамлакатимиз иқтисодиётида етакчи кучга ва муҳим аҳамиятга эга бўлиб бормоқда. Мамлакатнинг иқтисодий ривожланганлик ёки ривожланаётганлик даражаси унинг иқтисодий салоҳияти, аҳоли турмуш фаровонлиги, ЯИМ, ЯММ ҳажми, инфляция даражаси каби индекслар билан белгиланар экан, ҳозирги кунда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш орқали ҳам мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришга эришилади. Айниқса, сўнгги пайтларда мамлакатимизда пандемия шароитидаги чекловларга қарамай тадбиркорлар юртимиз иқтисодий ривожланишига сезиларли даражада ҳисса қўшмоқдалар.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрь куни Олий Мажлисга Мурожаатномасида “Янги йилда иқтисодий ислохотларнинг пировард мақсади камбағалликни қисқартириш ва аҳоли фаровонлигини оширишдан иборат бўлади. Ушбу стратегик мақсадларга ҳамма учун тенг имконият яратадиган юқори иқтисодий ўсиш ҳисобига эришилади”, деб таъкидлаб ўтилган [1].

Бунда мамлакат иқтисодиётини янада ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилиб, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш – мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришнинг омилилиги таъкидлаб ўтилди.

Бугунги кунда мамлакат иқтисодиётини ривожлантириш, жаҳон бозорларида ўз ўрнига эга бўлиш, мамлакат миллий валютаси қадрини ошириш, экспорт салоҳиятини кўпайтириш, аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш каби чора-тадбирлар олдимизда турган асосий вазифалардандир. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш эса ушбу чора-тадбирларни бошлаш учун дастлабки қадам бўлиб хизмат қилади.

Сўнгги йилларда мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари деб қуйидагилар белгиланди [2]:

-тадбиркорлик ва кичик бизнесни ривожлантириш бўйича янада қулай шароитлар яратиш;

-ишбилармонларнинг ҳақ-хуқуқларини, айниқса, хусусий мулк дахлсизлигини таъминлаш – барча даражадаги давлат органларининг асосий вазифаси бўлишини таъминлаш;

-айланма маблағ танқислигига дуч келган тадбиркорларимиз “оёққа туриб олишлари” учун уларга кўмак беришни давом эттириш;

-тадбиркорликни молиявий қўллаб-қувватлаш борасидаги ишларни давом эттириш мақсадида оилавий тадбиркорлик дастурлари доирасида имтиёзли кредитлар ажратилишини янада ошириш;

-хукумат томонидан Жаҳон банки билан биргаликда бошланган қишлоқларда тадбиркорликни ривожлантириш дастурини кенгайтириш;

-хукумат томонидан бозорда тенг рақобат муҳитини яратиш ва ҳалол-поқ тадбиркорларни, замонавий технологиялар асосида ишлаётган виждонли тадбиркорларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш;

-тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ 5 мингга яқин норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қайта кўриб чиқилиб, уларнинг сонини қисқартириш ҳамда тадбиркорлик кодекси ишлаб чиқиш;

-мораторий муддатини яна бир йилга узайтириш;

-кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш биринчимарта тадбиркорлик фаолиятини бошлаган тадбиркорларга имтиёзлар бериш ва қулай шарт-шароитлар яратиш.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, бизнес юритиш, иқтисодиётимизга маҳаллий ва хорижий инвестицияларни кенг жалб этиш учун зарур шароитлар ва қулай муҳит яратиш борасида кенг қамровли ишлар амалга оширилди. Эътиборли жиҳати шундаки, мулкдорларнинг ўрта синфини шакллантириш, ички бозорни рақобатбардош ва сифатли маҳсулотлар билан тўлдириш, янги иш ўринлари яратиш ва шу асосда аҳоли даромадларини кўпайтириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини оширишнинг муҳим омили, мамлакат тараққиёти йўлидаги фаол ҳаракатлантирувчи куч сифатида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни янада ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни яратиш бўйича аниқ

мақсадга йўналтирилган кенг чора-тадбирлар комплексини амалга ошириш мақсадида, кичик бизнес соҳасини янада ривожлантириш юзасидан бир қатор давлат дастурлари қабул қилинди [1].

Жумладан:

- тадбиркорларга янада қулайлик яратиш мақсадида 105 та лицензия ва рухсатнома турлари бекор қилинади, 115 таси бўйича эса тартиб-қоидалар соддалаштирилади;

- 20 мингта тадбиркорнинг 400 млрд. сўмлик ер ва мол-мулк солиғини тўлаш муддатини яна бир йилга узайтирилади;

- 1 млрд. сўмгача давлат харидлари доирасида аванс миқдори 30 фоизга етказилади;

- туризм, транспорт ва умумий овқатланиш соҳаларига берилган имтиёзлар келгуси йил якунигача узайтирилади;

- 2022 йил 1 январдан хорижий экспертларни жалб қилган ҳолда халқаро стандартлар, шу жумладан, Халқаро меҳнат ташкилоти ва бошқа халқаро ташкилотларнинг тадбиркорликка ўқитиш дастурлари ва тизими асосида тадбиркорликка ўқитишнинг ягона тизимини ишга туширилади;

- тадбиркорлик ташаббусига эга жисмоний шахслар, шу жумладан, ёшлар ва хотин-қизларга ўз бизнесини ташкил этиш учун 33 млн. сўмгача бўлган миқдордаги микрокредитлар таъминотсиз ажратилади;

- микрофирма ва кичик корхона таъсис этган шахсларга учинчи шахс кафилиги, суғурта полислари, кредит ҳисобига сотиб олинаётган мол-мулклар гарови, Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш давлат жамғармасининг кафилиги ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа таъминот турлари асосида 225 млн. сўмгача миқдорда микрокредитлар ажратилади. Бунда микрокредитлар 3 йил муддатгача 6 ойгача имтиёзли давр билан Марказий банкнинг асосий ставкасида ажратилади.

Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси ёшлар ва хотин-қизларни касб-хунар ҳамда тадбиркорлик кўникмаларига ўқитиш орқали тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйишни молиявий манба билан таъминлаш мақсадларига 100 миллион АҚШ доллари эквивалентида маблағ ажратилиши муҳтарам Президентимизнинг “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қароридан айтиб ўтилган.

Ушбу маблағларнинг 9 млн. АҚШ доллари эквиваленти Тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги ва Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби томонидан маъқуланган дастурлар ва белгиланган талаблар асосида ташкил этилган назарда тутилган тадбирларни молиялаштириш учун, 1 млн. АҚШ доллари эквиваленти Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги, Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги, Ёшлар ишлари агентлиги, Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Савдо-саноат палатаси, Тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги ва барча бўғиндаги

хокимликлар ҳудудларда аҳолининг тадбиркорликка қизиқишини ва манфаатдорлигини оширишга қаратилган чора-тадбирларни амалга оширишни молиялаштириш учун, 90 млн. АҚШ доллари эквиваленти махсус сертификатни олган ёшларга (жами 45 млн. доллар) ва хотин-қизларга (жами 45 млн. доллар) кредитлар ажратиш учун “Микрокредитбанк” АТБга 7 йил муддатга 3 йил имтиёзли давр билан Марказий банкнинг асосий ставкасида 4 фоиз паст фоиз ставкасида йўналтирилади.

Таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда кичик бизнес ва тадбиркорликни янада қўллаб-қувватлаш вазифаси ҳар қачонгидан кўра муҳим аҳамият касб этмоқда. Чунки, ушбу соҳалар янги-янги иш ўринларини яратиб, бизнинг шароитимизда иш билан банд аҳоли даромадининг 70 фоиздан ортигини ташкил этмоқда. Пандемия даврида (COVID-19) иқтисодийнинг барқарор ишлаши ва ривожланиши учун тадбиркорлар давлат билан теппа-тенг ҳисса қўшдилар. Шунинг учун барчамиз тадбиркорларга елкадош бўлиб, уларни доимо қўллаб-қувватлашимиз, ишбилармонларнинг ҳақ-ҳуқуқларини, айниқса, хусусий мулк дахлсизлигини таъминлаш – барча даражадаги давлат органларининг асосий вазифаси бўлиб хизмат қилишига юртбошимиз томонидан ҳам алоҳида этибор қаратилмоқда.

Хусусан, муҳтарам Президентимиз айрим жойларда давлат органлари тизимидаги раҳбар ва мутасаддилар томонидан тадбиркорларнинг мулкка доир ҳуқуқларини бузиш ҳолатлари давом этаётганлиги туфайли бундай мансабдорларни маъмурий жавобгарликка тортиш бўйича Бизнес-Омбудсманга ваколат беришни таклиф этдилар ва келгуси йилда “Солиқчи – кўмакчи” тамойили асосида тадбиркорлар учун уларнинг бизнес ҳамкорининг солиқ қарздорлиги ҳақидаги маълумотларни олиш имконияти яратилади” - деб таъкидлаб ўтдилар [4].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 14 октябрдаги “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4862-сон қарорига биноан 2021 йил 1 январдан бошлаб давлат активларини сотишдан тушадиган маблағларнинг Савдо-саноат палатасига йўналтириладиган қисми 3 фоиздан 5 фоизгача оширилди.

Этиборли жиҳати шундаки, мулкдорларнинг ўрта синфини шакллантириш, ички бозорни рақобатбардош ва сифатли маҳсулотлар билан тўлдириш, янги иш ўринлари яратиш ва шу асосда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириб, аҳоли даромадларини кўпайтириш ва фаровонлигини оширишнинг муҳим омили, мамлакат тараққиёти йўлидаги фаол ҳаракатлантирувчи куч сифатида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни янада ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни яратиш бўйича аниқ

мақсадга йўналтирилган кенг чора-тадбирлар комплексини амалга ошириш мақсадида, кичик бизнес соҳасини янада ривожлантириш юзасидан бир қатор давлат дастурлари қабул қилинди.

Мазкур давлат дастурлари доирасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳасига янада кенг қулайликлар ва шароитлар яратиш мақсадида охириги икки йил давомида жами 50 га яқин меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Ушбу қабул қилинган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда қуйидагилар ўз аксини топган:


- давлат рўйхатидан ўтиш, яъни ташкил этиш жараёнини янада соддалаштириш;
- статистика органларидан фирма номларини олишнинг энг муқобил варианти, яъни интернет тармоғи орқали фирма номларини бериш;
- солиқ ва статистика органларига ҳисоботлар топширишнинг оптимал варианти, яъни электрон ҳисоботларни жорий этиш;
- тадбиркорлик фаолиятдан олинган даромадлар бўйича солиқ ва мажбурий ажратмаларнинг ставкаларнинг сезиларли даражада пасайтирилиши;
- юкларни божхонада расмийлаштиришда тадбиркорлик субъектлари томонидан товарларни декларация қилиш;
- банк ҳисобварақларига масофадан туриб хизмат кўрсатиш тизими, шу жумладан, “Интернет-банкнинг” тизими орқали солиқларни ва бошқа мажбурий тўловларни тўлашнинг жорий этилиши;

- “бир ойна” тамойили бўйича юридик шахсларнинг кўчмас мулкка бўлган эгаллик ҳуқуқларини рўйхатга олиш ва бошқалар.

Ўзбекистон Республикасида тадбиркорлик соҳасини ривожлантириш бўйича қабул қилинган қонун ҳужжатлари ҳар томонлама мукамал равишда ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу қонун ҳужжатларининг ўз вақтида белгиланган талаблар доирасида бажарилиши юзасидан доимий мониторинг ўрнатиш ҳам ўз навбатида бугунги куннинг долзарб мавзуларидан биридир.

Импорт товарлар ўрнини босувчи маҳсулотларини мамлакатимизда ишлаб чиқариш бўйича Республика миқёсида Давлат дастурлари ишлаб чиқилиб, ушбу маҳсулотларни ишлаб чиқарувчи тадбиркорлик субъектларига бир қатор имтиёзлар яратиб берилаяпти.

Жумладан, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш мақсадида Давлат божхона қўмитаси томонидан импорт ва экспорт товарларни электрон декларациялаш имконияти яратилди [5, 6]. Божхона органларига ахборот – коммуникация технологияларини жорий этиш мамлакатимиз миқёсида қабул қилинаётган қонун ва норматив ҳуқуқий ҳужжатлар талабларига мос эканлиги, шу ҳужжатлар асосида амалга оширилаётганлиги билан бир қаторда, у барча халқаро меъёрларни ҳам сақлашга ва ижросини таъминлашга қаратилган.



1-расм. Одатий декларация қилиш усули¹

Ахборот коммуникацион технологиялари орқали товарларни декларация қилиш одатий декларацияга қараганда божхона иши жараёнларини тезлаштириш ва тадбиркорлик субъекти қўллаб-

қувватлаш усулларида биридир [7]. Товарларни декларация қилиш уларни божхона органларига товар қабул қилингунигача товар ҳақидаги маълумотларни бериш мажбурий жараёнини ўз

¹ Маълумотлар асосида муаллиф ишланмаси.

ичига олади. Товарларни одатий декларациялаш амалга ошириладиган бўлса бир нечта кетма – кетликларни босиб ўтишга тўғри келади (1-расм). Одатий декларация қилиш усуллари божхона декларацияси магнитли ташувчида қоғозли ҳужжатлари (ҳақиқий ва нусха) XML форматда божхона органига топширилади. У ерда берилган маълумотлар миқдори ва божхона тўловлари текширилади. Кейин (агар ҳамма ҳаракатлар тўғри келса) декларация қилиш тугатилади.

Товар киришига рухсат берилади. Бу жараёнга тугатилишига эса уч кунгача вақт сарфланиши мумкин. Интернет технологиялари орқали декларациялаш божхона органлари ахборотларни реал вақт режимида йиғиш, назорат ва таҳлил қилиш, қайта ишлашга мўлжалланган бир қатор автоматлаштирилган тизимларни босқичма – босқич ишлаб чиқиш ва амалиётга тадбиқ этиш имконини берди [9]. Мазкур ахборот тизимлари билан божхона органлари фаолиятининг барча асосий йўналишларини қамраб олган бўлиб, улар:

- автомобил ва темир йўл транспортда юкларнинг етказилишини назорат қилиш;
- божхона омборларидаги товарларнинг ҳисобини юритиш ва назорат қилиш;
- электрон божхона юк декларациялари маълумотлари билан ишлаш;
- товарларни божхона қиймати тўғрилиги ва божхона тўловларининг тўлиқ ундирилишини назорат қилиш;
- божхона қоидабузарликлари ҳисобини юритиш ва назорат қилиш ва ҳоказо кўринишларда намоён бўлади.

Амалиётда жорий қилинган барча тизимлар ахборот хавфсизлиги талабларини ҳисобга илган ҳолда яратилган бўлиб, улар Давлат божхона кўмитасининг ягона автоматлаштирилган ахборот тизимига бирлаштирилган.


Товарларни электрон декларациялашда бир нечта аъзолар иштирокчи ҳисобланади ва улар ўз статусига қараб вазифаларни бажаришлари талаб этилади. Электрон декларация аъзолари тузилмаси 2-расмда келтирилган.

ТИФ (Ташқи иқтисодий фаолият) иштирокчилари ўзларининг товарларини декларация қилишлари мумкин. Ушбу ҳолатда товарларни декларация қилиш божхона вакили ва тизим администратори иштирокисиз амалга оширилади. ТИФ вакили божхона декларация қилиш учун ҳужжатлар тўпламини ўзи таёрлайди, ҳужжатларни божхона кўмитасига топширади ва маълумотлар тўлиқлигига, етказиш муддатига ва тўловига ва бошқаларга ўзи жавоб беради.

Электрон декларациялашда барча иштирокчиларнинг вазифалари белгилаб берилган. Қатнашувчилар ўзаро бир-бири билан алоқа ўрнатган ҳолдагина декларациялашни амалга

оширишлари мумкин. Қуйида иштирокчиларнинг вазифалари келтирилган:

ТИФ иштирокчилари – товарларни декларация қилиш учун божхона вакилига керакли ҳужжатларни топширади.



2-расм. Товарларни декларация қилиш аъзолари²

Божхона вакили – товарларни электрон декларация қилиш учун тизим администраторига электрон кўринишда керакли маълумотларни топширади.

Тизим администратори– “маълумотларни электрон намоиш этиш”ни интернет орқали божхона кўмитасига жўнатади.

Божхона кўмитаси – “маълумотларни электрон намоиш этиш” орқали жўнатилган маълумотни қабул қилади.

Интернет орқали ташкил этилган электрон декларация шахсан ёки воситачи ёрдамида бажарилишига қарамасдан, электрон декларация ТИФ вакиллари учун товарларни оддий декларация қилиш усулига қараганда қуйдаги фойдали жиҳатлари мавжуд:

- товарларни декларация қилишнинг қоғосиз тизими;
- божхона декларациясини амалга оширишнинг юқори тезлиги;
- керакли қурилмалар билан жиҳозланган ихтиёрий божхона постидан - товарларни божхона декларацияси қилиш имконияти;
- электрон декларация қилиш тизими махсус юкларни декларация қилишда жуда қулайлиги.

ТИФ вакилларига электрон декларация ўтказиш учун қуйдагилар зарур, биринчидан, расмийлаштиришдан ўтиш учун божхона назорати билимларига етарли даражада эга бўлиш. Иккинчидан, электрон декларация жараёни техник амалга ошириш учун дастурий таъминот ҳисобланади.

Таъкидлаш жоизки, давлатимизда кичик бизнес ва тадбиркорликни янада қўллаб-қувватлаш вазифаси ҳар қачонгидан кўра муҳим аҳамият касб этмоқда. Ушбу соҳалар янги иш ўринларини яратиб, бизнинг шароитимизда иш билан банд аҳоли даромадининг 70 фоиздан ортиғини ташкил этмоқда.

Бир нарсани алоҳида таъкидлаш керакки, пандемия (COVID-19) даврида иқтисодиётнинг барқарор ишлаши ва ривожланиши учун

² Маълумотлар асосида муаллиф ишланмаси.

тадбиркорлар давлат билан теппа-тенг ҳисса кўшдилар. Шунинг учун барчамиз тадбиркорларга елкадош бўлиб, уларни доимо кўллаб-қувватлашимиз, ишбилармонларнинг ҳақ-ҳуқуқларини, айниқса, хусусий мулк дахлсизлигини таъминлаш – барча даражадаги давлат органларининг асосий вазифаси бўлиб хизмат қилишига юртбошимиз томонидан ҳам алоҳида этибор қаратилмоқда.

Хусусан, муҳтарам Президентимиз айрим жойларда давлат органлари тизимидаги раҳбар ва мугасаддилар томонидан тадбиркорларнинг мулкка доир ҳуқуқларини бузиш ҳолатлари давом этаётганлиги туфайли бундай мансабдорларни маъмурий жавобгарликка тортиш бўйича Бизнес-омбудсманга ваколат беришни таклиф этдилар ва келгуси йилда “Солиқчи – кўмакчи” тамойили асосида тадбиркорлар учун уларнинг бизнес ҳамкорининг солиқ қарздорлиги ҳақидаги маълумотларни олиш имконияти яратилади” - деб таъкидлаб ўтдилар [3].

Сўнги 4 йилда иқтисодиётимизнинг барча жабҳаларига бозор механизмларини жорий этиш борасида жиддий қадамлар ташланди. Эндиги вазифа – чуқур таркибий ислохотлар орқали узоқ муддатли барқарор ўсишнинг пойдеворини яратишдан иборат. Бунинг учун кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни кенг қўллаб-қувватлаш бўйича кўплаб имтиёз ва энгилликлар берилиши керак. Мисол учун сўнги йилларда хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, бизнес юритиш, иқтисодиётимизга маҳаллий ва хорижий инвестицияларни кенг жалб этиш учун зарур шароит ва қулай муҳит яратиш борасида улкан ишлар амалга оширилди.

Давлат ва назорат идораларининг корхоналар молиявий-хўжалик фаолиятига аралашувини кескин камайтириш ҳамда тадбиркорлик субъектларининг иқтисодий эркинлиги ва ҳуқуқларини сезиларли равишда кенгайтириш бўйича чоралар қабул қилинди. Янги ташкил қилинган кичик корхоналар ва микрофирмаларни режали солиқ текширувларидан озод этиш муддати икки йилдан уч йилга узайтирилди. Солиқ ва бошқа мажбурий тўловларни ўз вақтида тўлаётган, шунингдек ишлаб чиқаришнинг барқарор ўсиш суръатлари ва рентабеллигини таъминлаётган кичик тадбиркорлик субъектларида уч йил давомида солиқ текширувларини ўтказиш тақиқланди.

Жаҳон иқтисодий форуми томонидан қабул қилинган мамлакатларнинг глобал рақобатбардошлиги концепциясига кўра, халқаро бозорларда ўз экспортчиларини кўллаб-қувватлаш бирмунча институтлар ва воситаларини ташкил этган давлатларда самарали ҳисобланади.

Халқаро “Doing Business” рейтингда юқорига ҳаракатимиз нима учун хорижий инвестицияларнинг тегишлича ҳажми ошиши билан давом этмаяпти?” деган табиий савол туғилади. Маълумки, бу рейтинг мамлакатда, айниқса, кичик бизнес ва тадбиркорлик

соҳасида бизнес юритиш учун яратилган шароитлар ҳолатини баҳолайди. Ушбу рейтингнинг жами 11 та кўрсаткичидан фақатгина “Халқаро савдо” кўрсаткичи йирик ва стратегик инвесторларда қизиқиш уйғотади (афсуски, ушбу кўрсаткич бўйича мамлакатимиз 2020 йилда 152-ўринни эгаллади).

Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ислохотлар ташқи иқтисодий фаолиятга, уни эркинлаштиришга ва ушбу йўналишда бундан кейин амалга ошириладиган ислохотларга янгича ёндашиш зарурлигини тақозо этмоқда. Бу ўз навбатида давлатнинг халқаро ҳуқуқ соҳасида ҳамкорлик қилиш ва Ўзбекистон Республикасида божхона ишини тартибга солиш муаммоларига давлат томонидан янгича ёндашишнинг пайдо бўлишига сабаб бўлмоқда. Республикада ташқи иқтисодий фаолиятни либераллаштириш, инвестицион жозибадорликни ошириш ва мамлакатнинг экспорт салоҳиятини мустаҳкамлаш бўйича белгиланган вазифалар тизимли равишда амалга оширилмоқда.

Жаҳон тажрибасининг кўрсатишича, очиқ бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида экспорт салоҳиятини ривожлантириш ва миллий экспортёрларга ҳар томонлама кўмак бериш самарали ташқи иқтисодий фаолиятнинг асоси ва мамлакат иқтисодий ҳавфсизлигининг гарови бўлиб хизмат қилади. Ўзбекистон учун бу ҳол алоҳида аҳамият касб этади, чунки фақат экспортни ривожлантириш орқали, ҳаёт учун муҳим товарлар импортини қисқартирмаган ҳолда савдо балансининг мусбат сальдосига эришиш мумкин. Бунинг учун биз янада кўпроқ хорижий инвестицияларни жалб этишимиз, кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш орқали янги истиқболли лойиҳаларни амалга оширишимиз, қолаверса, замонавий технологияларни жорий этиш орқали мамлакатимизда, импорт ўрнини босувчи маҳсулотларни ишлаб чиқаришимиз керак бўлади. Шу билан бирга, мамлакатда қулай инвестиция муҳитини яратиш ва тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга тўсқинлик қилувчи бир қатор тизимли муаммолар сақланиб қолинмоқда.

Ушбу муаммоларга ечим излаш, уларни бартараф қилиш олдимизда турган долзарб вазифалардан биридир, зеро кичик бизнес ва тадбиркорлик мамлакат иқтисодиётининг таянчи ҳисобланади. Ташқи иқтисодий фаолият иштирокчилари ва инсофли тадбиркорларни рағбатлантириш учун божхона идоралари томонидан уларга қўйилган маъмурий тўсиқларни камайтириш бўйича деярли ҳеч қандай механизмлар қўлланилмаганлиги, асосий камчилигимиз бўлиб қолаётган эди. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 24 ноябрдаги “Божхона маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва Ўзбекистон Республикасида Давлат божхона хизмати органлари фаолиятини самарадорлигини ошириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5582-сон Фармонининг қабул қилиниши алоҳида аҳамият касб этади. Ушбу

Фармон билан божхона органлари олдига бир қатор вазифалар қўйилди. Шундай вазифалардан бири Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланадиган талабларга жавоб берадиган инсофли ташқи иқтисодий фаолият иштирокчиларига соддалаштирилган божхона тартиб-таомилларидан фойдаланиш ҳуқуқини тақдим этишни назарда туғувчи халқаро стандартларга мувофиқ ваколатли иқтисодий операторлар институтининг жорий этилишидир.

Ваколатли иқтисодий оператор - божхона операцияларини амалга оширишда соддалаштирилган божхона тартиб-таомилларидан фойдаланиш учун юридика шахсларга бериладиган мақом. Жаҳон тажрибасига назар солсак, ушбу мақом ҳозирги кунда дунёнинг кўплаб мамлакатларида мавжуд.

Тадбиркорлик субъектларига яратилаётган яна бир қулайликлардан бири бу, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Савдо тартиб-таомилларини соддалаштириш ва электрон иш амалиётлари бўйича марказнинг тавсиялари ва йўл-йўриқ таомиллари мезонларига жавоб берадиган “Ягона дарча” божхона ахборот тизимини жорий этилишидир.

Ташқи иқтисодий фаолият соҳасидаги давлат хизматларининг шаффофлигини ошириш ва мавжуд очик маълумотлардан эркин фойдаланиш имкониятларини яратиш мамлакатнинг иқтисодий манфаатларини ҳисобга олган ҳолда экспорт-импорт операцияларининг мутаносиблигини таъминлаш, кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятини жадал ривожлантириш, инвестициявий жозибдорлигини ҳамда экспорт салоҳиятини ошириш, аҳолининг турмуш шароити ва сифатини яхшилашнинг энг муҳим шартларидан ҳисобланади.

Юқоридаги вазифаларни бажариш билан бир қаторда, Ваколатли иқтисодий операторлар томонидан олиб қириладиган товарлар ҳақида божхона органга олдиндан хабар бериш;

- тегишли назорат процедураси амалга ошириладиган вақтда олиб қириладиган товарлар ҳақидаги жаҳон бозоридаги аниқлаштирилган нарх маълумотлари билан таъминлаш;

- божхона чегараси орқали товар ва транспорт воситаларини олиб ўтишда, жисмоний шахслар ва уларнинг юқларини ўтказишда кенг тармоқли хавфни бошқариш тизими моделларидан фойдаланиш;

- ҳужжатлар ва маълумотларни электрон шаклда тақдим этиш, шу аснода товарларни электрон декларациялаш имкониятларини кенгайтириш;

- мувофиқлик сертификати, санитария-эпидемиология ҳулосаси, экологик сертификат мавжуд бўлиши талаб этиладиган товарларни “Ягона дарча” божхона ахборот тизимида уларнинг берилиши тасдиқланган тақдирда, импорт қилишга рухсат бериш имконияти яратилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4862-сон қарори. 2020 йил 14 октябрь.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Божхона маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона хизмати органлари фаолиятини самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5582-сон Фармони. 2018 йил 24 ноябрь.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Божхона маъмуриятчилигини ислоҳ этиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-6005-сон Фармони. 2020 йил 5 июнь.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ваколатли иқтисодий операторлар тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 500-сон қарори. 2020 йил 24 август.

6. Дадабоев О., А. Саидов, Божхона органлари фаолиятида ахборот технологияларидан фойдаланиш методологияси. “Божхона органлари фаолияти самарадорлигини оширишнинг назарий ва амалий муаммолари” мавзусидаги Республика конференцияси материаллари, 2012, Тошкент., 108 – 110 б.

7. Саидов А., М. Мирбобоев, Ш. Алметов, Н. Ғаниева, И. Бобоқулов. “Божхона органларининг ахборот тизимлари асослари” – II том. Тошкент – 2016. б 421

8. Резер С.М., Прокофьева Т.А., Гончаренко С.С. Международные транспортные коридоры: проблемы формирования и развития. - М.: ВИНТИ РАН. - 2010. - С.20.

Karimjonova M., Jumanova G.

Small business and private entrepreneurship and the digital economy

This paper analyzes the development of small business in the country, as well as the role and importance of small business in the further development of the economic potential of the republic and technology provided by the State Customs Committee to support small business and private entrepreneurship technology for electronic declaration of imported and export goods.

Key words: Entrepreneurship, small business, investments, currency conversion, economic development, income, welfare of the population, export, import, foreign economic activity (FEA), electronic customs, declaration, customs authorities, goods.

UDK 004.093

Baltaev R.D., Maksudov M.M., Hakimova M.T., Raxmanov F.SH.

Raqamlashtirish jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlar (Big data) bilan ishlashning asosiy texnologiyalarining tahlili

Ushbu maqola mamlakatni raqamlashtirish va raqamli iqtisodiyotni yangi bilimlar va katta daromadlar asosi bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashning asosiy texnologiyalari va ularni tahlil qilish usullariga bag'ishlangan. Katta hajmdagi ma'lumotlarning tahlil texnologiyalarining bozor holatini prognozlash, marketing va sotishni optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va asosiy fondlar holatini monitoringi masalalarini yechishdagi samaradorligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: katta hajmdagi ma'lumotlar, raqamlashtirish, axborot, samaradorlik, raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar, ma'lumotlar massivlari, samarali logistika, kommunikatsiya, statistik baholash.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning raqamli texnologiyalar to'g'risida aytgan quyidagi gaplarini keltirish o'rinlidir: "Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish-kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha harajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat - korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir".

"Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasini amalga oshirish dasturi doirasida hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevralda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan "2021-2022 yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" belgilangan. Dasturga asosan Sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish sohasida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, sun'iy intellektni mashina yordamida o'qitish uchun katta hajmda davlat tilidagi raqamli ma'lumotlarni shakllantirish, Sun'iy intellekt texnologiyalari va katta ma'lumotlar bilan ishlash uchun superkompyuter va «bulutli» platformalarni rivojlantirish, shuningdek, davlat tilidagi nutqni tahlil va sintez qilishni qo'llovchi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish belgilangan.

2. Masalaning qo'yilishi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda.

Jumladan: iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, qishloq ho'jaligi, turizm, transport, bank, xizmat sektori, shuningdek, ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish jarayonida axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasining mustahkamligi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan, yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni

shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining avtomatlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o'rtasidagi raqobat masalasi ham ko'tarilmoqda. Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalar orqali shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda. Ichki kommunikatsiya jarayonida asosiy vazifa, xodimlarning o'zaro hamkorligini tashkil etish va raqamli transformatsiya muhitini rivojlantirish bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda katta hajmdagi ma'lumotlar raqamlashtirish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy texnologiyalaridan biriga aylanmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Misol qilib, korxonada xodimning ayrim texnik ishlari katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va machine learning ga asoslangan dasturlar asosida amalga oshirilib, uning o'rnini kompaniyaning inson kapitali va ish beruvchining brendini rivojlantirishga yo'naltirilgan HR-mutaxassis egallayotganligi olsak bo'ladi.

3. Masalani yechish uslubi. Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) - bu 2000-chi yilning oxirlarida paydo bo'lgan va an'anaviy ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va Business Intelligence sinfi yechimlariga muqobil, hamda dasturiy vositalar bilan samarali ishlov berish mumkin bo'lgan ulkan hajmdagi, xilma-xillikdagi, tuzilmali va tuzilmasiz ma'lumotlarning belgilanishi hisoblanadi.

Big data – bu turli xildagi ma'lumotlarning katta to'plami hisoblanadi. Ulardan foydalanishda samara keltirishi uchun ulardagi qandaydir foydali qonuniyatlarni topish kerak, masalan o'xshashliklar, farqlar, umumiy toifalar va boshqalar. Bunday qonuniyatlarni izlash jarayoni **Data mining** - ma'lumotlarni "qazib olish" yoki ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish deb ataladi.

Katta hajmdagi ma'lumotlardan turli texnologiyalar, masalan yechimlar daraxtini qo'llashga asoslangan tasniflash, modellashtirish va prognozlash usullari, neyron tarmoqlari, genetik algoritmlar va boshqa metodlar yordamida yangi foydali ma'lumotlarni "qazib olish" mumkin. Ma'lumotlarni "qazib olish" usullariga statistik usullar ham kiradi.

Big Data - bu har xil vositalar, yondashuvlar va tarkibiy tuzilmalarni qayta ishlash usullari bo'lib, ularni

ma'lum vazifa va maqsadlarda ishlatish uchun foydalaniladi, katta ma'lumotlar toifasiga kuniga 100 gb dan ortiq ma'lumot oqimlari kiradi.

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashning quyidagi asosiy tamoyillarini keltirishimiz mumkin:

Gorizontal masshtabga egaligi. Bu - katta ma'lumotlarni qayta ishlashning bazaviy tamoyilidir. Bugungi kunda katta ma'lumotlar ko'payib bormoqdaligi sababli, unumdorlikni pasaytirmagan holda ma'lumotlar taqsimlanadigan hisoblash tugunlarining sonini ko'paytirish kerak.

Barqaror turg'unlik. Ushbu tamoyil oldingidan kelib chiqadi. Klasterdagi hisoblash tugunlari juda ko'p bo'lishi mumkin (ba'zan o'n minglab) va ularning soni ortib boradi va bu holda mashinalarning ishdan chiqishi ehtimoli ortadi. Shu sababli, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash usullari bunday vaziyatlarning mavjudligini hisobga olishi va profilaktik chora-tadbirlarni ko'zda tutishi kerak.

Ma'lumotlarning lokalligi. Ma'lumotlar ko'p sonli hisoblash tugunlarida taqsimlanganligi sababli, agar ular jismonan bitta serverda joylashgan bo'lib, boshqa serverda qayta ishlanayotgan bo'lsa, ma'lumotlar uzatish harajatlari asossiz katta bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun, ma'lumotlarni qayta ishlash ular saqlanayotgan huddi shu mashinada amalga oshirilishi kerak.

Katta hajmdagi ma'lumotlarni taxlil qilishning quyidagi usullarini keltirish mumkin:

Data mining (ma'lumotlarni qazib olish, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish) usullari - ma'lumotlardagi qabul qilish uchun zarur bo'lgan, ilgari noma'lum bo'lgan, ahamiyatsiz, lekin amaliy foydali bilimlarni aniqlash usullari to'plamidir. Bunday usullar to'plami, jumladan, assotsiativ qoidalarga o'qitish (association rule learning), tasniflash (toifalarga bo'lish), klasterli tahlil, regression tahlil, xatoliklarni aniqlash, tahlil qilish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Data mining bir necha asosiy vazifalarni hal qiladi:

- tasniflash - ma'lumotlarni oldindan ma'lum bo'lgan sinflarga taqsimlash.
- klasterlash - ma'lumotlarning bir-biriga o'xshashlik darajasiga ko'ra guruhlarga taqsimlanishi. Masalan, do'kondagi xatti-harakatlari asosida mijozlarning turli portretlarini tuzish.
- assotsiatsiya - qaytarilayotgan ma'lumotlar namunalarni qidirish. Misol uchun, mijozlarning cheklarida bir xil mahsulotlar to'plami.
- regression tahlil - berilgan parametrga ta'sir etuvchi muhim omillarni topish.
- farqlar tahlili - odatdagidan keskin farq qiluvchi tipik bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlash.

Kompaniyalarning ma'lumotlar bilan bog'liq ko'pgina vazifalarini hal qilishda Data mining dan foydalaniladi. Masalan, regression tahlil yordamida risklarni baholash mumkin, klasterlash yordamida mijozlarni segmentlash mumkin, assotsiatsiyalarni

ma'lumotlarga talabini aniqlashni bashorat qilish mumkin va hokazo.

Kraudsorsing - mehnat munosabatlariga a'zo bo'lmagan ishni amalga oshiradigan noaniq shaxslar tomonidan ma'lumotlarni tasniflash va boyitish hisoblanadi. Odatda katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data)ning taxlili bilan kompyuterlar shug'ullanadi, ba'zida bu ishlarni insonlarga ham yuklatiladi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun kraudsorsing mavjud, ya'ni qandaydir muammoli masalalarni yechish uchun insonlar guruhini jalb qilishdir. Faraz qilaylik, bizda katta hajmdagi qayta ishlanmagan ma'lumotlar mavjud. Masalan, do'konlarning sotuv to'g'risidagi yozuvlari, ko'pincha tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar xatolar bilan yoki qisqacha yoziladi.

Agarda qo'yilgan masala bir martalik bo'lsa va uni yechish uchun murakkab sun'iy intellekt tizimini yaratish ma'noga ega bo'lmasa kraudsorsingdan foydalanish maqul hisoblanadi. Agar katta hajmdagi ma'lumotlarni har doim taxlil qilib turish zarur bo'lsa, u holda Data Mining yoki mashinali o'qitishga asoslangan tizim kraudsorsingga qaraganda arzonroq tushadi. Bundan tashqari matematik usullarga, masalan statistika yoki imitatsion modellashtirishga asoslangan murakkab taxlillar bilan kompyuterlarda ish bajarish oson amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni aralashtirish va integratsiya qilish (data fusion and integration) - chuqur tahlil o'tkazish maqsadida turli xil manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirishga imkon beruvchi texnikalar to'plami (masalan, signallarni raqamli qayta ishlash, tabiiy tillarni qayta ishlash va boshqalar).

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Big data bilan ishlash turli manbalardan turli xildagi ma'lumotlarni yig'ish bilan bog'liq. Bu ma'lumotlar bilan ishlash uchun ularni bitta qilib yig'ish kerak. Ularni bitta bazaga tashlash mumkin emas, ya'ni turli manbalar turli formatdagi va turli parametrlar bilan ma'lumotlar berishi mumkin. Bu paytda ma'lumotlarni aralashtirish va integratsiya qilish, ya'ni turli hildagi ma'lumotlarni bir ko'rinishga olib kelish qo'l keladi.

Turli manbalardagi ma'lumotlardan foydalanish uchun quyidagi usullar ishlatiladi:

- ma'lumotlarni bitta formatga keltiriladi: rasmlari matnni tanib oladi, xujjatlarni yig'adi va matnni raqamga o'tkazadi;
- ma'lumotlarni to'ldiradi: agar bitta obekt to'g'risida ikkita ma'lumotlar manbasi bo'lsa, to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun birinchi manba ma'lumotlari ikkinchisi bilan to'ldiriladi;
- tahlil uchun ortiqcha ma'lumotlarni olib tashlanadi.

Agar bir nechta turli ma'lumotlar manbalari mavjud bo'lsa va bu ma'lumotlarni majmuada tahlili zarur bo'lsa, ma'lumotlarni aralashtirish va integratsiya qilish kerak bo'ladi. Masalan, do'kon tovarlar sotuvini oflayn yoki internet orqali amalga oshirmoqda. Sotish va sotib olish to'g'risidagi to'liq ma'lumotni olish uchun ma'lumotlar to'plamini yig'ish zarur: kassa cheklari, ombordagi qolgan tovarlar miqdori, internet -buyurtmalar va

boshqalar. Bu hamma ma'lumotlar turli joylardan kelib tushadi va turli formatga ega bo'ladi. Bu ma'lumotlar bilan ishlash uchun ularni bitta ko'rinishga keltirish kerak.

Ma'lumotlarni integratsiya qilishning an'anaviy usullari asosan ETL jarayoniga asoslangan, ya'ni ma'lumotlarni chiqarib olish, o'zgartirish va yuklash, ya'ni ma'lumotlarni manbalardan oladi, tozalaydi va omborga yuklaydi. Bu ishlarini amalga oshirish bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlar ekotizimining maxsus instrumentlari Hadoop dan boshlab to ma'lumotlar bazasi NoSQL ham o'zining yondashuvlariga ega.

NoSQL (ing. tilidan olingan Not Only SQL, nafaqat so'rovlar ro'yxati SQL) - turli relyatsion bo'lmagan ma'lumotlar bazalari va ularni saqlash uchun umumiy atama bo'lib, ma'lum bir texnologiya yoki mahsulotni bildirmaydi. An'anaviy relyatsion ma'lumotlar bazalari juda tez va bir xil turdagi so'rovlar uchun mos keladi va katta ma'lumotlarga xos bo'lgan murakkab, moslashuvchan qurilgan so'rovlarda og'irlik o'rtacha chegaradan oshib ketadi va MBBT dan foydalanish samarasiz bo'ladi.

Hadoop - yuzlab va minglab tugunlardan iborat klasterlarda ishlovchi taqsimlangan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun erkin tarqatiladigan yordamchi dasturlar, kutubxonalar va ramkalar to'plamidir. Bu katta hajmdagi ma'lumotlarning asosiy texnologiyalaridan biri bo'lib, bir necha terabaytdan tortib petabaytgacha bo'lgan ma'lumotlar omborlarini saqlash va boshqarish uchun taqsimlangan fayl tizimi hisoblanadi.

Big Data texnologiyalari quyidagi vazifalarni hal qilishda katta samara berishi mumkin:

- bozor holatini prognoz qilish
- savdo marketingi va optimallashtirish
- mahsulotni takomillashtirish
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- samarali logistika;
- asosiy fondlarning holatini monitoring qilish.

Ishlab chiqarish korxonalarida katta hajmdagi ma'lumotlar sanoat buyumlar interneti texnologiyalarini joriy etish natijasida ham xosil bo'ladi. Ushbu jarayon davomida mashina va stanoklarning asosiy qismlari va detallari sensorlar, ijro etuvchi qurilmalar, nazoratchilar va ba'zan chegara (tumanli) hisob-kitoblarni amalga oshirishga qodir arzon protsessorlar bilan ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida doimiy ma'lumotlar yig'ish va ularni oldindan qayta ishlash (masalan, filtrlash) amalga oshiriladi.

Analitik platformalar real vaqtda ushbu axborot massivlarini qayta ishlaydi, natijalarni eng qulay shaklda taqdim etadi va undan kelajakda foydalanish uchun saqlaydi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida uskunaning holati, uning ishlash samaradorligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati, texnologik jarayonlarga o'zgartirish kiritish zarurligi haqida hulosalar chiqariladi.

4. Xulosa va takliflar. Aytish mumkinki, katta hajmdagi ma'lumotlar mehnat va kapital resurslari bilan bir qatorda barcha resurslarni samarali ko'paytirish manbai bo'ladi. Katta ma'lumotlardan foydalanish korxonalar va kompaniyalarning raqobatda ustunlikka erishishiga hamda o'sishiga asos bo'ladi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish mehnat unumdorligi yangi to'lqinining asosi bo'ladi. Korxonalarda va kompaniyalarda katta hajmdagi ma'lumotlar texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun axborot tizimini yagona raqamli platformaga o'tkazish zarur. Bu esa ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish tezligini oshishiga olib keladi, ma'lumotlar bazasidagi axborotlarni konfidensialligini ta'minlash darajasi hamda ma'lumotlar bazasi hajmi ortadi.

Katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali tahlil qilish natijalariga ko'ra, korxonalarda texnologik rejimlarni o'zgartirish istiqbollari, xizmat ko'rsatadigan xodimlarni kamaytirish yoki qayta taqsimlashni hisoblab chiqish, kelajakda korxonaning yanada rivojlanishi bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Teshabaev T., Gulyamov S.S. Xayitmatov U.T., Ayupov R.X.. Raqamli iqtisodiyot va dasturlash asoslari. Izoxli lug'at. Toshkent. 2021 y. "Davr Matbuot Savdo" MChJ, 15.5 b.t.

2. Gulyamov S.S., Shermuxamedov A.T., Xayitmatov U.T. Статистический анализ цифровой экономики в Узбекистане. "O'zbekiston transport tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarni iqtisodiy samaradorligini baholashning dolzarb masalalari". Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman maqolalari to'plami. Toshkent, 2021, 6-11 b.

3. Gulamov S.S., Shermukhamedov A.T., Haitmatov U.T.. Methodological aspects of statistical analysis of the digital economy in Uzbekistan. // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. 2021, Issue 03, Volume 95. – 70-76 pp. SKOPUS 2.0

4. Begalov B.A., Gulyamov S.S., Xayitmatov O.T.. Milliy statistika tizimini samaradorligini oshirishda katta hajmdagi ma'lumotlar (Big data) tahlili texnologiyalaridan foydalanish. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rolini oshirish. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. T. 2020.

5. Leskoves Yu., Radjaraman, A., Ulman D.. Анализ больших наборов данных. - М. : ДМК Пресс, 2016.

6. Medetov A. A.. Термин Big Data и способы его применения // Молодой ученый. - 2016. - № 11. - С. 207-210.

7. Fillips T.. Управление на основе данных. Как интерпретировать цифры и принимать качественные решения в бизнесе. - М. : 2017.

Baltayev Rustam Djaxangirovich -
“O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi Boshqarma
boshlig‘i, mustaqil izlanuvchi. e-mail: r.baltaev@gis.uz

Maksudov Mirzoxid Mirvasikovich -
“O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi yetakchi
mutaxassisi, mustaqil izlanuvchi. e-mail:
m.maksudov@gis.uz

Xakimova Maftuna Talxatbek qizi -
“O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi 1-toifali
mutaxassisi. e-mail: m.xakimova@gis.uz

Raxmanov Farxod Shakirovich -
“O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi bosh mutaxassisi.
e-mail: f.raxmanov@gis.uz

**Baltaev R.D., Maksudov M.M., Xakimova M.T.,
Raxmanov F.SH.**

**Main technologies and methods of analyzing of
big data in the process of digitization**

This article focused on the main technologies and methods of analyzing of digitalization and digital economy related with big data that are the basis of new knowledge and huge incomes. The article demonstrates the efficiency of big data analysis technologies in forecasting market conditions, optimizing marketing and sales, increasing labor productivity and monitoring the condition of fixed assets.

Key words: digitization, information, efficiency, digital technologies, big data, massive data, efficient logistics, communication, statistical assessment.

UDK 519.682

Axatov A.R., Rashidov A.E.

Big Data va unig turli sohalardagi tadqiqi

Hozirgi vaqtda ma'lumotlar oqimining oshib borishi va qayta ishlanadigan ma'lumotlar ko'lami ko'payishi bu ma'lumotlarni noodatiy holda saqlash hamda qayta ishlashni taqozo qilib bormoqda. Bundan kelib chiqib katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan axborot tizimlaridagi ma'lumotlarni Big Data sifatida qarash hamda Big Data algoritmlari asosida qayta ishlash bir qancha samaradorliklarga olib keladi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirilgan holda boshqarishni tashkil qilish, avtomatlashtirilgan tizimlar tarkibidagi ma'lumotlarni Big Data sifatida qayta ishlash algoritmlarini ishlab chiqish hamda Big Data sinfidagi ma'lumotlar ishonchligini ta'minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishida katta hajmdagi (Big Data) ma'lumotlarning xarakteristikalari va katta hajmdagi ma'lumotlarning o'rganilganlik darajasi tizimli tahlil qilingan. Katta hajmdagi ma'lumotlarda uchraydigan muammolar va bu muammolarni hal etishning yondashuvlari batafsil keltirilgan. Bundan kelib chiqib katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash to'liq o'rganilmagan va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash model va algoritmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga qo'llash dolzarb tadqiqot vazifalarini belgilab beradi.

Kalitli so'zlar. Axborot tizimlari, ma'lumotlar oqimi, Big Data, 3 V xossalari, ma'lumotlar turli xilligi, ma'lumotlar manbalari turli xilligi, ma'lumotlar ishonchligi, o'zgaruvchanlik, vizuallashtirish, strukturalashgan va strukturalashmagan ma'lumotlar, raqamlashtirish, O'zbekistonda Big Data.

1. Kirish

Hozirgi vaqtda insonlar ish faoliyatidagi va kundalik turmushidagi ko'plab jarayonlarning raqamlashtirilishi, turli xil ijtimoiy tarmoq platformalari va bloglarning paydo bo'lishi, binolarga, hududlarga, qurilma va mexanizmlarga ular va ular atrofidagi vaziyat bo'yicha ma'lumotlarni yetkazib turuvchi apparatlarning joylashtirilishi, qo'lda ishlatiladigan raqamli qurilmalar, taqiladigan moslamalar va internetdan foydalanish darajasining yuqori darajada o'sishi natijasida juda ko'p turli xildagi ma'lumotlar oqimi vujudga kelmoqda. Natijada katta va kichik serverlarda hamda shaxsiy qurilmalarda hozirgi zamonaviy texnologiyalar yordamida qayta ishlash murakkab bo'lgan, misli ko'rilmagan darajada katta ma'lumotlar hosil bo'lmoqda. Bu katta ma'lumotlar ularni saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq bir qancha muammolar hosil qilishi bilan birgalikda, ularni qayta ishlash atrofimizda sodir bo'lgan, bo'layotgan va sodir bo'ladigan jarayonlar sababini to'liq o'rganishga asos bo'lishi mumkin. Shu maqsadda butun dunyoda bugungi kunda ushbu Big Data deb ataladigan katta ma'lumotlar oqimini tadqiq va tadqiq etish bo'yicha juda ko'plab ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilganidek xorijlik tadqiqotchilar va IT (inglizcha: Information Technology) kompaniyalari tomonida Big Data ni tadqiq etish va uni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda tadqiq etish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan, natijalar olingan va bu jarayon hozirgi kunda ham jadallik bilan davom ettirilmoqda. Olingan xulosalarga asoslanib ko'plab zamonaviy davlat va nodavlat tashkilotlari o'z ish faoliyati samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini saqlash va barqaror rivojlanish maqsadida Big Data texnologiyalarini o'z faoliyatlarida qo'llashni tadqiq etishmoqda.

Ushbu tadqiqot ishida Big Data, uning xususiyatlari hamda xorijlik tadqiqotchilar tomonidan hozirgi kungacha Big Data ga oid olib borilgan tadqiqotlar va ularning turli sohalarga tadqiqi tizimli tahlil qilingan. Bundan tashqari maqolada Big Data ning O'zbekiston sharoitidagi turli sohalardagi tadbiqlari, istiqbollari,

muammolari va yechimlari bo'yicha yondashuvlar keltirilgan.

2. Big Data sinfidagi ma'lumotlar va ularning xususiyatlarini tizimli tahlil qilish

XX asrning oxirlariga kelib ko'plab ma'lumotlarning raqamlashtirilishi va bu jarayon dunyo bo'ylab ko'plab davlatlar va tashkilotlar tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida XXI asrning boshlaridan boshlab juda katta hajmdagi ma'lumotlar oqimini hosil qiluvchi manbalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada bugungi kunda ushbu manbalardan hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida saqlash va qayta ishlash murakkab bo'lgan katta ma'lumotlar oqimi hosil bo'lmoqda. IBM ma'lumotlariga ko'ra, ushbu manbalardan har kuni 2,5 kvintillion ($2,5 \times 2^{60}$) bayt ma'lumot ishlab chiqarilmoqda va shuning uchun bugungi kunda dunyodagi mavjud ma'lumotlarning 90% so'nggi ikki yil ichida shakllangan deyish mumkin [1]. IDG (International Data Group) olimlari D. Reinsel, J. Gantz va J. Rydninglar o'z tadqiqot ishlarida 2018-yilda "Raqamli koinot" ning hajmi 33 Zettabaytga yetganligini va bu ko'rsatgich 2025-yilga kelib 175 Zettabaytga yetishini bashorat qilishmoqda [2].

Yuqorida aytilgan katta ma'lumotlar oqimi qanchalik katta ekanligini tushunish uchun quyidagi mexanizmni qarab o'tamiz: Yuqoridagi fikrlardan bir kunda ishlab chiqarilayotgan 2,5 kvintillion bayt ma'lumotni bir kishi ushbu ma'lumotlar saqlanayotgan serverlardan yuklab olish uchun u o'rtacha 250 Mbps (hozirgi vaqtdagi dunyo bo'yicha internetdan ma'lumot yuklab olishning eng yuqori tezligi 245,50 Mbps (<https://www.speedtest.net/> – Speedtest global indeksi, har oyda dunyo bo'ylab internet tezligi reytingi aniqlovchi dinamik sayt)) tezlik bilan ma'lumotlarni yuklab olganda ham unga 70000 yilga yaqin vaqt kerak bo'ladi.

Ma'lumotlarning bu qadar tez sur'atlarda o'sib borishi ilm-fan sohasida ushbu ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashga doir yangi "Big Data" - katta ma'lumotlar atamasining paydo bo'lishiga olib keldi. Terminning

birinchi ta'rif 1997-yilda NASA ning ikkita tadqiqotchisi Maykl Koks va Devid Ellsvort tomonidan kiritilgan, 1998-yilda Silicon Graphics Inc (SGI) tadqiqotchisi Jon R. Mashey ushbu konsepsiyadan foydalangan va bir yildan so'ng Brayson va boshqalar hisoblash mashinalari assotsiatsiyasi (ACM) uyushmasidagi kommunikatsiyalarda Big Data bo'yicha maqola chop ettirdi (1999).

"Big Data" tushunchasi uchun rasmiy ta'rif aniq berilmagan, dastlabki berilgan ta'riflarning aksariyati bu tushunchaning kelib chiqish sababiga ya'ni ma'lumotlar hajmiga asoslangan. Bu ta'riflarning ba'zilarini quyida keltirib o'tilgan.

Microsoft tadqiqotchilari Danel Fisher, Rob DeLine, Mary Czervinski, Steven Drukkerlar o'z tadqiqot ishlarida "Big Data – bu oddiy tarzda saqlash, uzatish va qayta ishlash mumkin bo'lmagan katta hajmdagi ma'lumotlar majmuasidir" deb ta'rif berishadi [3].


McKinsey Global Institute tadqiqotchilari James Manyika, Michael Chui, Brad Brown, Jacques Bughin, Richard Dobbs, Charles Roxburgh va Angela Hung Berslar o'z tadqiqot ishlarida Big Data ga quyidagicha ta'rif berishgan:

Big Data – hajmi jihatidan odatdagi ma'lumotlar bazasining dasturiy ta'minoti tomonidan olish, saqlash, boshqarish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydigan ma'lumotlar to'plamlaridir [4].

Big Data ga berilgan yana bir guruh ta'riflarda uning nafaqat hajmiga balki boshqa xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Shunday ta'riflardan birini xorijlik olimlar A.D. Mauro, M. Greco va M. Grimaldilar o'z tadqiqot ishlaridan birida quyidagicha berib o'tishadi: Big Data - bu qiymatga aylanish uchun o'ziga xos texnologiya va analitik usullarni talab qiladigan yuqori hajm, tezlik va turli-tumanlik bilan tavsiflangan axborot aktivlaridir [5]. Ushbu ta'rifda mualliflar Big Data ning uch xususiyat (3 V) ga hajm (Volume), tezlik (Velocity) va turli xillik (Variety) ega ekanligiga urg'u berishgan.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil qilingan ilmiy maqolalar va tadqiqot ishlaridan natijalariga ko'ra ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida Big Data ning aynan yuqorida aytilgan uch xususiyati (o'lchami) borligini va shu xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlar oqimini Big Data deb atashga asos bo'lishini aytishgan. Lekin bazi olimlar Big Dataning bu "3 V" xususiyatlarga qo'shimcha ravishda yana bir necha xususiyatlarini qo'shishadi. Misol uchun Jean-Pierre Dijcks va Fujitsu tadqiqotchilari I. Mitchell, M. Locke, M. Wilson, A. Fullerlar qiymatlilik (Value) [6, 7], IBM tadqiqotchilari S. Miele va R. Shockleylar ishonchlilik (Veracity) xususiyatini [8], Rossiyalik tadqiqotchilar I.A. Radchenko va I.N. Nikolaevlar ishonchlilik hamda o'zgaruvchanlik (Variability) xususiyatlarini [9], A. Gandomi va M. Haiderlar qiymatlilik, ishonchlilik xususiyatlari bilan birgalikda o'zgaruvchanlik va murakkablik (Complexity) xususiyatlarini [10], Vishnu Pendyala ishonchlilik, qiymatlilik, o'zgaruvchanlik xususiyatlari bilan birgalikda vizualizatsiya (Visualization), baholash (Valuation) va hayotiylik

(Viability) xususiyatlarini [19], V.A. Reznichenko ishonchlilik, qiymatlilik, o'zgaruvchanlik, vizualizatsiya xususiyatlaridan tashqari dolzarblilik (Volatility), yaroqlilik (Validity) va zaiflilik (Vulnerability) xususiyatlarini ham o'z tadqiqot ishlarida ko'rsatib o'tishadi [13].



1 rasm. Big Data 3V xususiyatlari

Big Dataning ushbu xususiyatlari qanday ma'no anglatishi quyida ko'rsatib o'tilgan:

Hajm (Volume). Ma'lumotlarning kiruvchi oqimi va saqlanadigan ma'lumotlar hajmini anglatadi. Ma'lumotlar hajmining kattaligi ularni Big Data deb hisoblash mumkinligining muhim ko'rsatkichidir. Xorijlik olimlar R. Elmasri, B. Navathe o'zlarining tadqiqot ishida bugungi sharoitda ma'lumotlar hajmining Big Data deb qaralish oralig'ini terabayt yoki petabaytdan ekzobaytgacha o'zgarib turishini aytib o'tishadi [14]. Lekin ko'pchilik xorijlik olimlar Big Data hajmining bu oralig'iga qat'iy chegara qo'yish haqida ilmiy fikrlar yoki xulosalar keltirishmagan. Buning sabablaridan biri har qanday faol manbada chiqayotgan ma'lumotlar bir kun kelib katta hajimli ma'lumotlarni hosil qilishi bo'lsa, ikkinchi sababi Big Data ma'lumotlarining hajmiga qo'yilgan chegara vaqti kelib o'zgarishidir. Bu haqda Fujitsu olimlari I. Mitchell, M. Locke, M. Vilson, A. Fullerlar o'z tadqiqot ishlarida shunday deyishadi: "Kechagi katta bugungi kunning normal holati. Ushbu kitobni o'qiyatgan 40 yoshdan oshganlarning bazilari, ehtimol Sinclair ZX81 - da 1 kilobaytlik xotirani qanday to'ldirishni o'ylayotganliklarini eslashadi. Big Data shunchaki ma'lumotlarning bugungi me'yordan kattaroq hajmini anglatadi" [7].

Xorijlik olimlar Paul Zikopoulos va boshqalar Big Data va uning hajm xususiyati haqida o'zlarining tadqiqot ishlarida shunday fikr bildirishadi: "Big Data atamasi biroz noto'g'ri, chunki oldindan mavjud ma'lumotlar qandaydir darajada kichik emas yoki yagona qiyinchilik uning kattaligida emas. Qisqacha aytganda, Big Data atamasi an'anaviy jarayonlar yoki vositalar

yordamida qayta ishlanib yoki tahlil qilib bo'lmaydigan ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi" [11].

Tezlik (Velocity). Big Data tezligi deganda ma'lumotlarning yaratilish (o'sish darajasi) va tahlil qilish uchun qayta ishlash tezligi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda tezlik nafaqat ma'lumotlarning bazaga kirish tezligini balki ushbu bazadan muhim ma'lumotlarni olish tezligini ham anglatadi. Odatda Big Data real vaqtda ma'lumotlarni yuqori tezlikda tahlil qilinishini talab qiladi. Buning uchun Big Data ma'lumotlarini qayta ishlash texnologiyasi ularni ma'lumotlar omboriga kirishdan oldin tahlil qilish imkoniyatini yaratishi kerak.

Tezlik amaliy foydalanish nuqtai nazridan Big Dataning eng asosiy xususiyatlaridan biridir. Fujitsu olimlari I. Mitchell, M. Locke, M. Wilson, A. Fullerlar ham o'z tadqiqot ishlarida bu g'oyanini quyidagi ikki fikrlari orqali qo'llab quvatlaydi [7]:

1) "Hozirda odamlar uchun petabayt (1 million gigabayt) katta bo'lib tuyuladi, ammo ertaga bu hajm odatiy holga va vaqt o'tishi bilan bu ham nazarimizda kichik hajmga aylanadi. Shuning uchun o'lchamni unuting – Big Data qaror qabul qilish tezligi bilan bog'liq. Biznes ma'noda Big Data – bu tezkor javoblardir".

2) "Reuters axborot agentligini 100 yildan buyon Big Data bilan shug'illanib kelayapti chunki uning biznes modeli ko'pgina manbalardagi ma'lumotlardan tegishli yangiliklarni tezlik bilan olish va kerakli odamlarga iloji boricha tezroq yetkazishga asoslangan".

Ukrainalik olim V.A. Reznichenko o'z tadqiqot ishida Big Data ma'lumotlar toifasi kuniga 100 Gb dan yuqori bo'lgan ma'lumotlar oqimlarining ko'p qismini o'z ichiga oladi deb takidlaydi [13]. Reznichenko fikridan xulosa qiladigan bo'lsak kun davomida o'rtacha sekundiga 1,19 Mbayt dan yuqori tezlik bilan ma'lumotlar oqimini hosil qiluvchi ma'lumotlar guruhini Big Data deb atash mumkin bo'ladi.

Turli xillik (Vareity) – bu turli manbalardan turli ma'lumotlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash qobiliyatidir. Ya'ni turli xillik deganda quyidagilar nazarda tutuladi:

➤ Ma'lumotlarni turli manbalardan qabul qilishiligi. Bunday manbalarga quyidagilarni misol qilish mumkin: ijtimoiy tarmoqlar, uyali aloqa tarmoqlari, audio va video kuzatuv qurimalari, metrologik ma'lumotlar manbalari, turli xildagi siganlizatsiya qurilmalari, GPS, insonlarni ro'yxatga olish hamda ular haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi, avtomatik ma'lumotlarni yig'uvchi va shu kabi manbalar.

➤ Ma'lumotlarni qabul qilish va saqlash formatlarining turli xilligi: matn, audio, video, tasvirlar.

➤ Semantik xilma-xillik. Ya'ni bir xil ma'lumotlarning turli yo'llar bilan taqdim etilishi. Misol uchun talabning besh yoki uch baho olganligi haqidagi ma'lumotning a'lo yoki qoniqarli kabi atamalar bilan taqdim etilishi.

➤ Ma'lumotlarning turli tuzilishiligi. Ma'lumotlar tuzilishiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi: 1)

tuzilgan (strukturalashgan); 2) tuzilmagan (strukturalashmagan); 3) yarim tuzilgan (yarim strukturalashgan). Tuzilgan ma'lumotlar an'anaviy relyatsion ma'lumotlar bazalarida qo'llaniladigan qat'iy shaklda taqdim etiladigan ma'lumotlarni bildiradi, bu yerda mohiyatlar aniq belgilangan atributlarga ega bo'ladi (misol uchun talaba mohiyati uchun ism, familiya, manzil atributlari mavjud bo'lsa, shunga mos jadvaldagi barcha yozuvlarning ism, familiya, manzil maydonlaridan tashqari maydonlari bo'lmaydi) va shuning uchun ham ularni nisbatan osonlikcha qidirish, toifalash, saralash mumkin bo'ladi. Ba'zi holatlarda ma'lumotlar qanday saqlanishi va boshqarilishi ma'lum bo'lmasdan oldin maxsus tarzda to'planadi. Ushbu ma'lumotlar ma'lum bir tuzilishga ega bo'lishi mumkin, ammo to'plangan barcha ma'lumotlar bir xil tuzilishga ega bo'lmaydi. Ba'zi atributlar turli xil ob'ektlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin, ammo boshqa atributlar faqat bir nechta mohiyatlarda mavjud bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi bir ob'ektlarga istalgan vaqtda qo'shimcha atributlar kiritilishi mumkin va oldindan aniq sxema ega bo'lmaydi. Ushbu turdagi ma'lumotlar yarim tuzilgan ma'lumotlar deyiladi. Tuzilmagan yoki tuzilishga ega bo'lmaydigan ma'lumotlar bu oldindan aniq belgilangan shaklga ega bo'lmagan ma'lumotlardir. Odatda bunday ma'lumotlarga bazi ma'lumotlarni o'z ichida oladigan matnli hujjatlar, internetdagi veb sahifalar, Twitter tvitlari, video, audio va tasvirli ma'lumotlar kiradi.

Turli xillik ham Big Data ning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi va ko'pchilik xorijiy olimlar tomonidan Big Data ga berilgan ta'riflarning aksariyatida bunga urg'u berilgan. Shunday ta'riflardan birini xorijlik olimlar R. Qazi, A. Sherlar o'z tadqiqot ishlarida aytib o'tishgan: "Big Data – bu tuzilmaga ega bo'lgan va tuzulmagan ma'lumotlarning juda katta hajmidir" [15].

Ishonchilik (Veracity) – bu ma'lumotlarning to'g'riligini, ishonchligini tavsiflovchi xususiyatdir. Vishnu Pendyala o'z tadqiqot ishida "Ishonchilik – Big Data dan foydalanish va undan natija olishning hal qiluvchi jihatidir" deb yozadi va ishonchilik xususiyati muhimligini takidlaydi [19]. Big Data ma'lumotlaridan foydalanish texnologiyasi puxta tanlangan va tasdiqlangan ma'lumotlarning ma'lumotlar bazasiga kirishini nazarda tutmaydi. Dastlabki ma'lumotlar "xom" bo'lishi mumkin, ya'ni ular hech qanday dastlabki ishlovlarsiz, tasodifiy va juda ko'p "shovqinlar"ni o'z ichiga olgan holda bazaga kelishi mumkin. Big Data tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etsada, uning qiymati ko'p jihatdan asl ma'lumotlarning sifatiga bog'liq. Big Data texnologiyasi ushbu xususiyatni hisobga oladi va bunday ma'lumotlar bilan ishonchli ishlashga imkon beradi.

Qiyamatlilik (Value) – bu amaliy muammolar nuqtai nazaridan uning ahamiyatlilikini tushuntiradi. Qiyamatlilik Big Dataning muhim xususiyati ekanligi haqida Ishvarappa va J. Anuradha o'z ilmiy ishlarida shunday fikr bildirishadi: "Big Data ning potensial qiymati juda katta shuning uchun qiyamatlilik katta

ma'lumotlarning eng muhim jihati" [16]. Bu haqda Azarboyjonlik tadqiqotchilar Z.T. Magerramov, V.G. Abdullaev, A.Z. Magerramovlar o'z tadqiqot ishida qiymatlilik Big Data ni yangi hodisa sifatida ajratishga imkon beradigan asosiy xususiyatidir deb takidlashadi [17].

O'zgaruvchanlik (Variability) – bu harakatdagi ma'lumotlarning vaqt o'tishi bilan har qanday o'zgarishini, shu jumladan oqim tezligini, formatini yoki tarkibining o'zgarishini anglatadi.

Dolzarblilik (Volatility) – ma'lumotlarning qancha vaqtgacha amal qilinishini va qancha vaqt saqlanishi kerakligini anglatadi. Dolzarblilik Big Dataning hajm (qancha ma'lumot saqlanishi kerak va saqlash narxi qancha?), qiymatlilik (ma'lumotlar qancha vaqtgacha dolzarb bo'lib qoladi va qiymat hosil qiladi?) xususiyatlariga va ma'lumotlarni qayta ishlash zarurligiga bog'liqdir.

Yaroqlilik (Validity). Ushbu xususiyat ishonchlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mavjud ma'lumotlarning maqsadga muvofiq ishlatilishi jihatidan qanchalik to'g'ri va noto'g'ri ekanligini tavsiflaydi [13].

Vizualizatsiya (Visualization). Ma'lumotlarning katta hajmi va murakkabligi shunchalik ulkanki, ko'plab tashkilotlar ularni tahlil qilish orqali har qanday raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun kurashadilar. Big Data turli foydalanuvchilar uchun oson tushunarli tarzda taqdim etilishi kerak. Vizualizatsiya - bu juda katta miqdordagi ma'lumotlarni tushunarli va o'qilishi mumkin bo'lgan tarzda tushunarli qilish jarayonidir.

Hayotiylik (Viability) - korxonalar uchun eng muhim natijalarni bashorat qilish ehtimoli yuqori bo'lgan xususiyatlar va omillarni sinchkovlik bilan tanlash jarayonini anglatadi. Hayotiylik xususiyatiga Vishnu Pendyala shunday ta'rif beradi: "Hayotiylik - Big Data haqida hamma narsa foydali emasligini anglatadi. Faqatgina xususiyatlarni tanlash uchun mavjud bo'lgan atributlarning hayotiylikni baholash zarur, bu qiymatni aniqlashga yordam beradi" [19].

Baholash (Valuation) - bu Big Data dan qiymatni chiqarish jarayoni. Baholash xususiyatini qiymatlilik xususiyati bilan adashtirmaslik kerak. Chunki birinchisi jarayon, ikkinchisi esa natijadir [19].

Yuqorida keltirilgan Big Data va uning xususiyatlari ta'riflaridan xulosa qiladigan bo'lsak ma'lumotlar guruhi Big Data ko'rinishiga kelganda uning hajm, tezlik va turli xillik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Big Dataning qolgan xususiyatlari odatda uni mavjudligini aniqlashda emas, undan foydalanishda yani uni qayta ishlash, tahlil qilish, natija olish va uning muhimligini aniqlash jarayonida namoyon bo'ladi. Ushbu xususiyatlarining o'zi ham Big Data va uning texnologiyalarini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda allaqachon hayotimizga kirib kelgan Big Data ni o'rganish dolzarbligi ham uning xususiyatlari kabi quyidagi ikki jihatdan namoyon bo'ladi:

1) Kundan kunga o'sib borayotgan katta hajimdagi, tezkor va turli xildagi ma'lumotlarni saqlash texnologiyalarini amaliyotga joriy etish dolzarbligi;

2) Yig'ilgan va real vaqtda ma'lumotlar bazasiga kirayotgan ma'lumotlarni tezkorlik bilan qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish orqali kundun kunga ortib borayotgan katta ma'lumotlarning bizga hali ma'lum bo'lmagan qiziqarli va foydali qirralarini kashf etish dolzarbligi.

3. Xorijiy mamlakatlarda Big Data sinfidagi ma'lumotlarning turli sohalarida qo'llanilishining tizimli tahlili

Bugungi kunda Big Data atamasining bu qadar keng qo'llanilishi Nature jurnali muharriri Klifford Linch bilan bog'liq bo'lib, u 2008 yil 3 sentabrda ingliz ilmiy jurnalining maxsus sonida "Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatlarini ochadigan texnologiyalar ilmnin kelajagiga qanday ta'sir qilishi mumkin?" savoliga javob topishga bag'ishlangan maxsus maqola tayyorlaydi. Ushbu maxsus nashrdagi ma'lumotlarning umuman ilm-fandagi va xususan elektron fanlarda tutgan o'rni haqidagi oldingi tadqiqot ishlarini tahlil qilib chiqadi.

Yuqorida aytilganidek Big Data ning birinchi ta'rifi 1997 yilda paydo bo'lgan bo'lsa, 2009 yilgacha Big Data, ma'lumotlarning o'sishi va xilma-xilligi muammosi sifatida faqat ilmiy jihatdan o'rganildi, 2009 yildan boshlab bu atama iqtisodiy muhitda keng tarqaldi. 2010 yilda Big Data ma'lumotlarini qayta ishlash muamosiga bevosita bog'liq bo'lgan dasturiy vositalar va texnologiyalar paydo bo'la boshladi. 2011 yilga kelib eng yirik IT (inglizcha: Information Technology) sotuvchilari IBM, Oracle, Microsoft, Hewlett-Packard, EMC va shu kabi kompaniyalar Big Data dan o'zlarining biznes strategiyalarida foydalana boshladilar. 2011 yil iyun McKensey "Big Data: Innovatsiya, raqobat va mahsuldorlikning keyingi chegarsi" hisobotini tayyorlagandan so'ng Big Data atrofida navbatdagi katta shov-shuylarni paydo qildi. 2012 yilda Amerika bu sohada izlanishlarni hayotga tadqiq etish uchun 4,5 milliard dollar sarmoya kiritdi. 2013 yildan ko'pgina universitetlarda Big Data fan sifatida o'tila boshlandi va hozirgi kunda dunyoning barcha rivojlangan davlatlari o'z ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvida Big Data ma'lumotlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratmoqda [13].

Bugungi kunda dunyo olimlari va IT mutaxassislari tomonidan Big Datadan foydalanish bo'yicha inson faoliyatining turli sohalarida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Misol uchun Azarboyjonlik tadqiqotchilar Z.T. Magerramov, V.G. Abdullaev va A.Z. Magerramovlar metallurgiya ishlab chiqarishda misolida **Big Data texnologiyasining sanoat korxonlari bilan aloqasini** tadqiq etishadi va o'z tadqiqot ishlarida quyidagicha fikr yuritishadi: "Sanoat korxonalarida datchiklar, o'lchash va "aqli" moslamalardan olingan ma'lumotlar tufayli ma'lumotlar miqdori doimiy ravishda o'sib bormoqda. Ma'lumotlarni real vaqtda uzata oladigan sensorlar eng istiqbolli qurilmalardir. Bunday datchiklardan foydalanadigan korxonadagi barcha qurilmalar tarmoqqa ulanishi mumkin va Big Data texnologiyalari sizga keladigan ma'lumotlarni

qayta ishlashga va avtomatik rejimda zarur choralarni ko'rishga imkon beradi. Masalan, korxonalar datchiklardan o'z jihozlarining ahvoli to'g'risida daqiqali ma'lumot olishlari va shu ma'lumotlarga asoslanib, almashtirish va texnik xizmat ko'rsatish uchun maqbul vaqtni taxmin qilishlari mumkin. Juda erta almashtirish qo'shimcha xarajatlarga olib keladi, kech almashtirish esa uskunaning ishlamay qolishi sababli yo'qotilgan foydani keltirib chiqaradi. Big Data texnologiyasidan foydalanish natijasida axborotlarni qayta ishlash ishlab chiqarish, logistika va menejmentda narxini pasaytirish shaklida sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkin" [17].

Xitoylik olimlar S. Zang, Ye. Maolinlar esa o'z tadqiqot ishlarida **Big Data texnologiyalari yordamida xodimlarni ishga jalb qilish va ularni lavozimga qabul qilish hamda iqtidorlarni o'qitish va baholash** masalalarini qarab o'tishadi va tadqiqot ishining xulosasida shunday fikr bildirishadi: "Big Data inson resurslari uchun yangi usullar va g'oyalarni taqdim etsada, tashkilotlarda bu sohaga oid kamchiliklar mavjud. Big Data kompaniyalariga xizmat ko'rsatishi va inson resurslarini yaxshi boshqarishi uchun Big Data afzalliklaridan to'liq foydalanishiga harakat qilishi kerak" [20].

Misirlik tadqiqotchi R.R. Osman esa **Big Data dan kutubxona faoliyatida foydalanish** imkoniyatlari va muammolari haqida ilmiy izlanish olib boradi.

X. Zheng, V. Chen va boshqalar **ijtimoiy transportni boshqarish va nazorat qilishda Big Data ma'lumotlari foydalanish** haqida tadqiqotlar o'tkazishadi [22].

Rossiyalik tadqiqotchi Olga Sergeevna Moskva aholisi migratsiyasini aniqlashda **Big Data dan foydalanish** haqida tadqiqot olib boradi va shunday fikr bildiradi: "Big Data dan foydalanish Moskva aholisining haqiqiy sonini aniqlashtirishga, migrantlar to'g'risida ma'lumot olishga va kelajakda shaharsozlik faoliyatini yanada oqilona rejalashtirishga imkon beradi" [23].

Xorijlik tadqiqotchilar P. Corbett, M. Schroeck va R. Shockleylar **Big Dataning sug'urta sohasidagi o'rnini** tadqiq etishadi va sug'urta kompaniyalari raqobatlashish uchun zarur bo'lgan yangi bozorlarni egallashi uchun tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan yangi va mavjud ma'lumotlarning hajmi, tezligi va xilma-xilligini samarali boshqarish va tahlil qilish kerakligini takidlashadi [24].

Xorijlik olimlar S.A. Drigas, P. Leliopouloslar **ta'limda Big Data dan foydalanish** bo'yicha tadqiqot olib borishadi va Big Data hamda Ochiq ma'lumotlar texnologiyalari ta'limga qanday ta'sir qilishi mumkinligini tahlil qilishadi hamda an'anaviy qiyinchiliklarni chetlab o'tish va yangi ta'lim usulini ochish uchun yangi vositalar va usullarni taqdim etishadi.

Big Data ko'plab sohalarda qo'llanilishi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilayotgani kabi ta'lim sohasida ham uni qo'llash bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Shunday xorijiy olimlardan U.V. Gvozdenko, A.A. Ishchenko, A.V. Pilipenkolar o'z tadqiqot ishlarida ta'limda sohasida Big Data tipidagi

quyidagi besh turdagi ma'lumotlardan foydalanishni takidlashadi:

- Shaxsiy ma'lumotlar;
- O'quvchilarning elektron ta'lim tizimlari va bir-biri bilan o'zaro aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlar (elektron darsliklar, onlayn kurslar, tizimdan chiqish tezligi, sahifalarni ko'rish tezligi, orqaga qaytish, havolalar soni, havolalar masofasi, bitta foydalanuvchi tomonidan sahifalarni ko'rish soni va boshqalar);
- O'quv materiallarining samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlar (talabning qaysi turi tarkibning qaysi qismi bilan o'zaro aloqada bo'lishi, o'zaro ta'sir natijalari, ta'lim natijalari va boshqalar);
- Ma'muriy (tizim bo'yicha) ma'lumotlar (davomat, kasalligi sababli darsga kelmaslik, o'tkazilgan darslar soni va boshqalar);
- Bashoratli (taxmin qilingan) ma'lumotlar (talabning ma'lum bir faoliyatda ishtirok etish ehtimoli qanday, topshiriqni bajarish ehtimoli qanday va boshqalar).

Big Data texnologiyalari keng qo'llanilayotgan va ko'plab davlatlar tomonidan qo'llab quvvatlanayotgan sohalardan biri bu tibbiyotdir. Rossiyalik tadqiqotchilar L.A. Svetkova, O.V. Cherchenko **tibbiyotda Big Data ni tashkil etuvchi ma'lumotlar manbai** deb quyidagilarni ko'rsatishadi:

- turli xil ixtisosliklar bo'yicha qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi klinik ma'lumotlar (diagnostika, prognostik, bemorlarni parvarish qilish va boshqalar);
- kuzatuv datchiklari va yozib olish qurilmalaridan yozib olingan ma'lumotlar;
- mutaxassis tomonidan ishlab chiqarilgan aniq ko'rsatkichlar, yozma eslatmalar va tibbiy retseptlari;
- ovoz yozuvlari va vizual tasvirlar;
- ixtisoslashtirilgan tadqiqotlar ma'lumotlari;
- tibbiy mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- shoshilinch tibbiy yordam to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ma'muriy va pasport ma'lumotlari;
- sug'urta va tibbiy sug'urta to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ijtimoiy tarmoqlardagi nashrlar, shu jumladan Twitter-sahifalaridagi, bloglardagi, Facebook va boshqa platformalar veb-sahifalardagi ma'lumotlar;
- muqobil tibbiyot usullaridan foydalanish va sog'liqni saqlash va tibbiy tashabbuslarning noprofessional usullaridan foydalanish tajribalari va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ijtimoiy tibbiyot, sog'liqni saqlash, sog'liqni saqlash bozori, siyosat va madaniyat sohasidagi normativ va qonunchilik hujjatlari;
- tibbiyot fanlari ma'lumotlari.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki dunyo bo'yicha ham davlat ham nodavlat tashkilotlari tomonidan Big Data eng ko'p tadqiq va tadbir etilayotgan soha bu biznesdir. Big Data biznesda ko'p qo'llanilishiga asosiy sabab shundaki biznesda Big Data texnologiyalaridan foydalanish yani savdo-sotiq hamda mijozlar va ularning xatti-harakatlari bilan bog'liq katta ma'lumotlarni bilish va

ularni tahlil qilish quyidagi vazifalarni real dunyoda hal qilishga imkonini beradi [17]:

- mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini baholash;
- mijozlar ishonchini oshirishning yangi usullarini topish va amalga oshirish;
- marketing va sotishni optimallashtirish;
- mijozlarni samarali segmentlashtirish;
- tovar va xizmatlar sifatini yaxshilash;
- Big Data tahlillari asosida yanada oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- xarajatlarni minimallashtirish;
- investitsiyani optimallashtirish;
- mehnat unumdorligini oshirish.

4. O'zbekistonda Big Data va uning turli sohalardagi istiqbollari

O'zbek tadqiqotchilari tomonidan katta ma'lumotlar deb nomlanadigan Big Data atamasi va uning qo'llanilishi yuzasidan O'zbekistonda olib borilgan tadqiqot ishlari xorijiy mamlakatlarga nisbatan bir qancha oz ko'zga tashlanadi. Buni Google Trends (Google Trends - bu eng mashhur qidiruv so'zlarini ko'rib chiqadigan va baholaydigan dinamik veb-sayt) statistikalaridan ham ko'rish mumkin. Ushbu veb sayt statistikasiga ko'ra O'zbekistonda Big Data ga qiziqish 100 pog'onali baholash ko'rsatkichidan quyidan 7 bahoga to'g'ri keladi. Bu esa xorijiy mamlakatlarga nisbatan olganda past ko'rsatkich hisoblanib dunyo bo'yicha 148 ta mamlakatdan 141 o'ringa to'g'ri keladi (Ushbu statistika 15 iyun 2021 yil holatiga ko'ra olingan).

Albatta O'zbekistonda bu soha bo'yicha olib borilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqot ishlarining shu vaqtgacha kam uchrashiga bir nechta sabablar bor. Shunday sabablardan eng asosiysi O'zbekiston muhitida Big Data va uning texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojning pastligi yani biz Big Data deb ataydigan ma'lumotlar oqimining mavjud emas deb qaralishi bo'lgan. Lekin shuni takidlab o'tish kerakki Big Data allaqachon O'zbekistonda va ko'plab sohalarda uning imkoniyatlaridan foydalanish ehtiyojlari ko'zga tashlanmoqda. Bundan tashqari 2020 yil 28 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”** gi qarori va 2020 yil 5 oktabrdagi **“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”** gi farmoni qabul qilinishi va uning amaliyotga joriy etilishi natijasida kelajakda barcha sohalarda ma'lumotlar oqimining keskin ortishiga olib keladi. Bu o'z navbatida Big Data texnologiyalarni sohalarda tadqiq va tadbir etish dolzarbligini ko'rsatadi.

Ushbu bobda O'zbekiston sharoitida Big Data va uning texnologiyalaridan turli sohalarda foydalanish istiqbollari haqida so'z yuritiladi.

Yuqorida aytilganidek O'zbekistonda so'ngi yillarda raqamli texnologiyalar sohasiga bo'lgan e'tiborning kuchaytirilishi va ko'plab sohalarda

raqamlashtirish ishlarining jadallashtirilishi sababli Big Data tipidagi ma'lumotlar yurtimizda allaqachon turli sohalarda ko'zga tashlanmoqda. Bunday sohalarga quyidagilarni misol qilib aytishimiz mumkin: Ta'lim sohasi, tibbiyot sohasi, transport va yo'l nazorati sohasi, mahalla va hokimyat kabi boshqaruv sohalari va albatta iqtisodiyot sohalari.

O'zbekistonda ta'lim sohasida Big Data.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi ma'lumotlar oqimida allqachon Big Data xususiyatlari paydo bo'la boshladi. O'tgan 2019-2020 o'quv yili so'ngida pandemiya sababli Respublikamiz oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 119 ta oliy ta'lim muassasalarida 424,9 ming dan ziyod bakalavriyat bosqichi talabalari 15 mingdan ziyod magistratura bosqichi talabalari barchasi masofaviy o'qitish platformalarida, 6119440 ta maktab o'quvchilarining telegram va shu kabi ijtimoiy tarmoq vositalari orqali ta'lim olish natijasida katta hajimdagi turli tipli ma'lumotlar oqimi yuzaga keldi. Bugungi kunda ham bakalavriyat bosqichi talabalari va magistrantlar an'anaviy dars jarayoniga qaytgan bo'lsa-da hali ham masofaviy ta'lim platformalarida ma'lumotlar almashish davom etmoqda. Bundan tashqari 2020-2021-o'quv yilidan kredit modul tizimiga o'tgan ko'plab oliy ta'lim muassasalari yagona ta'lim platformasi “Hemis” tizimidan foydalanishni boshladi. Buning natijasida kelajakda ushbu va shu kabi platformalarda ma'lumotlar hajmi va ularni (real vaqtda) tahlil qilish bilan bog'liq muammolar hosil bo'lishi mumkin. Albatta Big Data bizning oldimizga bir qancha muammolarni qo'yishi bilan birga ta'lim sohasini yangi rivojlangan bosqichga olib chiqaradigan quyidagi imkoniyatlarni ham yaratadi:

- O'quvchilarning ishlash ko'rsatkichlari va xulq-atvorini yanada to'liqroq o'rganish orqali o'quvchilarni yaxshiroq tushinish;
- har qanday anomalialar kuzatilsa, o'z vaqtida aralashish imkoniyatini yaratib, o'quvchilarning ta'lim davomida rivojlanishini kuzatib borish;
- o'quvchilarni kamsitmasdan yoki izolyatsiya qilmasdan yoki ularni tengdoshlari oldida uyaltirmasdan tuzatuvchi yordam ko'rsatish uchun har bir talaba uchun moslashtirilgan tarkib va o'quv metodikasini ishlab chiqish;
- talabalarining standartlashtirilgan testlarda qanday ishlashini taxmin qilish (ya'ni bashoratli tahlil);
- o'quv metodikasi qaysi talabalar uchun eng mos kelishini va moslashtirilgan o'qitishni ta'minlash (ya'ni diagnostik baholash);
- talabalarining ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradigan real vaqt rejimida fikr-mulohazalar almashish;
- moslashuvchan sinovlarni o'tkazish;
- ta'limni boshqarish va o'quv dasturlarini boshqarish kabi tizimlarni birlashtirish;
- turli xil ma'lumot manbalariga ko'ra, masalan, kurs yozuvlari, talabalarining davomatlari, darslar ro'yxati, dasturda qatnashish, darajaga erishish, intizom yozuvlari va test natijalariga ko'ra o'quvchilarni ishga

qabul qilish, ma'muriy va ilmiy tadqiqotlarni boshqarish samaradorligini oshirishi mumkin.

O'zbekistonda tibbiyot sohasida Big Data. Yuqorida takidlanganidek ko'pchilik davlatlar tomonidan Big Data eng ko'p tadbiiq e'tilishi qo'llab quvvatlanayotgan soha bu tibbiyotdir. O'zbekistonda ham bunga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, sohada raqamlashtirish siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydigan asosiy hujjatlaridan biri "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qaroriga muvofiq 2020-2022 yil ichida sog'liqni saqlash sohasida jami 12 ta loyihani amalga oshirilishi rejalashtirilgan bulardan asosiy lari quyidagilardir:

➤ **"Yagona elektron tibbiy karta"** - fuqarolar to'g'risida yagona tibbiy ma'lumotlar bazasini shakllantirishga, aholining salomatligi monitoringini o'tkazishda yordam beradigan elektron tizim;

➤ **"Elektron retsept"** - tibbiy vositalarining nazorat qilish va monitoring olib borish tizimini takomillashtirishga ko'mak beradigan axborot tizimi;

➤ **"Elektron poliklinika"** va **"Elektron shifoxona"** - tibbiyot muassasalarida tibbiyot xizmatlarining sifatini oshirishga yordam beruvchi axborot tizimlari;

➤ **"Laboratoriya"** - tahlil, suratlar va boshqa natijalarning yagona elektron reestrini shakllantirishga yo'naltirilgan axborot tizimi (sog'liqni saqlash sohasida ilmiy tadqiqot va izlanishlarni olib borish uchun ilmiy-amaliy baza);


➤ **Majburiy tibbiy sug'urta** axborot tizimi.

Bu tizimlardan hozirgi vaqtda Respublikamizdagi 423 ta birlamchi tibbiyot muassasalari allaqachon «Elektron poliklinika» axborot tizimiga ulangan. Albatta bu tizimlarda vaqt o'tishi bilan katta hajimdagi ma'lumotlar to'planadi va katta hajimdagi ma'lumotlar oqimi hosil bo'ladi. Sohada katta ma'lumotlar bu katta imkoniyatlardir. Lekin shuni ham takidlash kerakki bu tizimlardagi ma'lumotlardan foydalanish sohani bir tomonlama tadbiiq etish imkoniyatini beradi. Yanada natijalarni kafolatlash va fuqorolar salomatligini mustahkamlash chora tadbirlarini kuchaytirish uchun nafaqat bu tizimlardagi ma'lumotlardan balki insonlar, bemorlar kundalik hayotini yanada yoritib beradigan ularning ijtimoiy tarmoqlardagi harakatlarini aks ettiradigan ma'lumotlardan ham foydalanish kerak bo'ladi. Bu ikki manbadagi ma'lumotlar oqimidan foydalanish sohada Big Data texnologiyalaridan foydalanish zaruratini oshiradi.

O'zbekistonda transport va yo'l nazorati sohasida Big Data. Bugungi kunda ma'lumotlar hajmining keskin oshishiga asosiy sabablardan biri bu ma'lumot turlarining ko'payishidir. Eng katta hajimli ma'lumotlar esa odatda tasvirli va video formatli ma'lumotlardir. Ushbu formatdagi ma'lumotlardan keng foydalaniladigan soha bu albatta transport va yo'l nazorati sohasidir. Sohada ushbu turdagi ma'lumotlar manbai esa yo'l va trafik holatini kuzatuchi kameralar hamda radarlardir. O'zbekistonda ham bugungi kunda yo'l harakatini kuzatishda, yo'l harakati

qoidabuzarliklarini aniqlashda ushbu qurilmalardan keng foydalanilmoqda va ular sonini oshirish maqsadida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shunday ishlardan biri 2021 yil 1 martdan boshlab, tadbirkorlik sub'ektlariga avtomobil yo'llarida yo'l harakati buzilganini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video dasturiy texnik vositalar o'rnatish huquqi berilishi bo'ldi. Bunga ko'ra, 2021–2022 yillarda respublika bo'yicha jami 3356 ta intellektual videokamera hamda 763 ta statsionar radarlar auktsion asosida o'rnatilishi rejalashtirilgan. Bunday ma'lumotlar manbalarining ko'payishi sohada ham mavjud katta ma'lumotlar oqimining yanada oshishiga olib keladi.

Kuzatuv kameralari yordamida hosil qilingan video ma'lumotlar katta hajimdagi strukturalanmagan ma'lumotlar toifasiga kirib ularni qayta ishlash bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Bazida bu video ma'lumotlarning real vaqtda tahlil qilish zarurati tug'iladi. Bunday vaziyatda Big Data texnologiyalaridan foydalanish as qotadi. Ya'ni ma'lumotlarni saqlashdan oldin ularni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish kerak bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Video ma'lumotlardan strukturalangan ma'lumotlar ajratish jarayoni

2-rasmda tasvirlangan jarayonning 1-bosqichida kuzatuv kamerasidan strukturalanmagan ya'ni video ma'lumotlar olinadi, 2-bosqichda real vaqt rejimida 1- bosqichdan olingan video ma'lumotlardan kerakli ma'lumotlar (misol uchun avtomobil raqami, turi, rangi va shu kabi avtomobilni identifikatsiyalovchi ma'lumotlar) ajratib olinadi, 3- bosqichda ajratilgan ma'lumotlar va dastlabki ma'lumotlar alohida alohida serverlarga (misol uchun dastlabki video ma'lumot to'laligicha a serverga, avtomobillar haqidagi ma'lumotlar b serverga va kuzatuv kamerasi hamda vaqtni aniqlovchi ma'lumotlar c serverga) joylanadi. a serverdagi ma'lumotlardan hozirgi kunda ham qoidabuzarlikni tahlil qilish maqsadida foydalanishadi va odatda uzoq vaqt saqlash imkoniyati mavjud bo'lmaganligi sababli ma'lum muddatdan so'ng o'chirilib yuboriladi. b va c serverdagi ma'lumotlar katta hajim egallamaganligi va strukturalanganligi uchun ulardan real vaqt rejimida yoki biror davr oralig'idagi trafik holati yoki shunga o'xshash ma'lumotlar tahlilida foydalansa bo'ladi. Bu ma'lumotlar tahlili natijalaridan o'z navbatida ham oddiy fuqorolar ham hukumat a'zolariga foydali ma'lumotlar qazib olish mumkin bo'ladi. Ya'ni oddiy fuqorolar real vaqt rejimidagi tahlil asosida trafikdagi tirbandliklar

haqida ma'lumotlarga ega bo'lishsa, hukumat a'zolari uzoq vaqt davomida yig'ilgan ma'lumotlar asosida yo'l harakatini optimal boshqarish rejalarini ishlab chiqishlari mumkin bo'ladi.

Albatta sohada ma'lumotlar manbaiga faqatgina kuzatuv kameralari yoki radarlar kirmaydi, bulardan tashqari sohadagi tadbir e'tilishi muhim bo'lgan ma'lumotlar manbaiga GPS ma'lumotlari, ijtimoiy tarmoqlardagi trafik holati bilan bog'liq bo'lgan postlar, taksi xizmatiga qo'ng'iroqlar, jomoat transportidan foydalanishda elektron to'lovlardan qoldirilgan ma'lumotlar, ob-havo ma'lumotlari va shu kabi ma'lumotlar manbalari kiradi.

Big Data an'anaviy ma'lumotlardan farqli o'laroq, ilgari e'tiborga olinmagan munosabatlarni aniqlashda, ko'p sonli bazan o'zaro bog'liq bo'lmagan ma'lumotlar manbalaridan foydalanadi. Bu esa barcha sohalarda yangi optimal yechilmalar beradi. Xuddi shunday transport va yo'l nazorati sohasida oddiygina GPS ma'lumotlari hamda kuzatuv kameralari asosida olingan ma'lumotlar asosida trafikdagi yo'l harakatini yanada optimallashtirish mumkin. GPS ma'lumotlaridan odatda foydalanuvchilar faqatgina eng qisqa yo'llarni aniqlashda foydalanishadi, lekin bazan qisqa yo'llar avtomobillar ko'pligi va baxtsiz hodisalar tufayli tirband bo'ladi yoki tamirlash tufayli yopiq bo'lishi mumkin bo'ladi. Bunday vaqtda GPS, kuzatuv kameralari va ijtimoiy tarmoqdagi yo'l holati haqidagi ma'lumotlarni birlashtirish orqali optimal yechimlarni topish mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda Big Data tipidagi ma'lumotlardan mahalla faoliyatida fuqarolar migratsiyasi va ularni ijtimoiy himoyalash maqsadida foydalanish.

O'zbekistonda fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining eng kichik biriligi bu mahalladir. O'zbekistondagi har bir fuqoro qaysidir mahallaga qarashlidir va ushbu fuqoro haqidagi deyarli barcha ma'lumotlar ushbu mahalla hodimlarida mavjud bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki fuqorolar ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqidagi to'g'ri va to'liq ma'lumotlarni mahallalar orqali yig'ish maqsadga muvofiqdir. Mahallalarda hozirgi kunda ham fuqorolar haqidagi ma'lumotlar mavjud, lekin ularning aksariyati yagona elektron tizimga birlashtirilgan bo'lsa bazilari elektron holatda mavjud emas. Mahallalarda fuqorolar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar yagona elektron tizimga birlashtirilishi natijasida ham Big Data tipidagi ma'lumotlar oqimi hosil bo'lishiga olib keladi. Bir qarashda bu sohadagi ma'lumotlar kichikdek tuyiladi, lekin respublika miqyosidagi 9168 ta fuqorolar yig'inidagi 34 milliondan ortiq aholi haqidagi ma'lumotlar bazalarini bir tizimga birlashtiradigan bo'lsak bu tizimda ham an'anaviy tizimlar yordamida saqlash va qayta ishlash murakkab bo'lib qoladi va bu yerda ham Big Data texnologiyalaridan foydalanish masalaning to'g'ri yechimini beradi. Ushbu tizimda yig'ildigan fuqorolar haqidagi ma'lumotlar asosida yuqori boshqaruv organlari hodimlari respublika

miqyosida fuqorolarni ijtimoiy himoya qilish choralarini ishlab chiqishi, hamda migratsiya ma'lumotlari asosida mahallalar va shaharsozlik infrastrukturasi rejalashtirish mumkin bo'ladi.

5. O'zbekistonda Big Data tipidagi ma'lumotlarni qayta ishlash muammolari va ularning yechimlari

Hozirgi kunda Big Data tipidagi ma'lumotlar oqimi O'zbekistondagi ko'pchilik sohalarda mavjud va ularni an'anaviy texnologiyalar asosida qayta ishlash insonlarning kundalik ish faoliyatida qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bundan tashqari juda ko'plab kundalik hayotimizdagi asl qiymati ochib berilmagan qimmatli ma'lumotlar e'tiborsiz qoldirilmoqda yoki o'chirib yuborilmoqda. Balki bu qimmatli ma'lumotlar rivojlanayotgan O'zbekistonni yanada rivoj topishida va dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shishiga sababchi bo'lishi ham mumkin. Buni aniqlash uchun barcha sohalarda Big Data texnologiyalaridan foydalanish va ma'lumotlar oqimini to'g'ri nazorat qilish kerak bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida bugungi kunda Big Data tipidagi ma'lumotlarni qayta ishlash va natijalar olish borasida ham texnik, ham dasturiy jihatdan muammolar mavjud bo'lib bu muammolarni hal etishda quyidagi yechimlarni taklif etiladi:

a) texnik jihatdan muammolarni hal etish uchun:

➤ katta hajimli ma'lumotlarni saqlash va tezkor qayta ishlash imkonini beruvchi serverlarni barcha hududlarda o'rnatish;

➤ ma'lumotlarning tezkor olishni va uzatishini taminlash maqsadida tezkor aloqa kanallarini yotqizish;

b) dasturiy jihatdan muammolarni hal etish uchun:

➤ o'rnatilgan serverlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni taminlash va aksincha bir server biror sabab tufayli ishlamaganda uning o'rnini boshqasi bosishini taminlash maqsadida serverlarni tarqatilgan fayl tizimi asosida birlashtirish;

➤ turli tipli va turli manbalardan keladigan ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash ya'ni qimmatli ma'lumotlarni ajratib olish mavjud algoritmlarini o'rganib chiqish, takomillashtirish va tadbir etish;

➤ katta hajimli ma'lumotlarni qayta ishlash va berilgan so'rovlarga tezkor javob olish maqsadida mavjud algoritmlarni o'rganib chiqish, takomillashtirish va tadbir etish;

➤ katta hajimli ma'lumotlardan ajratib olinadigan qimmatli ma'lumotlarning ishonchligini oshirish mavjud usul va algoritmlarini o'rganib chiqish, takomillashtirish va tadbir etish;

➤ tizimlardagi katta hajimli ma'lumotlar xavsizligini taminlashning mavjud usul va algoritmlarini o'rganib chiqish, takomillashtirish va tadbir etish.

Yuqoridagilardan tashqari Big Data texnologiyalaridan joriy etish va foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida ushbu soha ishlovchi hodimlar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

6. Xulosa

Bajarilgan tadqiqot ishi Big Data, uning xususiyatlari hamda uning xorijiy mamlakatlarda va O'zbekistondagi qo'llanish sohalari imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki Big Data va uning sohalardagi tadbiri keng miqyosda o'rganilayotgan bo'lsada Big Dataga hanzuzgacha rasmiy ta'rif berilmagan. Lekin Big Data bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning uchdan ikki qismida Big Dataga turli ta'riflar berilgan [13]. Rasmiy, yagona tarifning yo'qligi hali Big Data bo'yicha izlanishlarning davom etishini bildiradi. Mavjud ta'riflarning aksariyatidan kelib chiqib aytiladigan bo'lsa, Big Data katta miqdordagi ma'lumotlar oqimiga ishora qilib an'anaviy IT va dasturiy ta'minot va apparat vositalari tomonidan qisqa vaqt ichida qabul qilinishi, boshqarilishi va qayta ishlanishi mumkin bo'lmagan turli xildagi ma'lumotlar to'plamlarini nazarda tutadi.

Sohalardagi ma'lumotlarning raqamlashtirilishining jadallashuvi va ushbu ma'lumotlarni qayta ishlash ehtiyojlarining oshishi sababli Big Data texnologiyalarining barcha sohalardagi tadqiqot ishlarining jadallashuviga olib keldi. Buning natijasida xorijlik olimlar, tadqiqotchilar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilmoqda va Big Data ning turli sohalarda kelajakda tutadigan o'rni hamda vazifalarini aniqlab bermoqda. Bu vazifalar barcha sohalarda bo'layotgan turli jarayonlar haqidagi quyidagi savollarga javob olish imkonini beradi:

- jarayonlar qay tarzda yuz berganligiga;
- u nima sabablarga ko'ra ro'y berganligiga;
- jarayonlar kuzatuv asosida bashorat qilish imkonini beradi;
- kelgusida bajarilishi kerak bo'lgan amallar haqida ko'rsatma beradi;
- qaralayotgan jarayonlarda ma'lumotlar ishonchligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham Big Data tipidagi ma'lumotlar oqimlari bir qancha sohalarda namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari O'zbekistonda ham ma'lumotlarni raqamlashtirishga bo'lgan e'tiborning oshishi sababli ko'plab sohalardagi ma'lumotlar oqimining keskin oshishi kutilmoqda. Bu esa o'z navbatida sohalarda Big Data texnologiyalarini joriy e'tish talabini qo'yadi. Shuni takidlab o'tish kerakki ma'lumotlar hajmining oshib borishi sababli sohalarda Big Data texnologiyalarining qo'llanilmasligi raqamlashtirilishdan kutilayotgan natijalarga erishib bo'lmastigiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Kubina, M. Varmus, I. Kubinova "Use of big data for competitive advantage of company", *Procedia Economics and Finance* 26 (2015), 561 – 565 b.
2. D. Reinsel, J. Gantz va J. Rydning "The Digitization of the World from Edge to Core", *International Data Corporation*, November 2018.
3. D. Fisher, R. DeLine, M. Czerwinski, S. Drucker, "Interactions with Big Data Analytics", *Interactions* 2012.

4. J. Manyika, M. Chui, B. Brown, J. Bughin, R. Dobbs, Ch. Roxburgh, A. H. Byers "Big Data: The next Frontier for Innovation, Competition, and Productivity", *McKinsey Global Institute*, May 2011

5. A.D. Mauro, M. Greco, and M. Grimaldi, "What is Big Data? A Consensual Definition and a Review of Key Research Topics" *International Conference on Integrated Information*, 2015.

6. J.P. Dijcks, "Big Data for the Enterprise", *Oracle report* (2012).

7. I. Mitchell, M. Locke, M. Wilson, A. Fuller, "Big Data. The definitive guide to the revolution in business analytics", *THE WHITE BOOK OF...* 2012.

8. S. Miele, R. Shockley, "Analytics: The real-world use of big data", *IBM report*, April 2013.

9. И.А. Радченко, И.Н. Николаев "Технологии и инфраструктура Big Data" - СПб: Университет ИТМО, 2018. - 52 с.

10. A. Gandomi, M. Haider "Beyond the hype: Big data concepts, methods, and analytics", *International Journal of Information Management* 35 (2015) 137-144

11. Ch. Eaton, D. deRoos, T. Deutsch, G. Lapis, P. Zikopoulos, "Understanding Big Data: Analytics for Enterprise Class Hadoop and Streaming Data", *The McGraw-Hill Companies*, 2012.

12. A.R. Akhatov, F.F. Meliyev F.M. Nazarov "Development of Models and Algorithms for Improving the Reliability of Transfer of Information Based on the Application of Cryptographic Methods to the Distributed Register Technology" *International Journal of Control and Automation*, Vol. 13, №2, 2020, Australia. pp. 1118-1129

13. В.А. Резниченко, "Что такое Big Data", *Проблемы програмування* 2019. № 3, 86-100 с.

14. R. Elmasri, B. Navathe, "Fundamentals of Database Systems", *Pearson* 2016.

15. R.U. Rehman Qazi, A. Sher "Big Data Applications in Businesses: An Overview", *The International Technology Management Review*, Vol. 6 (2016), № 2, 50-63

16. Ishwarappa, J. Anuradha "A Brief Introduction on Big Data 5 Vs Characteristics and Hadoop Technology", *Procedia Computer Science* 48 (2015) 319 – 324

17. З.Т. Магеррамов, В.Г. Абдуллаев, А.З. Магеррамова "BIG DATA: проблемы, методы анализа, алгоритмы", *РИ*, 2017, №3

18. А.Р. Ахатов, Ф.Назаров, "Методы реализации блокчейн на основе криптографической защиты для системы обработки данных с ограничением и запаздыванием в электронном документообороте", *Вестник компьютерных и информационных технологий - международный научный журнал*. Москва. ООО Издательский дом «Спектр» 2019 й. №10. [3-12] с.

19. V. Pendyala, "Veracity of Big Data", *San Jose, California, USA*, 2018

20. S. Zang, M. Ye, "Human Resource Management in the Era of Big Data", *Journal of Human Resource and Sustainability Studies*, 2015, 3, 41-45

21. A.R. Akhatov, F.F. Meliyev F.M. Nazarov “Algorithms for data reliability based on a cryptographic distributed database (blockchain)” Scientific journal Samarkand state university №3 (121). 2020. [98-103] p.

22. X. Zheng, W. Chen, P. Wang, D. Shen, S. Chen, X. Wang, Q. Zhang, L. Yang, “Big Data for Social Transportation”, IEEE Transactions on intelligent transportation systems, vol. 17, no. 3. March 2016

23. О.С. Чудиновских “Болшие данные и статистика миграции”, Вопросы статистики. 2018. Т. 25. № 2. С. 48-56

24. P. Corbett, M. Schroeck and R. Shockley “Analytics: The real-world use of big data in insurance”, IBM Institute for Business Value.

25. А.Р. Ахатов, Ф.Назаров, “Модель шифрования для обеспечения достоверности данных на основе технологии блокчейн в системах электронного документооборота” «GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2018: CENTRAL ASIA» Международной научно-практической конференции. Республика Казахстан 2018. [602-605] б

Akhatov Akmal Rustamovich

Samarkand State University, Dr. Sc., Tech., Professor.
akmalar@rambler.ru

Rashidov Akbar Ergash o'g'li

Samarkand State University, assistant,
researcher.are@gmail.com

Akhatov A.R., Rashidov A.E.

Big Data and its application in various fields

Nowadays, the increase in data flow and the volume of data to be processed requires the storage and processing of this data in an unusual way. As a result, treating data in information systems designed to process large amounts of data as Big Data and processing it based on Big Data algorithms leads to some efficiencies. One of the main tasks is the organization of automated management of socio-economic processes, the development of algorithms for processing data in automated systems as Big Data, as well as providing the reliability of data in the Big Data class. In this study, the characteristics of large data and the degree of study of large data are systematically analyzed. Problems encountered in large volumes of data and approaches to solve these problems are described in detail. Therefore, the development and application of large-scale data processing models and algorithms for large-scale data processing have not been fully studied and it assigns the current research tasks.

Keywords. Information systems, data flow, Big Data, 3V properties, data diversity, diversity of data sources, data reliability, variability, visualization, structured and unstructured data, digitization, Big Data in Uzbekistan.

UDK 681.62.50

Sarbolayev F.N., Usmanov K.I., Islomova F.K.

Davriy rejimda ishlovchi kimyoviy reaktorning avtomatik boshqarish tizimini shakllantirish.

Maqolada davriy rejimda ishlovchi kimyoviy reaktordagi texnologik jarayonni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini ishlab chiqarish vazifasi qo'yilgan. Tizimli yondoshuv asosida kimyoviy reaktorni boshqarish obyekti sifatida analiz masalasi yechilib, reaktorni boshqarish obyekti sifatida tizimli tahlil qilishning bosqichlari va vazifalari aniqlandi. Tizimli tahlil masalalarini murakkabligi obyektlarning ko'p o'lchamliligi, nochiziqiligi va ko'pbog'lamliligi bilan xarakterlanadi. Obyektning konseptual va matematik modeli ishlab chiqildi. Unumdorlikni berilgan qiymatini ta'minlaydigan optimal statik rejimdagi kirish va holat o'zgaruvchilarining qiymatlari aniqlandi. Reaktorning dinamik xususiyatlari turli kanallar bo'ylab egri chiziqlarni qurish orqali o'rganildi. Reaktorni turli topologik struktura ko'rinishdagi boshqarish tizimlari taklif etildi. Boshqaruv ob'ekti sifatida davriy reaktor olinib, asosiy jarayonlarning analitik modeli ishlab chiqilgan. Ob'ektni o'tish xarakteristikalari orqali modellashtirish o'tkazilib, uning uzatish funksiyasini olish uchun identifikatsiya qilish amalga oshiriladi. PI regulyator yordamida bir kontur sifatida davriy reaktorni avtomatik boshqarish tizimi ishlab chiqilgan. Modellashtirish natijalari sintez qilingan tizimning samaradorligini, tartibga solishning sifat ko'rsatkichlari texnik shartlarning talablariga javob berishini isbotladi.

Kalit so'zlar: Kimyoviy reaktor, matematik model, Matlab, Simulink, Avtomatik boshqarish tizimi, Boshqarish obyekti, Matematik modellashtirish, Identifikatsiyalash, PID roslagich.

Kirish. Ishlab chiqarishning turli sohalarida, xar-hil kimyo-texnologik jarayonlarda kimyoviy reaktorlar keng qo'llaniladi. Kimyoviy reaktorlardan chiqayotgan mahsulotning zaruriy kotsentratsiyasini ta'minlash muhim masala bo'lib, bunda texnologik jarayonning boshqarish sifatini oshirishga katta talab qo'yiladi. Maqsadli boshqarish qonunlari – kimyo texnologik obyektlarning fizik-kimyoviy kriteriyalarini hisobga olgan nochiziqli modellarga asoslangan sintezlash qonunlaridir.

Asosiy qism. Turli kimyoviy mahsulotlarni olishda, ishlab chiqarishning texnologik sxemasidagi asosiy ishchi apparatlaridan biri bu-reaktor. Uning ishi butun ishlab chiqarishning samaradorligini belgilab, natijada olingan mahsulotning sifati va narxini aniqlaydi. Shu sababdan kimyoviy reaktorni avtomatlashtirish muhim vazifadir [1-2].


Reaktordagi jarayonni avtomatlashtirish uchun ishlatiladigan an'anaviy roslash tizimlari, reaktordan mahsulot chiqishida optimal tarkibli konsentratsiyani va

jarayonni xavfsizligi xamda jadallashtirish masalalarini ta'minlamaydi. Shuning uchun ushbu ob'ekt uchun avtomatik boshqaruv tizimini ishlab chiqish dolzarbdir vazifadir. Ko'rilayotgan reaktor bu davriy kimyoviy reaktor hisoblanib, reaksiya boshlanishidan oldin reagentlar yuklanadi va jarayon oxirida mahsulotlar aralashmasi chiqariladi (1-rasm).

Vaqt o'tishi bilan davriy reaktordagi jarayon parametrlari o'zgaradi. Aloxida reaksiya tsikllari o'rtasida yordamchi operatsiyalar, ya'ni reagentlar va mahsulotlarni tushirish, reaktorni tozalash ishlari bajariladi. Reaktor ishi davomida, izotermik rejimdagi issiqlik almashinish moslamasidan foydalaniladi. Bu esa bu sizga issiqlikni kiritish yoki chiqarish orqali butun jarayon davomida doimiy haroratni saqlash imkonini beradi [3].

Ishlab chiqarish jarayonining asosiy operatsiyalari quyidagilardan iborat:

1. Birinchi birlashtiruvchi trubkasi orqali reagent 30 daqiqa davomida quyiladi.



1-rasm. Davriy rejimda ishlovchi reaktorning prinsipial sxemasi

2. Signal chastota konvertoriga uzatiladi, bu esa o'z navbatida induksiyon motoriga kuchlanish ta'minlaydi va aralashtirish boshlanadi.

3. Kobalt tuzi ikkinchi ta'minlovchi trubkasi orqali quyiladi. reagentni quyish vaqti 20 daqiqa.

4. Reaktivlarni isitish bug' issiqlik almashtirish moslamasiga etkazib berish bilan boshlanadi. Barcha kimyoviy reaksiya davomida harorat rejimi saqlanib qolinadi.

-Issiqlik moslamasidagi harorat -180°S daraja.

-Reaktordagi reaksiya harorati 90 darajada saqlanishi kerak.

- Reaktordagi bosim -3 kg / sm^2 .

5. Kimyoviy reaksiya davomida, yopishqoqlikni nazorat qilish uch marta amalga oshiriladi.

6. Yuklamadan oldin reaktor sovutiladi.

Shunday qilib, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi butun jarayon davomida harorat rejimini saqlab turishi kerak.

Davriy kimyoviy reaktorni boshqarish ob'ekti sifatida ko'rib chiqamiz. Reaksiya aralashmasining doimiy hajmi $V_1 = 23,08\text{ m}^3$, ichki diametri 1,55 m, tashqi diametri 1,7 m va balandligi 3,1 m bo'lgan aralashtirgichli va bug' ko'ylagi bo'lgan davriy kimyoviy reaktorga suyuqlik aralashmasi A va B moddalari 15°S haroratda, boshlang'ich konsentratsiyalari mos ravishda $C_A = 20\text{ mol/m}^3$ va $C_B = 100\text{ mol/m}^3$ kelib tushadi. Reaktorda reaksiya tezligi $r = A \cdot e^{-E/RT} \cdot C_A \cdot C_B$, mol / ($\text{m}^3 \cdot \text{s}$) bilan va kimyoviy reaksiya $A + B = C$ sxemasi bo'yicha sodir bo'ladi. Bu erda $A = 30\text{ (mol} \cdot \text{s} \cdot \text{m}^3)^{-1}$, aktivlik energiyasi $E = 40,000\text{ J/mol}$, universal gaz doimiysi $R = 8.314\text{ J/(mol} \cdot \text{K)}$. Ekzotermik kimyoviy reaksiyaning issiqlik energiyasi $+10000\text{ J/mol}$ ga teng. Qobiqda (bug' ko'ylagida) reaksiya uchun zarur shart-sharoitlarni saqlab turish uchun qizdirishda issiqlik eltuvchi kirishda $T_{\text{kir}} = 180^{\circ}\text{C}$ va sovutishda esa $T_{\text{chiq}} = 15^{\circ}\text{S}$ harorat bilan beriladi.


Issiqlik almashtirgichining V_2 hajmi 1,42 m^3 , issiqlik almashtirgichning maydoni $S = 19,5\text{ m}^2$. Issiqlik eltuvchidan to reaksiyon massagacha issiqlik uzatish koeffitsienti $K_t = 1000\text{ J / ((m}^2 \cdot \text{s} \cdot \text{K)}$ ga teng bo'ladi.

Tekshirish ob'ekti sifatida har qanday texnologik jarayon quyidagi asosiy o'zgaruvchilar guruhlarini bilan tavsiflanadi.

1. Nazorat qilish maqsadida tartibga solish tizimi ob'ektga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgaruvchilar. Ushbu o'zgaruvchilarning kombinatsiyasi rostlanuvchi ta'sirining vektori deb ataladi.

2. O'zgarishni rostlanuvchi tizimining ta'siri bilan bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilar. Ushbu o'zgarishlar tashqi sharoitlarning boshqariladigan ob'ektiga ta'sirini, ob'ektning o'ziga xos xususiyatlarining o'zgarishini va boshqalarni aks ettiradi. Ular bezovta qiluvchi ta'sir deb nomlanadi [4].

Shunday qilib, kimyoviy reaktorni 2-rasmda ko'rsatish mumkin.



2-rasm. Boshqarish ob'ekti sifatida kimyoviy reaktor

Biz o'rganilayotgan ob'ektning dinamik rejimlarining tenglamalarini yozamiz. Kirishdagi har bir o'zgaruvchiga mos keladigan tenglamalarni tuzamiz [5].

1) Dinamik rejimda komponentlar uchun moddiy balansni quyidagicha:


$$d(C_A \cdot V_1) = G_1^{kir} \cdot C_A^{kir} \cdot dt - r \cdot V_1 \cdot dt$$

$V_1 = \text{const}$ apparatdagi aralashma hajmi o'zgarmas bo'lganda, tenglamani ikkala qismini $1/dt$ ga ko'paytirib dt ni nolga yetkazamiz:

$$V_1 \frac{dC_A}{dt} = G_1^{kir} \cdot C_A^{kir} \cdot dt - r \cdot V_1$$

r - kimyoviy reaksiya tezligi, $[\text{mol/m}^3 \cdot \text{s}]$.

Reaktorda qaytmas endotermik reaksiya sodir bo'lgani uchun:



Bu yerda, k - kimyoviy reaksiya tezligi konstantasi quyidagiga teng:

$$k = A \cdot e^{-E/RT}$$

$$r = k \cdot C_A \cdot C_B$$

$$r = A \cdot e^{-E/RT} \cdot C_A \cdot C_B$$

Jarayonni davriyligini inobatga olib va reaktor xajmini bir siklda to'lishini inobatga olib, A, B va C moddalar miqdorini vaqt bo'yicha o'zgarish tenglamasini quyidagicha olamiz:

$$\frac{dC_A}{dt} = -A \cdot e^{-E/RT} \cdot C_A \cdot C_B$$

$$\frac{dC_B}{dt} = -A \cdot e^{-E/RT} \cdot C_A \cdot C_B$$

$$\frac{dC_C}{dt} = A \cdot e^{-E/RT} \cdot C_A \cdot C_B$$


2) Kiruvchi va chiqadigan tarkibiy qismlar mavjud emasligini hisobga olib, reaktor hajmi uchun issiqlik (energiya) balansini yozamiz:

$$d(Cp_1 \cdot r_1 \cdot V_1 \cdot T^{chiq}) = K \cdot S \cdot (T_T^{chiq} - T^{chiq}) \cdot dt + DH \cdot A \cdot e^{-E/RT} \cdot C_A \cdot C_B \cdot V_1 \cdot dt$$

3) Bug' qobig'i uchun issiqlik balansini yozamiz:

$$d(Cp_2 \cdot r_2 \cdot V_2 \cdot T_T^{chiq}) = G_T^{chiq} \cdot r_2 \cdot Cp_2 \cdot (T_T^{chiq} - T^{chiq}) \cdot dt - K \cdot S \cdot (T_T^{chiq} - T^{chiq}) \cdot dt$$

Tekshirish ob'ekti dinamikasini o'rganish uchun atlab/simulink dasturiy ta'minot to'plami nuqtai nazaridan model ishlab chiqilgan. 3-rasmda issiqlik eltuvchi uzatilishi bilan bug' qobig'idagi o'tsh jarayoni tasvirlangan.



3-rasm. Boshqarish ob'ektini o'tish xarakteristikasi

Olingan vaqtinchalik xarakteristikalar asosida uzatish funktsiyalarining analitik ifodalarini topish uchun grafik usul qo'llaniladi. Olingan xarakteristikadan foydalanib, boshqarish ob'ekti uzatish funktsiyasi:

$$W(s) = 180 / ((85s + 1)(865s + 1)),$$


$$K = 180; T_1 = 85 \text{ c}; T_2 = 865 \text{ c}.$$

Ishni rostdash jarayonlari Matlab muhitida PID kontrollerlarini avtomatlashtirilgan sintezidan foydalanadi. Usul Simulink-dagi PID-Controller bloklaridan foydalanishga va Simulink Control Design interfeysida PID kontrollerlarini sozlash algoritmiga asoslangan[6-7].

Ushbu usuldan foydalanish uchun Simulink/Continuous kutubxonasidan PID Controller bloki ("PID kontrolleri") bilan yopiq tizimli boshqaruv tizimini yig'ildi (4-rasm).

PI kontrolatorining quyidagi parametrlari olinadi:


$$K_p = 0.013281854839223; T_i = 2.59381383564097e-005.$$



4-rasm. PID Controller bloki

Avtomatik boshqarish tizimida modellashtirish chiziqli bo'lmagan modelda amalga oshirildi. Natijada, rasmda keltirilgan jarayonning harorat rejimini aks ettiruvchi grafiklarni oldik.

5. Grafiklardan ko'rinib turibdiki, tizim sozlash harakatlarini statik xatosiz bajaradi minimal talab va texnologik talablarga javob beradigan tezlik.



5-rasm. Davriy reaktorda ARTda xaroratni rostdash jarayoni grafigi.

Xulosa

Shunday qilib, maqolada davriy ta'sirga ega bo'lgan kimyoviy reaktorning avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini ishlab chiqarish vazifasi qo'yilgan. Boshqaruv ob'ekti sifatida davriy reaktor olinib, asosiy jarayonlarning analitik modeli ishlab chiqilgan. Ob'ektni o'tish xarakteristikalarini orqali modellashtirish o'tkazilib, uning uzatish funktsiyasini olish uchun identifikatsiya qilish amalga oshiriladi. PI rostdagich yordamida bir kontur sifatida davriy reaktorni avtomatik boshqarish tizimi ishlab chiqilgan. Modellashtirish natijalari sintez qilingan tizimning samaradorligini, tartibga solishning

sifat ko'rsatkichlari texnik shartlarning talablariga javob berishini isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кафаров В.В., Дорохов И.Н., Кольцова Э.Н. Системный анализ химической технологии. – М.: Наука, 1993.
2. Кафаров В.В, Четкин В.А. Устойчивость химических реакторов. Сборник Итоги науки и техники. Процессы и аппараты химической технологии. М.: ВINITI. 1980. Т. 8. С. 77-151.
3. Нейдорф Р.А. Характерные нелинейные инварианты и математические модели объектов управления химических производств // Современная прикладная теория управления. Ч.III. Новые классы регуляторов технических систем / Под ред. А.А. Колесникова. ФЦП «Интеграция». – М. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2000.
4. Хариш И.Е. Синергетический метод синтеза систем управления химическими реакторами периодического действия. Известия Южного федерального университета. Технические науки. №6 (119), июнь 2011. Тематический выпуск: Системный синтез и прикладная синергетика.
5. Сидиков И.Х., Усманов К.И., Якубова Н.С. Ночизикли динамик объектларни синергетик бошқариш усулидан фойдаланиб синтезлаш // МУХАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ АВЛОДЛАРИ, ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ВА АХБОРОТ-ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ. № 1(11)/2020.
6. Дудникова Е.Г. Автоматическое управление в химической промышленности учебник для вузов. – М. Химия. 1987.-368с.
7. Нестеров А.Л. Проектирование АСУТП. Методическое пособие.– СПб.:
8. Издательство ДЕАН, 2006. – 552 с. Сидиков И.Х., Усманов К.И., Якубова Н.С. Синергетик

ёндошув асосида кимё-технологик жараёнларни бошқариш тизимларини синтезлаш // Техник ва ижтимоий-иқтисодий фанлар соҳаларининг муҳим масалалари Республика Олий ўқув юртлараро илмий ишлар тўплами. Тошкент-2019.

Sarbolayev Farrux Nabiyevich

Toshkent kimyo texnologiya instituti, Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi.

e-mail: sarbolayev_f@mail.ru

Usmanov Komil Isroilovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti, informatika, avtomatlashtirish va boshqaruv kafedrası katta o'qituvchisi. e-mail: usmanov.komil@mail.ru

Islomova Farida Komiljonovna

Toshkent kimyo texnologiya instituti, informatika, avtomatlashtirish va boshqaruv kafedrası katta o'qituvchisi. e-mail: islamova_fk@mail.ru

Sarbolayev F.N., Usmanov K.I., Islomova F.K.

Formation of automatic control system of chemical reactor operating in periodic mode.

The article sets the task of developing an automated control system for technological processes in a batch chemical reactor. On the basis of a systematic approach,

the problem of analysis as an object of control of a chemical reactor was solved, and the stages and tasks of systematic analysis as an object of control of a reactor were identified. The complexity of the problems of systematic analysis is characterized by the multidimensionality, nonlinearity and multiplicity of objects. A conceptual and mathematical model of the object was developed. The values of the input and state variables in the optimal static mode, which provide a given value of performance, were determined. The dynamic properties of the reactor were studied by constructing curves along different channels. Management systems in the form of various topological structures of the reactor were proposed. An analytical model of the main processes was developed, taking a batch reactor as the control object. The object is modeled using transient characteristics and identified to obtain its transfer function. The automatic control system of the batch reactor was developed as a loop using a PI controller. The simulation results confirmed the efficiency of the synthesized system, the control quality indicators meet the requirements of the technical specifications.

Keywords: Chemical reactor, mathematical model, stoichiometric matrix Matlab, state matrix, synergistic synthesis, ADAR method.

Садиков А.Н., Арипов Н.М.

Алгоритмы субоптимальной фильтрации при наличии отказов в канале измерения в системах контроля рельсовых линий

В статье для заданных моделей системы контроля рельсовых линии (КРЛ) определены субоптимальные алгоритмы оценивания вектора состояния, с использованием которых получены алгоритмы субоптимальной фильтрации для случая, когда параметрическая переменная представляет собой марковскую цепь. Приведена последовательность вычислений вектора состояния и марковской параметрической переменной. Разработана структурная схема и проанализированы результаты математического моделирования субоптимального фильтра

Ключевые слова: система контроля состояния рельсовых линии, модель информационного сообщения, уравнений состояния и наблюдения, субоптимальные алгоритмы оценивания вектора состояния, алгоритм субоптимальной фильтрации, вычисления апостериорных вероятностей, последовательность вычислений вектора состояния и марковской параметрической переменной, структурная схема и математического моделирования алгоритма субоптимального фильтра.

Применение микропроцессов приводит к увеличению работоспособности систем автоматики и телемеханики, в частности, их подсистемы контроля состояния рельсовой линии (КРЛ) в условиях воздействия дестабилизирующих факторов. Поэтому, для обоснованного выбора формы полезного сигнала, его мощности, способов обработки и определения принципов построения, методов технической реализации приемопередающей аппаратуры рельсовых цепей возникает необходимость проведения детальных исследований.

Таким образом, в условиях нормального функционирования всех элементов системы КРЛ основными задачами исследования являются синтез алгоритмов оптимальной фильтрации при известных динамических свойствах системы и заданных характеристиках канала измерения.

Пусть модель информационного сообщения системы КРЛ описывается с помощью уравнения состояния:

$$x_{h+1} = \Phi_{h+1,h}x_h + w_h, \quad (1)$$

а модель канала измерения – с помощью уравнений наблюдения вида

$$y_h = H_h x_h + \gamma_h v_h \quad (2)$$

где γ_h – случайная величина, принимающая два значения: $\gamma_h = 1$ (режим нормальной работы) и $\gamma_h = \sigma \gg 1$ (режим аномальных измерений при наличии отказов в канале).

Для заданных моделей системы КРЛ найдем практически реализуемые субоптимальные алгоритмы оценивания вектора состояния при различных моделях параметрической переменной γ_h .

Оценивание при марковской параметрической переменной. Получим теперь, алгоритм субоптимальной фильтрации для случая, когда параметрическая переменная γ_h представляет собой марковскую цепь с двумя состояниями $\gamma_1 = 1$ и $\gamma_2 = \sigma$. Начальные вероятности этих состояний $\|P_0\| = \|p_1 \ p_0\|$ и матрица перехода марковской цепи:

$$\|P_{ij}\| = \begin{vmatrix} P_{11} & P_{1\sigma} \\ P_{\sigma 1} & P_{\sigma\sigma} \end{vmatrix} \quad (3)$$

заданы. Система КРЛ определена своими уравнениями состояния (1) и наблюдений (2).

Будем использовать субоптимальной алгоритмы

оценивания [1]. Для этого используем допущение о том, что плотность распределения вероятностей оценок экстраполяции может быть аппроксимирована Гауссовской плотностью с вектором средних $x_{h,h-1}$ и корреляционной матрицей $P_{h,h-1}$, т. е.:

$$f(x_h | Y_1^{h-1}) = N\{x_{h,h-1}, P_{h,h-1}\} \quad (4)$$

Для нахождения оптимальной оценки вида $x_{h,h} = E(x_h | Y_1^h)$, необходимо вычислить апостериорную плотность распределения вероятностей $f(x_h | Y_1^h)$ при фиксированной выборке наблюдений $Y_1^h = \{y_1, y_2, \dots, y_h\}$. По аналогии с выражением:

$$\begin{aligned} f(x_h | Y_1^h) &= E_\gamma \left[f(x_h | Y_1^h, \overline{\Gamma}_{ih} | Y_1^h) \right] = \\ &= \sum_{\overline{\Gamma}_{ih} \in \Omega_h} f(x_h | Y_1^h, \overline{\Gamma}_{ih}) P(\overline{\Gamma}_{ih} | Y_1^h) \end{aligned}$$

пользуясь сглаживающими свойствами условного среднего, искомую апостериорную плотность можно записать в следующем виде:

$$\begin{aligned} f(x_h | Y_1^h) &= E_\gamma \left[f(x_h | Y_1^h, \gamma_h = i) \right] = \\ &= \sum_{i=1, \sigma} f(x_h | Y_1^h, \gamma_h = i) P(\gamma_h = i | Y_1^h) \end{aligned} \quad (5)$$

Вычислим условные плотности распределения вероятностей: $f(x_h | Y_1^h, \gamma_h = i)$, определяющие частные оценки, пользуясь методикой, изложенной в [2] при выводе рекуррентных соотношений фильтра Калмана.

Используя формулу Байеса, получаем:

$$\begin{aligned} f(x_h | Y_1^h, \gamma_h = i) &= f(x_h | y_h, Y_1^{h-1}, \gamma_h = i) = \\ &= \frac{f(y_h | \gamma_h = i, x_h) f(x_h | Y_1^{h-1})}{f(y_h | \gamma_h = i, Y_1^{h-1})} \end{aligned} \quad (6)$$

Рассмотрим теперь по отдельности плотности вероятностей, входящие в это выражение [3,4]. Так

как шумы измерений по предположению гауссовы, то из уравнения наблюдения (2) непосредственно следует, что:

$$f(y_h | \gamma_h = i, x_h) = N\{H_h x_h, i^2 R_h\}, i = 1, \sigma \quad (7)$$

Распределение оценок экстраполяции в соответствии с принятым допущением вида (4) тоже гауссовское. Что касается условной плотности, входящей в знаменатель выражения (6), то, как было установлено в [2], ее можно записать как

$$f(y_h | \gamma_h = i, Y_1^{h-1}) = N\{H_h x_{h,h-1}, H_h P_{h,h-1} H_h^T + i^2 R_h\}, i = 1, \sigma \quad (8)$$

Следовательно, выражение (6) является гауссовской плотностью и частные оценки $x_{h,h}^{(1)} = E(x_h | Y_1^h, \gamma_h = 1)$ и $x_{h,h}^{(\sigma)} = E(x_h | Y_1^h, \gamma_h = \sigma)$, в рассматриваемом случае могут быть вычислены по рекуррентным соотношениям фильтра Калмана, причем:

